

3
Z.Sh.SHOMUHAMEDOVA

RIM
XUSUSIY HUQUQI



Darslik

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

Z.Sh.SHOMUHAMEDOVA

RIM XUSUSIY HUQUQI

Darslik



Toshkent-2005

Toshkent Davlat yuridik instituti ilmiy kengashida ma'qullangan.

Shomuhamedova Z.Sh. Rim xususiy huquqi
/Mas'ul muharrir: H. Rahmonqulov. Darslik. – T.:
TDYUI nashriyoti, 2005. –113 b.

Mas'ul muharrir: – O'zbekiston FA akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, yuridik fanlar doktori, professor **H. Rahmonqulov**

Taqrizchilar: M.Ulug'bek nomli O'zbekiston Respublikasi Milliy universiteti, huquqshunoslik fakulteti xalqaro va qiyosiy huquq kafedrası mudiri, professor **Q.Z.Alimov**, o'qituvchi **N.Tojiqulova**.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Huquqiy tadqiqotlar markazi direktori, yuridik fanlari nomzodi **Z.Ubaydullayev**.

Ushbu darslik xususiy mulkchilik huquqining beshigi bo'lgan Rimda maztur huquqning vujudga kelishi, rivojlanishi va kamolotiga bag'ishlangan. Bunda Rim xususiy huquqining barcha sohalari hozirgi zamon romanistika fani nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Ona tilmuzda birinchi tajriba bo'lmish bu kitob "Rim xususiy huquqi" lani bo'yicha Toshkent Davlat yuridik institutida tayyorlangan dastur asosida yuzaga kelgan bo'lib, yuridik o'quv yurtlari hamda huquq sohasi xodimlariga mo'ljallangan.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 14 yilligiga ba gʻishlanadi

Soʻz boshi

Mustaqil davlat – Oʻzbekiston izchil ravishda huquqiy demokratik davlat qurishga kirishdi. Ozod mamlakatimizning jahondagi ilgʻor huquqiy davlatlar hamjamiyatiga ongli ravishda kirib borishi har bir fuqaroning oʻz huquq va burchlaridan yaxshi xabardor boʻlishini, ulardan toʻgʻri foydalanishini va ularni ogʻishmay bajarishini talab etadi.

Bu sohada, albatta, xususiy huquq masalalari alohida oʻrin tutadi. Zero biz bozor iqtisodiyotiga oʻtar ekanmiz, mamlakatimizda xususiy mulkchilikning huquqiy va iqtisodiy asoslari qaror topmoqda. Demak, fuqarolarimiz, birinchi galda, huquqshunoslarimiz va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari xususiy huquq masalalarini teran tushungan boʻlishlari kerak.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalda boʻlgan xususiy huquq, jumladan, fuqarolik huquqi tizimi haqidagi huquqiy bilimlarning negizini **Rim xususiy huquqi** tashkil etadi. Rim xususiy huquqidan ham toʻgʻriroq va mukammalroq huquqni hech bir xalqda topib boʻlmaydi. Buni butun jahon tan olgan va yigirma asrdan ortiq vaqtdan buyon dunyoning koʻpchilik madaniyatli xalqlari Rim huquqidan oʻz sharoitlariga moslashtirgan holda foydalanib kelmoqdalar. Rimliklarning bashariyat tarixi oldidagi ushbu buyuk xizmatlarini barcha xalqlarning huquqshunos olimlari eʼtirof etganlar.

Rim xususiy huquqining bunday barkamolligi va universalligi bir necha muhim omillarga asoslangan, ammo ularning barchasini umumlashtirib aytish mumkinki, ular xususiy mulkchilik munosabatlarining obʼyektiv, yaʼni kishining xohishidan tashqari amal qiladigan qonuniyatlarini kashf eta olganlar va ularni oʻz sharoitlarida oqilona qoʻllash yoʻllarini ishlab chiqqanlar.

Bu qonuniyatlarning koʻpchiligi **islom huquqi** – shariatda ham oʻz ifodasini topgan, ammo bu alohida tadqiqot mavzuini tashkil etadi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti mustahkamlanib borgan sari iqtisodiyotimizning huquqiy asoslari tarkibiga Rim xususiy huquqi **kategoriyalari** (restitutsiya, vindikatsiya, negator, majburiyat, delikt va h.k.)ning kirib kelishi va maʼlum sohalarda oʻz hukmini oʻtkaza borishi muqarrar. Yangi qabul qilinayotgan qonunlarimizda ham uning taʼsiri sezilmoqda. Bu esa xususiy mulkchilik huquqining asoslari eng yaxshi ishlab

chiqilgan Rim xususiy huquqini o'rganish, uni chuqurroq tahlil qilib tushunishni taqozo etadi.

Boz ustiga, insoniyat tarixida muhim bosqich bo'lgan ushbu huquqning rivojlanish jarayonidan xabardor bo'lish, uni teranroq idrok etish **ma'naviyatimizni** boyitishi aniq. Shuning uchun ham barcha yuridik ta'lim muassasalarida Rim huquqini o'rganish yo'lga qo'yilgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin huquqiy asoslarimiz ham umumbashariy yo'lga tushib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimovning chuqur nazariy asoslangan kitoblarida umumbashariy qoidalar va mamlakatimizdagi shart-sharoit, millatimizning hozirgi ahvolini hisobga olgan holda huquqiy davlat qurishning nazariy asoslari ishlab chiqildi va izchilik bilan hayotga joriy etilmoqda. I.A.Karimovning ta'kidlab o'tishicha, "Mustaqillik yillarida respublikada xalqaro amaliyotda qabul qilingan, inson huquq va erkinliklari ustuvorligidan kelib chiqadigan huquqiy qoidalar va normalarga asoslangan keng huquqiy makon vujudga keltirildi. Biz totalitar tuzumning o'z hukmini o'tkazishi va boshboshdoqligidan voz kechdik. Odamning davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan, shuningdek, mulkchilikning hamma shakllaridagi ma'muriy xo'jalik tuzumlari bilan xilma-xil munosabatlarini tartibga solishning huquqiy normalari sari dadil qadam tashladik"¹.

Bu esa, birinchi galda, bozor iqtisodini mustahkamlash, davlat mulkini xususiylashtirish, ya'ni xususiy mulkchilik munosabatlarini keng joriy etishni talab qiladi. Xususiy mulk bozor munosabatlarining asosiy iqtisodiy manbai bo'lib, xususiy mulk tashkil topmasdan turib bozor munosabatlari haqida yuritilgan har qanday fikr xomxayoidir. Xususiy mulk va uning asosida vujudga keladigan munosabatlar bizning qonunchilik faoliyatimizda yangilik bo'lganligi tufayli, O'zbekiston Respublikasi **Fuqarolik kodeksining** tegishli moddalarida qator murakkab masalalar o'ziga xos yechimini topdi.

Yaqin o'tmishda xususiy mulk kishining o'zgalar kuchidan foydalanishi, ya'ni ekspluatatsiya qilishi uchun manba deb baholanib, unga yo'l qo'yilmas edi. Jamiyatda shaxsning erkinligi uning xususiy mulkdan ozod bo'lishi bilan ta'riflanardi. Lekin ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan xalq o'sha vositalarning yakkayu yagona egasi bo'lgan davlat irodasiga itoat etardi. Ijtimoiy hayotning mohiyati yangicha talqin etilishi tufayli respublikamizda xususiy mulkka yo'l berildi. Bunga Konstitutsiyamizning 53-moddasida asos solindi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997. 201-b.

Xususiy mulkning huquqiy asoslarini esa biz Rim xususiy huquqidan topamiz. Shu bois ham respublikamizda xususiy mulkning shakllanish jarayonida rim xususiy huquqi yordamga kelishi, ba'zi qoidalarining esa qonunchiligimizda qabul qilinishi tabiiy bir holdir.

Rim xususiy huquqi o'zining hozirgi ko'rinishida birdaniga paydo bo'lgani yo'q. U rivojlanishning ko'plab davrlarini bosib o'tdi. Dastlabki ko'rinishida u "*ius civile*", ya'ni sivil yoki grajdanlik huquqi shaklida namoyon bo'ldi. O'sha davrda jinoiy javobgarlik haqidagi qoidalar, qarz bo'yicha to'lanadigan foizning eng kam miqdori, ko'chaning kengligi va bizning davrimizda huquqning turli sohalariga taalluqli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha qabul qilingan qonun-qoidalar bitta umumiy xususiyati ifodalangan – ularda nazarda tutilgan qoidalar Rim fuqarolariga tegishli bo'lib, ajnabiylar va qullarga joriy qilinmagan. Ushbu ma'noda, ya'ni qonunlardagi huquq faqat Rim fuqarolariga tegishli bo'lgani tufayli "*ius civile*", ya'ni fuqarolik huquqi degan ibora shaklini olgan.

Rim imperiyasining yuksalishi, uning boshqa davlatlarni bosib olishi bilan faqat rimliklarga tegishli bo'lgan qonun-qoidalar talabga javob bermay qo'ydi. Buning ustiga nafaqat Rimda, shuningdek, Yevropa mamlakatlarida ham tovar-pul munosabatlarining jadal rivojlanishi, birinchi galda, turli davlatlar fuqarolari o'rtasidagi mulkiy, savdo-sotiq munosabatlariga tegishli qoidalarni qayta ko'rib chiqishni talab qilardi. Bu yangi Rim huquqi tarkibida "*ius gentium*", ya'ni xalqlar huquqi tizimining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu huquq rimliklar va rimlik bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi munosabatlarga tatbiq qilindi. Odamlar ishbilarmonlik faoliyatining kengayishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, tovar ayirboshlashning, savdo aloqalarining rivoj topishi natijasida "*ius honorarium*", ya'ni pretor huquqi vujudga keldi. Ushbu huquq *ius civile* huquq qoidalariga qat'iy amal qilgan va unga yondashgani holda "*ius gentium*" qoidalarini hayotda amalga oshirdi.

Yuqorida qayd etilgan huquq sohalari Rim xususiy huquq tizimining alohida soha sifatida tashkil topishiga va takomillashtirilishiga, ommaviy huquqdan farqlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Unda xususiy mulk haqidagi qoidalar va uni himoya qilish, boshqa ashyoviy huquqlar, turli bitimlar, shartnomaga asoslangan va asoslanmagan majburiyatlar, meros huquq va boshqa masalalar haqidagi qoidalar mukammal ishlab chiqildi.

Demak, Rim xususiy huquqi uzoq yillar davomida shakllandi va xalqaro yuridik jamoatchilik tomonidan tan olindi. U qator davlatlarning fuqarolik qonunchilik amaliyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Rim xususiy huquqi qoidalari 1804 yilgi Napoleon "*Fuqarolik kodeksi*"da va boshqa davlatlarning fuqarolik qonunchiligi sohasida keng ko'lamda o'z aksini

topdi. Bu hol Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida, xususan, O'zbekiston Respublikasida ham ko'zga tashlanadi. Rim xususiy huquqi yuridik oliy o'quv yurtlarida o'quv dasturiga kiritilgan, u haqda ketma-ket yangi asarlar nashr etilmoqda.

O'zbekistondagi yuridik ta'lim muassasalarida davr talabidan kelib chiqib, Rim xususiy huquqi fani kiritilganiga qaramay, hozircha o'zbek tilida na darslik va na kattaroq o'quv qo'llanmasining yo'qligi yuridik o'quv yurtlarida ham, huquqni muhofaza qilish idoralarida ham ko'plab qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Shu bois Toshkent davlat yuridik instituti rektoratining taklifi bilan hamda kafedra yaratib bergan imkoniyatlardan foydalanib, birinchi tajriba sifatida ushbu darslik yaratildi. U Toshkent davlat yuridik institutida o'qitiladigan Rim huquqi kursining dasturi asosida yozilgan bo'lib, unda Ulpian "alohida shaxslar foydasini ko'zlovchi huquq" deb atagan huquq, ya'ni "Xususiy huquq"ni o'rganish vazifasi qo'yilgan. Bunda jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquq va boshqa sohalarga alohida to'xtalib o'tilmaydi. Shaxs huquqi fuqarolik huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun darslikda unga (ayniqsa, uning da'volar bo'limiga) murojaat etib turishga to'g'ri keladi.

O'quv fanining asosiy vazifasi uni o'rganuvchilarda yuridik dunyoqarashni shakllantirish, ya'ni ularni voqealarga huquqiy nuqtai nazardan qarashga, yuridik fikrlashga va pirovard natijada ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishga yordam berishdan iboratdir.

Har qanday birinchi ishda bo'lganidek, unda ham muayyan kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham, muhtaram kitobxon, sizning kitob mazmunini boyitishga xizmat qiladigan barcha taklif va mulohazalaringizni ushbu darslik muallifi Z.Sh. Shomuhamedova mamnuniyat va minnatdorlik bilan qabul qiladi. Zero, bildirilgan taklif va mulohazalar kitobning keyingi nashrlari yanada puxta bo'lishiga yordam beradi, degan umiddamiz.

H. Rahmonqulov, yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston FA akademigi.

I BOB. RIM XUSUSIY HUQUQI – O'QUV FANI

1-§. Rim xususiy huquqi va uning predmeti

Huquq tizimi alohida huquq sohaslaridan tashkil topadi. Har bir ilm sohasining o'ziga xos predmeti, ya'ni bahs mavzui mavjud bo'lib, u ana shu mavzui bilan boshqa huquq sohaslaridan farqlanadi. Fanning predmeti deganda u yoki bu huquq sohasining normalari vositasida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni tushunamiz. Muayyan huquq sohasining predmeti, uning mazmunini tashkil qiluvchi ma'lum doiradagi munosabatlarning xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Rim xususiy huquqi o'z davrida nafaqat Rim, balki o'zga davlatlar qonunchiligiga ham manba bo'lib keldi. Hozirgi davrda u deyarli barcha oliy yuridik ta'lim muassasalarida o'quv fani sifatida o'rganiladi va fuqarolik huquqi fanining asosiy tartiblari va nazariy kategoriyalariga nisbatan o'z mavqeini saqlab keladi. Shunday ekan, biz umum tan olgan an'anaga muvofiq, o'quv fani sifatida Rim huquqining predmetini aniqlab olishimiz lozim.

Rim huquqi, jumladan Rim xususiy huquqi qadimiy va o'lmas madaniy, siyosiy, huquqiy qadriyatlarga kiradi. U qadimiy va navqiron shahar Rimda bundan 2,5 ming yil avval paydo bo'lgan. Rim huquqi qoidalarining aksariyati ko'pgina davlatlarida qabul qilingan va shu vaqtgacha Yevropa, Amerika, Rossiya va boshqa davlatlar qonunchiligiga ta'sir o'tkazib kelmoqda.

Rim huquqi mashhur XII jadval qonunlari "adolat" va "insof", ya'ni "yaxshi ezgu niyatlar" mezonlari nuqtai nazaridan ishlab chiqilganligi uning juda yuqori baholanishiga sabab bo'ldi. Bu qonunlar o'zgarmas huquqlardan iboratligi bilangina emas, balki hayot taqozosi va sharoitga qarab odilona talqin etilishi bilan ham bezavol qonunlarga aylandi hamda ko'p zamonlar va xalqlarning huquqiy normalariga asos bo'la oldi.

Buni hammadan avval ulug' nemis faylasufi Gegel tushungan edi. U Rim huquqi qonunlari turmush talabalariga to'g'ri kelmay qolgan taqdirda Rim yuristlari o'z talqinlarida doimo bir xilda turmaganliklarini ko'rsatgan edi. Shu tariqa Rim pretorlari va huquqshunoslari qadimgi qonunlarning adolatparvar ruhini saqlagan holda Rim huquqining shaklan qotib qolgan qismidan, ya'ni hayot voqeligiga zid keladigan qonunlardan qutila bor-ganlar, pirovardida qonunning asosiy vazifasini kuchaytirganlar, uni takomillashtirganlar. "Tarixga chuqurroq nazar tashlasak, kishilarning xatti-

harakatlari ularning ehtiyojlari, manfaatlari va fe'l-atvorlaridan kelib chiqishiga amin bo'lamiz", – deb yozgan edi Gegel.

Rim huquqshunoslari ham shu mazmundagi so'zlarni yozib qoldirganlar. Bu o'rinda gap, albatta, qonunni har kim o'zi xohlagancha o'zgartiraverishi haqida emas, balki zamon, odat va odob taqozosi bilan qonun talablarini odilona va oqilona talqin etish haqida bormoqda. Rim qonunlari ana shunday talqin etish uchun imkon bergan. Bu esa ularga ustuvorlik, barqarorlik baxsh etgan.

Demak, Rim huquqi qonunlarining kuch-qudrati, o'lmas ahamiyati unga ijodiy yondashish imkoniyatining mavjudligidadir. Shuning uchun ham u juda ko'p zamonlar va makonlar qonunchiligiga manba bo'lib keldi. Uni chuqur o'rganish vazifasining dolzarbligi ham ana shu bilan bog'liq.

Bu narsa Rim davlatining o'zidayoq namoyon bo'lgan. Qonunlarni adolatli va oqilona talqin etish, sharhlash Rim pretorlari qo'lida tovar muomalasi, pul munosabatlari va xo'jalik faoliyati yo'lida g'ov bo'lib yotgan boshqa kishanlarni uloqtirib tashlagan kuchli qurol bo'ldi. qadimgi Rim oilasi ham ota-bola hamda er-xotin munosabatlarining liberallashuvi (erkinligi, murosasozligi) asosida qayta qurildi.

Pretorlar ijodi bo'lgan klassik huquqda xo'jayinlari (masalan, kema kapitanlari, sotuvchilar, do'kondorlar, uy-joy boshqaruvchilari va h. k.) biror ishni topshirgan qullar huquqi ham yaxshi himoya qilinadi. Ilgarigi qonunlarga ko'ra, ular butunlay huquqsiz bo'lganlar. Bu normalar, birinchi galda, mamlakat qonunlari va xalq urf-odatlariga hurmatni talab etadi.

Shunday qilib, Rim yuristlari respublikachilik tuzumi doirasida ommaviy va Rim huquqlaridan mavhumlashgan shaxs huquqlarini ishlab chiqqanlar. Ular borgan sayin sayqallanib takomillasha borgan. Xususiy mulk huquqi ham xuddi shu tariqa yuzaga kelgan va rivojlanishda davom etgan. Shu bois ham Rim xususiy mulkchiligi xususiy mulkchilikning klassik ko'rinishi hisoblanadi.

Xususiy huquq mulkiy va shaxsiy huquqlar yig'indisidan tashkil topadi. Mulkiy huquqning xususiyati shundan iboratki, uning qoidalari xo'jalik muomalasida huquq sohibining ra'yi, erki bilan amalga oshiriladi. Shaxsiy huquqlar mutlaq xususiyatga ega bo'lib, huquq egasidan ajratilmaydi va uning ra'yida, erk va irodasida namoyon bo'ladi (er-xotinlar, ota-onalar, farzandlar huquqi kabi). Shuning uchun ham shaxsiy huquqni huquq egasidan (sub'yektidan) ajratilgan holda qarash mumkin emas.

Rim xususiy huquqi o'zining dastlabki holatiga ko'ra ashyolarni egallash bilan bog'liq, so'ngra esa mulkiy munosabatlarni tartibga solishga

qaratiladi. Chunki ashyoni egallash mulk huquqi vujudga kelishidan avval yuz bergan jarayon hisoblangan². Ushbu munosabatlar tarkibida shartnomalarga asoslangan va shartnomalarga asoslanmagan majburiyatlar ma'lum darajada ko'p joy egallagan. Rim xususiy huquqi o'zining tartibga solish ta'sirini oilaviy munosabatlarga, buzilgan huquqni tiklash va himoya qilishga nisbatan ham o'tkazgan.

Rim xususiy huquqi o'zining dastlabki boshlanishida sivil yoki fuqarolik huquqi (*ius civile*) shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu huquq tizimi milliy xususiyatga ega bo'lib, faqat Rim fuqarolariga nisbatan joriy qilingan. Bunday yo'nalishga sabab Rim huquqi o'zining endigina tarkib topishida milliy xususiyatga ega bo'lib, ushbu mamlakatlarda vujudga kelgan munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallangan bo'lgan.

Ishlab chiqarish, mahsulot ayirboshlash va savdo aloqalarining rivojlanishi tufayli Rim xususiy huquqining rivojlanishida pretor huquqi (*ius honorarium*) alohida o'rin egallaydi.

Rim bilan boshqa davlatlar o'rtasida savdo va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, ajnabiy davlatlar savdogarlari va hunarmandlari bilan Rim fuqarolari o'rtasida aloqalar kuchayishi, ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish ehtiyoji xususiy huquqning rivojlanishini talab qilardi. Shu tufayli Rim huquqi tarkibida mustaqil huquq sohasi – xalqlar huquqi (*ius gentium*) paydo bo'ldi. Xalqlar huquqining ijobiy ta'siri asosida fuqarolik huquqining huquq va muomala layoqati, ashyoni egallash, mulk huquqi o'zganing ashyosiga nisbatan huquq, shartnomalar, delikt va boshqa shu kabi institutlar jadal rivojlana boshladi.

Xususiy huquq o'z xususiyatlariga ko'ra ommaviy huquqdan ajralib turadi, unda huquq sub'yekti o'z faoliyatida mustaqildir. Bunda davlatning tartibga solish faoliyati bor, albatta, ammo u cheklangan bo'ladi. Mulkdor o'z mulkini himoya qilishi va qilmasligi ham mumkin, shartnomaning mazmun va shartlari taraflar tomonidan belgilanadi, shaxslar manfaati faqat uning talabiga ko'ra muhofaza qilinadi.

Ommaviy huquqda esa bunday tanlov imkoniyati, ya'ni muqobillik yo'q (masalan, soliq to'lash yoki to'lamaslik haqidagi masalani shaxsning o'zi hal qilolmaydi). Bunda sub'yektlar avtonomiyasi (tanlab olish imkoniyati) cheksiz emas, u ommaviy huquq doirasidan chiqolmaydi. "Xususiy kelishuv ommaviy huquq ko'rsatmalarini o'zgartira olmaydi", – deyilgan Digestlarda (D. 2.14.38).

² Qarang: Косареv А.И. Римское право. – М.: Юридическая литература, 1986. С. 31.

Rim huquqshunosligida ommaviy huquqqa qaraganda xususiy huquq ko'proq shakllangan. Unda hayotning eng nozik tomonidan, mayda ikir-chikirlarigacha tartibga solingan va amalda qo'llanilib, takomiliga yetgan. Unda tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashga doir ta'riflarning barchasi aniq ishlanib, maromiga yetkazilgan.

Rim huquqida kishilik jamiyatining huquqiy madaniyatiga xos taraqqiyotning ma'lum bir davri va bosqichi boy yuridik hujjatlar bilan shunday aks etganki, o'zining milliy va jug'rofiy jihatlaridan qat'i nazar, uni har bir kishilik jamiyati har qanday makonda va har qanday zamonda chuqur o'rganishi kerak. Chunki u o'zining paydo bo'lishi va rivojlanishidayoq butun bashariyat tajribasi va tafakkur rivojiga suyanib, uning eng oliy aqliy yutuqlarini o'ziga singdirgan. Zero, Rim imperiyasi eng taraqqiy topgan paytlarida dunyoning ko'zga ko'ringan davlatlarini o'ziga qo'shib olgan edi. U Shotlandiyadan Misrgacha, Gibraltardan Janubiy Kavkazgacha bo'lgan katta maydonni, O'rta dengiz va Reyn oralig'idagi Bolqon yarim orolini, Kichik Osiyo va Afrikaning kattagina qismini egallagan edi. O'rta dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan esa ular egallanmasidan ilgari ham qizg'in savdo-sotiq aloqalari o'rnatilgan edi.

Demak, Rim huquqi Sharq va Farb xalqlarining aql-zakovati erishgan muvaffaqiyatlarga suyangan holda rivoj topgan edi. Ammo Rim davlatining bunchalik kengayishi va boshqa xalqlarning bo'ysundirilishi natijasida qadimgi Rim fuqarolik (sivil) huquqlari ish bermay qolgan. Bu davrga kelib xalqaro masalalar tez-tez ko'tarilib turgan. Shu bois milliylik va mahalliylikdan forig' bo'lgan yangi huquqiy normalar zarur bo'lib qolgan.

Rimliklarning tarixiy xizmatlari shundan iborat bo'ldiki, ular turli joylardagi turli millat xalqlari huquqiy normalarini sintez qilish, qayta ishlash natijasida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni ishlab chiqdilar, ularni universal, batartib va yaxlit qonun-qoidalar tizimiga aylantirib, *Yustinian Kodifikatsiyasi* shaklida keyingi avlodlarga yetkazdilar.

Qonunshunos olimlar esa erishilgan ushbu yutuqlarni yanada rivojlantirib, avloddan avlodga yetkaza bordilar. Rim huquqining dunyo bo'ylab tarqalishiga yana ikki narsa sabab bo'ldi: birinchidan, ushbu huquqning mavhumligi, ya'ni u aniq bo'lmaganligi uchun, xususiy mulkka tegishli har qanday holatda ham, turli o'zgarishlar bilan bo'lsa-da, qo'llanilishi mumkin bo'lgan; ikkinchidan, Rim xususiy huquqining xususiy mulkchilik haqidagi huquqiy tizimlar ichida eng barkamoli

ekanligi. Shuning uchun ham Rim huquqi asoslari butun dunyoda qabul qilingan va turli xalqlar uni o'z sharoitlariga moslashtira boshlaganlar.

Sobiq Ittifoq davridagina o'zgacha holni ko'ramiz. Mazkur jarayon Oktabr davlat to'ntarishi natijasida uzilib qolgan edi. Biz hech qanday xususiy mulkni tan olmaymiz, degan ta'limotda o'z ifodasini topgan yangi tuzum iqtisodiyotdan Rim huquqlari majmuasiga emas, "inqilobiy" huquqiy ongga asoslanishi talab qildi. Bu "inqilobiy" huquqiy ongning nimaga olib kelgani esa endilikda hammaga ma'lum.

O'zining universal xususiyatlari tufayli Rim huquqi keyingi davr (XII-XIII asrlar) G'arbiy Yevropa feodal davlatlarida ham qabul qilindi. Bu voqea ular uchun o'z vaqtida muhim ijobiy yutuq bo'ldi. Chunki u tovar ishlab chiqarish, savdo ishlari, moliya ishlari va umuman, burjua kapitalistik munosabatlarining yuzaga kelishi va taraqqiy topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Fransiyada burjua inqilobining g'alabasi (1789–1794) va ayniqsa, Napoleon Bonapart davri (1804–1810)da yuzaga kelgan yangi kodekslar tufayli Rim huquqi barcha e'tirof etgan burjua huquqlarining, ko'proq fuqarolik huquqlarining manbai bo'lib xizmat qildi.

O'z-o'zidan ma'lumki, unga yangi burjua munosabatlari yuzaga keltirgan qonun-qoidalar ta'sir etmay qolmagan. Ammo shunisi ham aniqki, bu qonunlar negizida ham Rim huquqi asoslari muhim o'rinni yo'qotmagan. Bu holatni biz faqat Fransiyadagina emas, balki Napoleon qonunchiligiga asoslangan barcha Yevropa mamlakatlarida ko'ramiz. Boshqa davlatlarda ham shunday bo'lgan.

Rim huquqi qonunlari bizning kunlarda ham deyarli barcha demokratik davlatlar qonunchiligiga o'z ta'sirini o'tkazgan, deyish uchun asoslar bor. Eng avvalo, uning tizimi, tez o'zgarib turadigan turmush sharoitiga moslasha olgan, uning ijodiy ruhi, ya'ni voqealarga qotib qolgan nazar bilan emas, balki ularni chuqur tushunish, mohiyatini o'rganish orqali yondashish xususiyati, uning atama (termin)lari va boshqa jihatlari jahon qonun ijodkorligi madaniyatiga kirgan eng muhim boylikdir.

Rim yuristlari sudlarga ham qonun doirasida ma'lum darajadagi erkinliklar berish tarafdori bo'lganlar, chunki ular qonunga o'zgarimas bir qoida deb qaramaganlar. Aksincha, ular qonun so'zlarini voqealar oqimiga qarab oqilona va odilona talqin etish lozim bo'lgan ko'rsatmalar deb bilganlar.

“Odamlar manfaati uchun kiritilgan narsalarni, qonundan sitatalar keltirish yo'li bilan ularning zarariga aylantirish adolatdan emas”, – degan edi Rim qonunshunosi Modestin. Boshqa bir qonunshunos Ulpian esa:

“Agar huquq adolatga to‘g‘ri kelmasa, unda adolat tarafini olish kerak”, – deydi. Shunday qilib, Rim huquqida adolat har qanday qonundan ustun turgan.

Rim huquqi majmualarida fuqarolik huquqiga qaraganda xususiy huquqqa ko‘proq e‘tibor berilganligi; xususiy huquqning ko‘proq taraqqiy etganligi, shaxslar orasidagi munosabatlarning eng chalkash, chigal va nozik tomonlari hisobga olinganligi; tovar ishlab chiqarish, almashish va savdo-sotiqning turli shakllari natijasida yuzaga keladigan munosabatlar har tomonlama tahlil etilganligi buning asosiy sabablaridan biri ekanligini e‘tirof etish lozim bo‘ladi. Ammo, shu bilan birga, Rim fuqarolik huquqi asoslarini ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Xususiy huquq va fuqarolik huquqi orasidagi bog‘liqlikni hisobga olish lozim bo‘ladi. Rim yuristlari va magistrleri (amaldorlari)ning faoliyati ommaviy huquq qonuniyati chegarasidan chiqmas edi. Xususiy huquq ko‘pincha ommaviy huquq normalari bilan qo‘llab-quvvatlantirilgan. Bundan zaif qonun chiqarish natijasida ma‘muriy va sud faoliyati ham amalda mumkin bo‘lmay qolar edi.

Ommaviy huquq xususiy huquq qurilishi va taraqqiyotining asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Rim yuristlarning “xususiy huquq ommaviy huquq ko‘rsatmalarini buza olmaydi”, – degan so‘zlari ham mazkur fikrimizni tasdiqlaydi.

Ulpianning so‘zlariga qaraganda, huquqni o‘rganish ikki bo‘limdan iborat bo‘lmog‘i kerak: 1) ommaviy va 2) xususiy. Rim davlatining holatiga taalluqli huquq – ommaviy; alohida, yakka shaxslarga taalluqli; ularning manfaatlarini himoya etuvchi huquq esa – xususiy huquq hisoblanadi.

Ruhoniylar va magistrlar faoliyati ommaviy huquq doirasida kechadi. Xususiy huquq esa xususiy shaxslar manfaatini yoqlaydi. Ular huquq sub‘yekti hisoblanadilar va qonun oldida barchalari barobardirlar. Bunga xususiy mulk va unga egalik huquqi, shartnomalarda e‘tirof etilgan majburiyatlar, oilaviy munosabatlar, vorislik huquqlari kiradi.

Hozirgi zamon huquqshunosligida xususiy huquq deganda, fuqarolik huquqini yoxud fuqarolik va savdo-sotiq huquqini birgalikda tushuna boshladilar.

Ommaviy va xususiy huquqlar orasidagi farq shundan iboratki, ommaviy huquq normalari buyruq va farmonlarga asosan yuzaga keladi va barcha uchun majburiydir. Xususiy huquq normalari esa taraflarning kelishuvi asosida qo‘llaniladi, unda farmonlar asosida tasdiqlangan normalar kam uchraydi.

Masalan, XII jadval qoidalari ichida ham qarz shartnomalari haqida “tarafklar qanday kelishmalar, shunday bo‘lsin, shu huquq bo‘lsin” singari qoidalar mavjud. Xususiy huquq normalari orasida “to‘ldiruvchi”, “shartli ravishda”, degan dispozitiv xususiyatga ega qoidalar yoki ko‘rsatmalar bor. Bu esa huquq sub’yekti normativ ko‘rsatmalardan o‘zi istagan tartibda foydalanish huquqiga ega ekanligini bildiradi.

Rim yuristlarining asarlari ko‘proq xususiy huquq masalalariga bag‘ishlangan. Ommaviy huquq tahlili ularda kamroq uchraydi. Ammo, shunga qaramay, ular ommaviy huquq borasida ham ko‘p ishlarni amalga oshirganlar. Ulardan davlat huquqi, jinoyat va sud protsesslari haqida muhim xulosalar bizgacha yetib kelgan.

Bevosita Rim fuqarolik huquqi asoslariga o‘tishdan oldin Rim respublikasi davrida bo‘lgan davlat organlari bilan qisqacha tanishib chiqish lozim, chunki ana shundagina uni bu huquq normalarining mazmunini chuqur tushunish mumkin bo‘ladi.

2-§. Rim huquqining tarkib topishida davlat organlari

1. Senat. Senat Rim respublikasining yetakchi organi va Rim aslzodalarining tayanchi bo‘lgan. Senat a‘zolari saylanmaganlar, ular konsullar va (keyinroq) senzorlar tomonidan tayinlanganlar. Avvaliga senat a‘zolari faqat patriitsylardan tayinlanib, keyinchalik plebeylardan ham qo‘shilgan. Senat 300 kishidan iborat bo‘lgan. Senatorlar ro‘yxati har besh yilda yangilab turilgan, ammo yangisi eskisidan ko‘p ham farq qilmagan. Shunday qilib, senatorlik lavozimi bir umrga qolgan. Senatorlar oltin uzuk taqish, qizil etik va keng qizil hoshiyali to‘n (togo) kiyish kabi faxriy huquqlarga ega bo‘lganlar.

Senat majlisi konsul tomonidan chaqirilgan va uning raisligida o‘tgan. Senatda ovoz berish o‘z nomlarini ko‘rsatish yoki ikki tomonga ajralish yo‘li bilan o‘tkazilgan. Senat rasman qonun chiqaruvchi tashkilot hisoblanmasa ham, amalda uning qarorlari (Styfnus consulta) qonun kuchiga ega bo‘lgan va magistrklar tomonidan so‘zsiz bajarilgan.

Xalq majlislarining qarorlari esa Senatda tasdiqlanishi lozim bo‘lgan. Bu jarayon “otalar tomonidan ma‘qullanish” (auctoritus partum) deb atalgan. Senat magistraturani nazorat qilgan, konsul bo‘lmagan paytlarda yangi konsul saylangunicha senatorlardan besh kunlik muddatga konsul tayinlangan va har besh kunda o‘zgartirib turilgan. Senat davlatni idora qilish sohasida juda keng huquqlarga ega bo‘lgan. U davlatning daromad va buromad (kirim va chiqim) byudjetlarini tuzgan, davlat mulkini va

boshqa davlatlardan tortib olingan yerlarni idora qilgan, urush yoki qo'zg'olonlar vaqtida hokim (diktator)ni tayinlanish ham senatning vazifasiga kirgan. Urush e'lon qilish ham, sulh tuzish ham senat ixtiyorida bo'lgan. Urush vaqtida qurolli kuchlarni har tomonlama ta'minlash ham, ulardan qaysi jabhada foydalanish ham, asirlarni almashtirish, qutqarish va boshqa shu singari masalalarning barchasini senat hal qilgan. Senat diniy ishlar va xorijiy davlatlar bilan munosabatlarga doir ishlarni ham u o'z qo'lida tutgan.

2. Magistratura. Rimda saylov yo'li bilan tayinlanadigan amaldorlar magistrlar deb yuritilgan. Odatda bir yilga saylangan amaldorlar xalq majlisi oldida javobgar bo'lganlar. Masalalar xalq majlisi a'zolari bilan bamaslahat hal qilingan, ammo ular har qanday masalalarni ham ko'pchilik ovoz bilan hal qilaverganlar. Lekin, shu bilan birga, har bir magistrat o'z hamkasbining ishiga aralashishi, hatto uning hukmini bekor qilishi, o'zgartirishi ham mumkin bo'lgan.

Rim magistrlarining huquqlari ikki xil bo'lgan: ulardan birinchi turkumi imperium deb atalsa, ikkinchisi Potestas deyilgan. Imperium doirasiga kiruvchi muxtor huquqlar quyidagilardan iborat bo'lgan:

1) qo'shnlarga oliy qo'mondonlik qilish va ularni tashkil etish; zobitlarni tayinlanish; raqib bilan sulh tuzish;

2) Senat va xalq majlisini chaqirish hamda ularga raislik qilish;

3) harbiy va fuqarolik yurisdiksiyasiga ega bo'lish, ya'ni sudlov ishlarini olib borish;

4) farmonlar chiqarish va ularning ijrosini nazorat qilish;

Potestas – kichikroq hokimiyat bo'lib, buyruqlar chiqarish va jarimalar solish bilan shug'ullanishdan iborat bo'lgan. Imperium – faqat oliy mansabli amaldorlar, ya'ni oliy hokim, konsullar va pretorlarga, Potestas esa qolgan barcha magistrarga mansub bo'lgan. Shunga muvofiq, magistrlar cum imperio (imperiya) va sine imperio (imperiya) deb yuritilganlar. Rim amaldorlarining muxtor huquqlari turlicha bo'lgan. Ular orasida: konsullar alohida mavqega ega bo'lganlar, shuning uchun ham ba'zi romanistlar ularni podsholarga tenglashtirganlar. Masalan, oliy harbiy hokimiyat, moliyaviy hokimiyat, sud hokimiyati. urushlarda qo'lga kiritilgan o'ljalarni taqsimlash va boshqalar konsulning vazifalariga kirgan. Ammo shunday keng huquqlarga ega bo'lishiga qaramay, konsulning harakatini cheklovchi omillar ham bo'lgan. Chunonchi:

1) uning magistratlik muddati faqat bir yil bo'lgan;

2) u boshqalar bilan bamaslahat ish yuritishi lozim bo'lgan, zero boshqa magistratlar uning buyrug'ini o'zgartirishlari va hatto bekor qilishlari ham mumkin bo'lgan;

3) shahar hududi doirasida qo'llaniladigan konsul farmonlari yuzasidan xalq majlisiga shikoyat qilish mumkin bo'lgan;

4) Senat urush vaqtida ham konsulni nazorat qilgan, mablag'lar sarfini tekshirib turish uchun guaeator (kvestor) deb yuritilgan maxsus odamni yuborgan.

Konsullardan tashqari, plebeylar (ya'ni xalq) tribunallari ham mavjud bo'lgan. 494 yildan boshlab plebeylar o'z oralaridan ma'lum bir amaldorni saylash huquqiga ega bo'lganlar. Plebey tribunallari (minbarlari, notiqdori) deb atalgan ushbu amaldorlar magistratlarning manfaatiga zid bo'lgan har qanday farmon va buyruqlarga aralashishlari mumkin bo'lgan. Ularning shaxsi muqaddas va daxlsiz hisoblangan, tribun hayotiga qasd qilganlar o'lim jazosiga hukm etilganlar. Ular alohida consilia plebis tributa deb atalgan plebeylar majlisida 2 kishidan iborat qilib saylanganlar va senati, hatto konsullarning harbiy faoliyatini nazorat qiluvchilarga aylanganlar. Keyinchalik ularning soni besh, hatto o'n kishiga yetkazilgan.

3. Diktatorlar (hukmdorlar) amalining qachon paydo bo'lgani noma'lum. Podshohlik davrida ham hukmdorlar mavjud bo'lgan va ular magister populi deb atalganlar. Respublika davrida bunday hukmdorlar favqulodda holatlarda, xususan, ichki qo'zg'olonlar yoki katta urushlar paytida tayinlanganlar va ularga favqulodda huquqlar berilgan.

Konsuldan tortib magistratlarga – barcha diktatorga bo'ysungan. Diktator olti oy muddatga tayinlangan. Diktator zimmasiga yuklatilgan vazifasini ado etib bo'lgach yoki undan oldin ham vazifasidan ozod etilgan. 216 yildan so'ng bu amal umuman qo'llanilmagan.

4. Senzor. 444 yilda senzor (muxtasi) amali joriy etiladi. Uning vazifasi nazoratchilik bo'lib, u davlat mulkini boshqargan, soliq solish, bosib olingan yerlarni nazorat qilish, davlat imoratlarini barpo etish, boshqarish ishlari bilan shug'ullangan. U senatorlikka tavsiya etilgan kishilarning axloqi va mulkiy holatlarini yaxshi bilgan.

5. Edillar – bozor-o'char ishlari, Rimni non bilan ta'minlash, shahar tozaligi masalalari bilan shug'ullanganlar.

Xalq majlislari – respublika davrida uch xildagi xalq majlislari amal qilgan. Ular comitia curiator, comitia conturiata, comitia tributa deb atalgan.

1. Kuriat xalq majlislari – urug'chilik davrlaridan qolgan qabilalararo yig'ilishlar bo'lib, ularda plebeylardan tashqari, faqat Rim fu-

qarolari qatnashganlar. Milodiy III asrga kelib ularning ta'sir kuchi kamaya borgan. Ular rasman magistrnlarni turli lavozimlarga tayinlangan, farzandlikka olish, vorislik masalalari, xususan, vasiyatnomalar tuzish bilan ham shug'ullanganlar. Rimda bu dastlabki davlat organlari bo'lib, keyinchalik demokratlashtirish tomonga o'zgargan.

2. *Senturat majlislari* – Rim xalqining hammasi qatnashadigan juda muhim majlis bo'lgan. Ovoz berish senturiyalarda o'tkazilgan. 193 ta senturiya mavjud bo'lib, ularning har biri alohida ovozga ega bo'lgan. Ularga magistratlar (konsullar, pretor)larni saylash, o'lim jazosidan afv so'raganlar arizasini ko'rish kabi vazifalar yuklatilgan.

3. *Trib* yoki hududiy okrug majlislariga patritsiylar ham plebeylar ham, qatnashganlar. Ularning qarorlari "populyussitlar" deb atalgan. Majlisga faqat plebeylar yig'ilgan bo'lsa, uning qarori "plebessit" deyilgan. Plebessit barcha fuqarolar uchun birdek kuchga ega qonun hisoblangan.

3-§. Rim huquqining tarixiy davrlarga bo'linishi

O'zining ming yildan ortiq tarixi davrida Rim huquqi zamon o'zgarishlariga va hodisalariga qarab turli o'zgarishlarga uchrashi tabiiy bir hol edi. Bu esa Rim huquqi tarixini davrlarga bo'lib o'rganishini taqozo etadi. Zero bunday usul har bir davrning o'ziga xos tomonlarini ajratib, har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Hozirgi zamon romanistika ilmi Rim huquqi tarixini besh davrga bo'ladi. Bular:

- 1) qadimiy (arxaik) davr – mil. av. 753–367-yillar;
- 2) klassik davrdan oldingi davr – mil. av. 367–17-yildan;
- 3) klassik davr – mil. av. 17 yildan milodiy 235-yilgacha;
- 4) klassik davrdan keyingi davr – milodiy IV–V asrlar;
- 5) Yustinian davri – 527–565-yillar.

1. *Qadimgi davr*. Rim huquqi tarixining bu davri mil. av. 753 yildan, ya'ni Rim shahriga asos solinishidan boshlangan. Bu davrda shahar pretorligi tashkil topgan. Albatta, jamiyat hayotini huquqiy tartibga solish an'analari rimliklarda Apenin yarim orolini italiyaliklar (Kelt qabilalari) egallab, o'zlashtirishlaridan ancha ilgari boshlangan. Ammo ko'rsatilgan davriy chegarada jamiyatda moddiy dunyoga qiziqish kuchaygan, tashqi dunyoni mustaqil o'zlashtirayotgan shaxs, ya'ni qabila, urug'dan tashqarida yashovchi inson ham tan olina boshlangan.

Rimdagi qadimiy jamoachilik an'analari kishi o'zini oilaning bir bo'lagi deb tasavvur qilgan davr xususiyatlarini aks ettirgan. Oilaning yashash joyi ham (ajdodlar qabri bilan birga) muqaddas hisoblangan. Undan tashqaridagi dunyo begona hisoblangan. Ijtimoiy munosabatlar ham mana shu aqidaga asoslangan. Narsalar almashish ham iqtisodiy xususiyatga ega bo'lmay, faqat aloqa vositasi bo'lgan.

Bunday aloqalar begona oilalarni yaqinlashtirgan, dushmanlarni do'stlashtirgan. Boshqalar bilan do'stlashgan odam o'zini ham shaxs sifatida tan ola boshlagan. Bunday do'stlik sadoqat (fidis) (afsun-jodu) va diniy vosita (qasam, fol ochish, totemlar almashtirish va h. k.)lar bilan mustahkamlangan. So'ngroq shular asosida turli marosimlar paydo bo'lgan. Ularning bajarilishini alohida koinlar (ruhoniylar) nazorat qilib turganlar. Rimliklar o'z huquqiy rivojlanish tarixining ilk davridanoq alohida sud hukmronligi (iurisditio) ga ega bo'lganlar.

Romuldan boshlab barcha keyingi podsholar shunday hukmronlik huquqiga ega bo'lganlar. Xususiy nizolar va bahslarni podshoning o'zi tekshirgan, muhokama qilib, hukm chiqargan. qonun chiqarish huquqi ham podshoga tegishli bo'lgan. Ijtimoiy munosabatlar haqida u bir yechimga kelib, uni kuriyalar bo'yicha xalq majlisiga kiritgan. Deyarli barcha hollarda majlis ularni hech qanday o'zgarishsiz qabul qilgan, ya'ni tasdiqlangan.

Mil. av. 509-yilda podsholarning quvilishi bilan sud hokimiyati va qonun chiqarish faoliyati ikki oliy magistrat, ya'ni konsullar va senat zimmasiga tushgan. Ular zodagonlar kengashi hisoblangan.

Respublikaning tashkil topishi xalq mustaqilligining g'alabasi (populus, va shundan "Publikus") va Rimning fuqarolar jamiyati (civitas)ga aylanishini bildirgan.

Bu jarayonni mil. av. VI asrda hukmronlik qilgan Etruss sulolasining podsholari boshlab berganlar (Podsho Serviy Tuliylar islohotlari). V asrga kelib Rimda ikki tabaqa – patritsiylar va plebeylar mavjud bo'lgan. Plebeylar o'z magistratlariga ega bo'lish huquqini qo'lga kiritganlar. 367-yilga kelib esa konsullarning bittasi albatta plebeylardan saylanishini belgilab bergan qaror chiqqan. Patritsiylar shaharni idora qilish uchun oliy hokim – "shahar pretori" (pretor urbanus) mansabini joriy etganlar. Bu esa sud hokimiyatining alohida institut sifatida ajralib chiqishini bildiradi. qadimiy davr shular bilan ifodalaniadi.

2. *Klassik davrdan oldingi davr*. Millodan avvalgi 367–17-yillarni o'z ichiga olgan bu davrda Rim davlati asosi o'z taraqqiyotining eng yuksak cho'qqisiga yetgan va inqilobga duch kelgan. Bu davr oxirida, ya'ni



mil.av. 27-yildan boshlab Avgust hukmronligi o'rnatilgan. Plebey tribunlari, konservator senatchilar partiyasi, harbiylar orasidagi kurashlar qizg'in tus olgan.

Rimda uzoq vaqt davom etgan fuqarolar urushi faqat Oktavian Avgustning yangi – prinsipat tuzumi o'rnatilishi bilangina barham topgan.

Rim hukmronligi Yevropa, Osiyo va Afrikadagi katta hududlarga tarqalgan. U Italiyani to'liq egallab, O'rta dengizga chiqqan va Karfagen bilan urushga kirishgan (264-yildan).

Bu urushdagi g'alabalar Rimning dengiz orti davlatlari ustidan ham hukmronlik qilishiga olib kelgan. U yerlarda ham konsullar va pretorlar vazifasini bajaruvchilar paydo bo'lgan.

Shunday qilib, klassik davrdan oldingi davrni yangi munosabatlar, yangi huquqiy normalarning qaror topishi davri deyish mumkin.

Rasmiy (ratkul) shaklga rioya qilinsa ham, har ikki tarafning roziligi bilan tuzilgan kontraktlar endilikda pretorlar tomonidan himoyaga olinadi. Ammo pretor XII jadval qonunlariga rioya qilishi shart bo'lgan.

Mil. av. II asrning ikkinchi yarmida Ebutsiy qonuni bilan (lex Aebutia) yangicha sudlov tartibi joriy etilgan. Keyingi yuz yillikda Rim huquqiy tizimi ancha murakkablashib, fuqarolik da'volari qatoriga pretor da'volari qo'shilgan. Bu bilan fuqarolik huquqiy normalariga to'g'ri kelmagan va hatto zid bo'lgan da'volarni ham himoya qilish mumkin bo'lgan. Bu esa ishning hal etilishini cho'zib, chalkashtirib yuborgan. Ushbu norma mil.av. 17 yilda odil sudlovni yuritish to'g'risidagi podsho Avgust qonunining qabul qilinishi bilan bekor qilingan.

Bu davr huquqshunosligi sohasida amalga oshirilgan katta ishlardan biri huquqshunoslikka oid hujjatlarning dialektik metod asosida tartibga solinishi bo'lgan. Buning natijasida huquqshunoslik tartibga keltirilgan fan (ars) xususiyatiga ega bo'lgan. Bu sohada paydo bo'ldi. Masalan, Sitseron, Serviy Ruf, Aralan Var, Epitoma Pavel kabi ko'plab huquqshunos olimlar yetishib chiqqan.

Yuridik qonunlarni tartibga solish haqida Sitseron o'zining "Notiq haqida" asarida shunday yozdi: "Avvaliga butun fuqarolik huquqini turlarga bo'lib chiqish lozim, keyin bu turga kirganlarni yana xillarga taqsimlash, keyin har birini ta'riflash orqali ahamiyatini bayon qilib, fuqarolik huquqi haqida mukammal fanga ega bo'lasiz". Bu davrda Rim bosib olgan hududlarni idora qilish uchun munitsipal qonunlar ham ishlab chiqilgan. Klassik davrdan oldingi davr qisqacha shular bilan ta'riflanadi.

3. Klassik davr. Rim huquqining bu bosqichi yangi siyosiy tartib o'rnatilgan prinsipat tuzumi davriga to'g'ri keladi. Fuqarolar urushida

g'olib chiqqan Oktavian Avgust mil. av. 17 yilda asos solgan bu tuzum milodning 235 yilida Aleksandr Sever o'limi bilan inqirozga yuz tutgan.

Avgust tuzgan maslahat kengashi (konsilium) ko'p masalalarda Senat o'rniga o'tgan. Avgust plebeylar tribuni vazifasini o'zidan soqit qilgan, ammo u xohlagan magistratining qaroriga veto qo'yish huquqiga ega bo'lgan. Shu davrdan boshlab yangi siyosiy tuzum batamom shakllanib bo'lgan. Davlatni idora qilishning bunday usuli senat bilan siyosiy hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yish va imperiyani samarali boshqarish imkonini bergan.

Imperator Avgust davrida maxsus devonlar (idoralar), masalan, Sezar yozishmalari, shaxsiy kishilar iltimoslariga javoblar tayyorlash idorasi, imperator nomiga kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish idorasi va boshqalar paydo bo'lgan.

Keyinchalik bu byurokratik tuzilmalar kuchaya borgan. Unda imperator amaldorlari muhim mavqeni egallaganlar. Bu davrda Rim imperiyasi Yevropada o'z chegaralarini Shotlandiyagacha kengaytiradi, janubda Misrni qo'shib oladi, markaz va chet o'lkalar bilan munosabatlar tartibga solinadi. Bu esa Rim xususiy huquqining takomillashuviga, fuqarolik huquqi normalarining rivojlanishiga olib keladi.

Bu davrda ko'proq konservativ dunyoqarashga ega bo'lgan Amey Kapitan va ijodiy yondashish tarafdori Labson kabi qonunshunoslar faoliyat ko'rsatdilar. Ulardan qolgan bir qator (30 gacha) asarlar klassik davr qonunshunosligini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi.

Klassik davrda ham ko'plab mashhur huquqshunoslar faoliyat ko'rsatganlar. Ular o'z maktablarini yaratib, "qilni qirq yorib" yozgan asarlarida Rim huquqi va, umuman, huquqshunoslik fani haqida insoniyatga juda qimmatli fikrlar yozib qoldirganlar. Bular orasida Gay, Yulian, Piy, Kassiy, Sobin, Prokul, Lobeon va boshqalar bo'lgan. Ularning asarlari hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotmagan.

XIX asr olimlari A. Rudolf va O. Lenel shunday boy manbalardan foydalanib, mil. av. I asrda vujudga kelgan Pretorlar ediktining barcha bo'limlarini tiklab chiqqanlar. Bu edikt asosan to'rt qismidan iborat bo'lgan: 1-bo'lim – sud muhokamasigacha bo'lgan taraflar huquqi haqida; 2-bo'lim – alohida da'volar va ularning shakllari haqida; 3-bo'lim – sud qarorining bajarilishi haqida va 4-bo'lim – pretorlarning alohida himoya vositalari haqida bo'lgan. Munitsipal qonunlarning turli variantlari va, umuman, bu davrdan qolgan hujjatlar qonunshunoslik tarixini o'rganishda juda muhim o'rin tutadi.

4. Klassik zamondan keyingi davr (IV–V asrlar). Bu davrga chuqur siyosiy (dominatning shakllanishi), madaniy (xristianlikning qaror topishi) va Yevropaning qiyofasini ko'p asrlarga belgilab bergan ilk o'zgarishlar xos. Bu davrda respublikani idora qilishda ham yaxlitlik bo'lmagan, har bir podsho o'zicha yo'l tutishga harakat qilgan.

Davrning huquqiy taraqqiyotiga kelsak, u ham byurokratik (rasmiyatchilik, to'rachilik), davlatni feodallashtirish va shaxs erkinining tushkunligiga moslashgan holda inqirozga uchray borgan. Konstantin zamonida tajribaga suyangan ijobiy huquq edikt shaklidagi imperator konstitutsiyasi edi. Bu davrda idora ishlarining sifati keskin pasayadi. Yuridik qonunlarning tili va ifoda yo'sini klassik davrga aslo tenglasha olmaydi. Bu davr yuristlari ijodiy yondashuvdan foydalanmaganlar, chunki ularga qolgan huquqiy meros ulug' va qudratli, uning obro'ui juda baland bo'lgan.

Klassiklarning bu asarlari darslik vazifasini o'tgan, ularga arzimas qisqartish va o'zgartishlar kiritilgan, xolos. Bu yo'sin davr odati bo'lib qolgan. Masalan, IV asr boshida Ulpianning "Redulae" kitobi asosida undan qisqaroq darslik tuzilgan. Shunday qo'llanmalar boshqa kitoblar asosida ham tuzilgan yoki ularning mazmuni imperatorlar chiqargan farmon-qonunlarni izohlashdan iborat bo'lgan.

IV asr oxirlaridan boshlab qonunshunoslik maktablarida huquqqa nisbatan klassik davrdagiday munosabat rivojlana boshlagan: qiroatxonlik, quruq yodlash kuchaygan. Klassik davrdagi obro'li olimlardan uzundan uzoq iqtiboslar (sitatalar) olish odatga aylangan. Ushbu olimlarning ishlariga tarixiy yondashuv o'rnini ularning fikr-mulohazalarini o'zgarmas aqida sifatida qabul qilish avj olgan.

Universitetlarda yuristlarni tayyorlash Gayning eng oddiy asarlari bilan tanishtirishdan boshlangan. So'ngra ediktlar (u ham Ulpian talqinida) undan keyin Papinian asarlari o'qitilgan. Shundan keyingina amaliy ishga va Pavel asarlarini mustaqil o'rganishga o'tilgan. Faqat 5-yiliga kelib xususiy professorlar rahbarligida konstitutsiyani o'rganishga kirishilgan. Klassik davr mualliflarining ko'pgina asarlari yoki ulardan yig'ilgan parchalar turli xrestomatiyalar ko'rinishida yoxud boshqa shakllarda bizgacha yetib kelgan.

5. Yustinian davri. Yustinian davrida huquqshunoslik va huquqiy ilmga bo'lgan talab va qiziqish davlat darajasiga ko'tarilgan.

Imperator Yustinian klassik davr huquq fanining qo'lga kiritgan yutuqlariga suyanib, huquqshunoslikda ma'lum barqarorlikka erishishga

harakat qilgan va bunga muvaffaq ham bo‘lgan. U yuridik ilmning qayta uyg‘onishiga erishdi va bu “Yustinian klassitsizmi” deb ataldi.

Normativ barqarorlikka erishishga harakat qilgan imperator va uning idoralari klassik merosga tayangan va qonunlarni kodifikatsiya qilgan. Bu esa juda ko‘p edikt to‘plamlari, imperatorlar farmonlari va, umuman, yuridik fikr shoh asarlarining saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan. Bu asarlar butun Yevropa uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Yustinian kodeksi imperator Adriandan to‘ Yustiniangacha (534 yilgacha) bo‘lgan imperatorlarning konstitutsiyalarini o‘z ichiga oladi. Ular ko‘pincha qisqartirilgan holda berilgan va eskirib qolgan atamalardan tozalanib, tahrir qilib chiqilgan. Ulardan keyin Yustinian e‘lon qilgan yangi farmonlar keltirilgan.

Yustinian kodifikatsiyasida eng muhim o‘rinni “Digestlar” egallagan. Bu nashr klassik yuridik matnlarning eng muhimlarining bizgacha yetib kelishiga sabab bo‘lgan.

XI asrda italiyaliklarning o‘zlari ham shu kitob orqali qadimgi klassik davr Rim huquqini qayta kashf qilganlar va butun Yevropa mamlakatlarida uni qayta-qayta nashr qilib o‘rganganlar.

Digestlar kitobi 38 huquqshunosning 275 kitobidan olingan asarlardan tashkil topgan bo‘lib, tuzuvchilar faqat birinchi manbalardan foydalanganlar va ularni aniq ko‘rsatib o‘tganlar.

Nazorat uchun savollar

1. Rim xususiy huquqi nima?
2. Rim xususiy huquqining predmeti nimadan iborat?
3. Rim xususiy huquqining dastlabki shakllari qanday bo‘lgan?
4. Senzorlarning vazifalari nimalardan iborat bo‘lgan?
5. Diktatorlar va edillar kimlar?
6. Senat haqida nima bilasiz?
7. Xalq majlislari necha xil bo‘lgan?
8. Qadimgi davrga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
9. Ilk klassik davrining asosiy belgilari nimalarda ko‘rinadi?
10. Klassik davr nima uchun “klassik” deyiladi?
11. Yustinian davridagi asosiy o‘zgarishlar nimalardan iborat?

II BOB. RIM XUSUSIY HUQUQINING MANBALARI VA SUB'YEKTLARI

1-§. Rim huquqi manbalari

Rim huquqi manbalarining muhim tomonlarini teranroq tushunmoq uchun avval ularning aniq tasnifi bilan mufassal tanishib chiqish lozim bo'ladi. Shu bois endi turli tabaqa huquqlarining ta'rifiga o'tamiz. Avvalo shuni qayd etish lozimki, huquqning mazmuni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni bilan bog'liq degan gapda ham jon bor, ammo, shu bilan birga, jamiyatning ma'naviy holati ham bunda katta ahamiyatga ega.

Rim huquqi bilan shug'ullangan olimlarning ko'pchiligi hokimiyat tepasida turgan sinf vakillari o'z xohish-irodalarini, inon-ixtiyorlarini huquq yo'li bilan o'tkazishga intilganliklarini va bunga erishganliklarini ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham ular hukmron sinfning iroda-ixtiyorini Rim huquqining asosiy manbai deb hisoblaydilar. Ammo bu irodaning shakllanishida asosiy o'rinni egallagan manbalar ham mavjud va ular odat, qonunchilik, magistrlar ediktleri, huquq fanlaridan iborat. Quyida ularga alohida to'xtalamiz.

1. Odat – insonlar hayotida, ajdodlar turmushida yuzaga kelib avloddan avlodga o'tib rivojlanib keladigan odob-axloq normalari.

Odat rasmiy hujjatda yozilib mustahkamlanmasa ham xalq ongida saqlanib keladi hamda ko'p marta takrorlanishi natijasida normativ kuchga ega bo'lib ketadi va hayot muammolarini tartibga solishga xizmat qiladi.

Rim huquqshunosi **Pomponiy**: "Davlatchiligimizning boshlang'ich davrlarida xalq aniq yozilgan qonunlarsiz, aniq qayd etilgan huquqiy qoidalarsiz yashagan va hamma narsa rekklar hukmi bilan boshqarilgan", – deb yozgan edi.

Keyinchalik qonunlar qabul qilina boshlagan, qoidalar o'rnatilgan. Ammo shu bilan qadimiy odatlar birdan unutilgan emas. Ularning Rim huquqiga ta'siri va hatto huquqiy kuchi uzoq vaqtgacha saqlangan.

II asrdayoq, huquqshunos **Yustinian** odatlarning Rim huquqi manbalaridan biri ekanligini quyidagicha ta'riflangan: "Qadimiy ildiz otgan odat qaror topgan huquqiy qoida sifatida qabul qilinadi va bu huquq xalq tabiatiga mos huquq darajasini oladi. Modomiki, agar qoidalar xalq tomonidan qabul etilishi lozim bo'lsa, xalqqa ma'qul kelgan (ammo hali rasmiy hujjatga tushmagan) odatlar ham qonun o'rniga o'ta oladi. Chunki xalq o'z xohishini ovoz berish yo'li bilan c'lon qildimi yoki kundalik ishi bilanmi, buning farqi yo'q".

2. **Qonunchilik va qonunlar.** Yozilmagan huquq hisoblanmish odatlardan farqli ravishda davlat idoralari tomonidan chiqarilgan qonun va farmonlar yozma huquq normalaridan iborat bo'ladi. Ular davlat tashkilotlarining maxsus faoliyati natijasida yuzaga keladi.

Qonun davlat oliy idoralari faoliyatining natijasidir.

Rimda qattiq siyosiy kurashlar natijasida yuzaga kelgan siyosiy o'zgarishlar, davlat to'ntarishlari tabiiy ravishda qonun chiqaruvchi idoralarning ham o'zgarishiga olib kelgan.

Ilk davrlarda xalq majlislari shunday idora bo'lgan, so'ng prinsipat davrida – senat va, nihoyat, monarxiya davrida imperator qonun chiqarish funksiyasini bajargan. Demak, qonunlar manbaini ham xalq majlisining yoki senatning qarori yoxud imperatorning konstitutsiyasi tashkil etgan.

Rim davlatining kengayishi, uning rivojlana va mustahkamlana borishi bilan yozma huquq qoidalarining yetishmasligi, ulardagi noaniqliklar, ularining eskirib qolganligi va, umuman, xalqning ko'pchiligini tashkil qiluvchi **plebeylarga** yetib bormasligi yaqqol sezila boshlagan. Chunki qonunlar asosan patritsiylar qo'lida bo'lib, ular chidab bo'lmas o'zboshimchalikka yo'l qo'yganlar, qonunlarni buzib talqin etganlar. Ular o'zlari uchun imtiyozlar yaratib, plebeylar uchun esa siyosiy va iqtisodiy zulmni avj oldirganlar.

Plebeylarning qattiq talablari natijasida mil. av. 462 yilda **“Detsemvirlar”** komissiyasi tuzilgan. Bu komissiya qonunlarni qarab chiqib qog'ozga, tushuruvchi o'n kishidan iborat bo'lgan. Ana shu komissiyaning faoliyati natijasida XII jadval qonunlari jamlangan va nashr etilgan. Bular Rim fuqarolik huquqining eng avvalgi majmuasi hisoblanadi. XII jadval qonunlari – Rim milliy odatlari haqidagi yozuvlar bo'lib, unda asosan kishilarning mulkiy munosabatlari ifoda etilgan, shuning uchun ham chiqarilgan bu qonun fuqaroviy (sivil) huquq asoslari manbai bo'lgan, deyish uchun to'la asos bor. U huquqshunoslik tarixida juda muhim o'rin tutadi. Bu qonunlar qabul qilinganidan keyin 500 yil o'tganidan so'ng ham ular maktablarda o'rganilgan va yod olingan.

XII jadval qonunlaridan boshqa qonunlar majmualari haqida tarixiy ma'lumotlar kam. Masalan, mil. av. IV asrda qabul qilingan qarzini to'lolmagan kishini qul qilish yoki o'ldirish haqidagi qonunni bekor qilgan **Peteliyev qonuni** (Lex Postelua), III asrda qabul qilingan o'ziga tegishli ashyoni shikastlantirgani uchun javobgarlik belgilagan **Akviliy qonuni** (Lex Aquilia) va boshqalar.

3. **Senat qarorlari** (Senatus consultum). Mil. av. 27 yilda respublika tuzumi ag'darilib, prinsipat joriy etilishi bilan xalq majlislarining qonun

chiqarish faoliyatiga ham barham berilgan. Bu vazifa senat vakolatiga kiritilgan va senat chiqargan qarorlariga xalq qonunlari kuchi berila boshlagan. Haqiqatda esa senat prinsipat siyosatini o'tkazuvchi tashkilot bo'lgan. Qonun kuchidagi qarorlar chiqarishni ham tez orada prinsipat o'z tasarrufiga olgan. Uning takliflari (orationes) senatga kiritilgan va senat ularni hamma vaqt e'tirozsiz tasdiqlagan. Bunday takliflarning senat tomonidan rad etilishi Rim tarixida biron marotaba ham uchramaganligi diqqatni o'ziga tortadi.

4. Imperator konstitutsiyalari (Ueges). **Prinsipat** davrida imperatorning shaxsiy ko'rsatmalari (constitutiones) katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda **"Imperatorning xohishi – qonundir"** degan qoida amalga kiritilgan. Bunday farmonlarining to'rt xili qo'llanilgan: 1) ediktlar, ya'ni umumiy ko'rsatmalar; 2) dekretlar, ya'ni sud nizolari bo'yicha imperator qarori; 3) raskriptlar, ya'ni normalarni qo'llash yoki sharhlashda ikkilanish yuz bergan taqdirda imperatorning javoblari; 4) mandatlar, ya'ni sud ishlari va idora qilish ishlariga doir imperatorning amaldorlariga bergan qo'llanmalari, yo'l-yo'riqlari.

Mutlaq monarxiya davrida imperator konstitutsiyalari "Ueges" degan umumiy nom bilan birdan-bir qonun chiqarish huquqiga ega bo'lib qoldilar.

5. Magistratlar ediktleri. Mil. av. V asrdan podsholar quvib yuborilganidan so'ng Rim har yili xalq majlislarida saylangan amaldorlar tomonidan idora etiladigan bo'ldi.

Magistratlarning, ayniqsa, yuqori lavozimlardagi konsullar, pretorlar, ediktlarning vazifasi davlat ichida tinchlik, tartib-intizomni joriy qilish va saqlab turishdan iborat bo'lgan. Bu vazifaning ko'p asrlar davomida bajarilishi alohida huquqiy manba (jus nonorarium)ning paydo bo'lishiga olib keldi.

Masalan, ikki kishi orasida nizo chiqsa-yu, uni hal etish uchun XII jadval va boshqa qadimiy qonunlarda tegishli ko'rsatmalar topilmasa yoki ular yetarli bo'lmasa, da'vogar pretorga murojaat etgan, u esa tekshirib, bir xulosaga kelgan va uning qarori qonun kuchiga ega bo'lgan.

Bora-bora bir xil da'vo munosabatlariga nisbatan bir xil yechimli qarorlar to'plana borgan va ular ediktlarga aylangan. Ediktlar pretorlar huquqiga taalluqli bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan pretorlar huquqi fuqarolar huquqi bilan to'qnashgan va Rim xususiy huquqida "qo'shaloqlik (juftlik)" paydo bo'lgan, ya'ni xususiy huquqning bir jabhasida ikki manbadan chiqqan ikki xil qonun-qoida qo'llanila boshlagan.

6. Pretorlar huquqi – respublikachilik davrining mahsulidir. U bilan bog'liq bo'lgan "qo'shaloqlik (juftlik)" esa rimliklarga qonunchilikda hayot talabini hisobga olish imkonini bergan. Pretorlar har bir aniq holatda sharoitga qarab qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Respublikaning ag'darilishi bilan pretorlar huquqi ham o'z kuchini yo'qota borgan. Natijada ediktlarni ham qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelgan. **Prinseps Adrianning** farmoni bilan 125-128 yillarida yurist **Salviy Yulian** ediktini qayta ishlab chiqqan. U tayyorlagan loyihani senat "doimiy edikt" sifatida qabul qilgan va u har qanday mansabdor har qachon, har yerda va o'zgarishsiz qo'llash kerak bo'lgan hujjatga aylangan. Pretorlar huquqini ma'lum bir tartibga keltirgan ushbu hujjat Rim huquqida XII jadvaldan so'ng turadigan ikkinchi muhim huquqiy manba bo'lgan.

7. Yurisprudensiya – huquq ilmi. Rim klassik huquqshunosligini yaratishda Rim huquqshunoslarining xizmatlari ham pretorlarnikidan kam bo'lmagan. XII jadval qonunlarning chiqarilishi ularni sharhlash masalasini keltirib chiqargan. Buning uchun esa fuqarolik huquqlari normalarini belgilash lozim bo'lgan.

III asrdan boshlab bu faoliyat borgan sari kengaya borgan. Bu sohada bilimdonlar, mutaxassislar paydo bo'lgan. Davlat ham xalq ichida huquqiy bilimni kengroq yoyish choralari ko'rgan, chunki rasmiy qonunda har bir fuqaroning magistrlikka yoki sudga saylanishi belgilangan.

Huquqshunoslar faoliyati uzoq vaqtgacha quyidagi uch yo'nalishda davom etgan:

- 1) shartnomalar tuzishda yordam berish;
- 2) da'vo va kelishuv masalalarida maslahatlar berish;
- 3) turli xil huquqiy masalalarda yuzaga kelgan fikrlar va tushunmovchiliklar borasida tushgan savollarga javob izlash.

Respublikachilikning oxirgi davrlarida yuristlar faoliyati ko'proq amaliy qiyofa kasb etgan va bu amaliyot haqida ancha-muncha kitoblar chaqirilgan. Bular orasida biz fuqarolik huquqidan qisqacha o'quv qo'llanmalari (institutsiyalar), izoh va sharhlar, turli savol-javoblar majmualari, risolalarni uchratishimiz mumkin.

Shunday qilib, butun bir fan – **huquqshunoslik** ilmi paydo bo'lgan. Uni o'qitish muassasalari ham yuzaga kelgan.

Imperiya vaqtida doimiy ravishda saboq beradigan huquqshunoslik o'quv yurtlari ochilgan. Bu sohada turli yo'nalishlar vujudga kelgan. Huquq fanlari Rimdagina emas, chekka o'lkalarda ham o'qitila boshlangan.

Berit, Iskandariya, Sezor shaharlaridagi maktablar ayniqsa katta obro' qozongan.

Huquqshunoslikning ijodiy tomonlarigina emas, balki yuristlarga ko'p masalalarda rasmiy qaror chiqarish huquqining berilishi bu sohaning obro'ini oshirib yuborgan. Bunday odat **Av gust** davrida joriy etilib, yuristlar fikrini imperator farmoni darajasigacha ko'tarib qo'ygan.

Yuristlarning bunday fikrlari yoki muayyan vaziyatda qo'llagan yechimlari boshqa shunga o'xshash vaziyatlarda ham qo'llanib (pretsedent), oxir-oqibatda qonun kuchiga ega bo'lib qolishlari ham kuzatilgan. Yuristlar esa qonun sharhchilardan qonun ijodkorlariga aylana borganlar. Shunday qilib, huquqshunoslik (yurisprudensiya) huquqni qo'llashdan uni ijod qilish darajasiga ko'targan.

III asrda oxirlariga kelib Rim davlatining siyosiy, iqtisodiy faolligi pasaygan. Yuridik adabiyot kam yozilgan, yuristlar ijodiy ish o'rniga qadimgi yuristlar ishlaridan saylanmalar tuzish bilan mashg'ul bo'lganlar. Buning natijasi o'laroq, 426 yilda iqtiboslar (sitatalar) haqidagi qonun yuzaga kelgan. Unga ko'ra, faqat besh yurist (**Gay, Papinian, Ulpian, Pavel va Modestin**)lardan olingan iqtiboslargina e'tiborga sazovor hisoblangan.

8. Yustinian qonunlari. VI asr boshlariga kelib Rim huquqi manbalari shu darajada xilma-xil bo'lib ketdiki, endilikda ularni tartibga keltirmasa bo'lmaydigan bir holat vujudga keldi. Bu muammo va uni hal qilish yo'llari haqida imperator Yustinian shunday fikr yuritadi: "Barcha ishlar orasida qonun hukmronligidan muhimroq hech narsani ko'rsatish mumkin bo'lmagan, chunki u ilohiy va insoniy ishlarning barchasini tartibga soladi, nohaqlikni oradan ko'taradi. Lekin shunga qaramay biz shunga amin bo'ldikki, Rimga asos solingan davrdan boshlab yaratilgan qonunlarning barcha sohalari shunday qorishib, chalkashib ketganki, ular cheksiz yo'nalishlarda ishlayveradi va ularni inson aqli qamrab ololmaydi".

"Bizning birinchi vazifamiz prinsepslarni boshlash, ular konstitutsiyalarni to'g'irlab, mazmunini ravshanlashtirish edi. Biz ularni bir kodeksga to'pladik, ortiqcha takrorlanishlar, nohaq ziddiyatlardan tozaladik. Ularning mazmunan yaxlitligi ortib, kishilarga tez yordam beradigan bo'lsin dedik" (Dao sustore 1).

Bu o'rinda gap Yustinian kodeksining birinchi tahriri ustida bormoqda. Ushbu hujjatni imperatorning maxsus farmoni bilan tashkil qilingan komissiya 529 yilda hozirlagan. Bu kodeks e'lon qilinganidan keyin komissiya yuristlardan qolgan huquqiy meros ustida ish boshlagan. Natijada

1533 yilda Digestlar (yoki Pandektlar) e'lon qilingan. Digestlar Yustinian qonunlarining eng e'tiborli qismini bo'lgan. Unda mashhur yuristlarning fuqarolik huquqi, pretorlar huquqi va huquqshunoslik faoliyatiga oid izohlar to'plangan.

Digestlarda jami 39 nafar Rim yuristining 2000 dan ortiq ilmiy ishlaridan namunaviy parchalar, fikrlar keltirilgan. Ular orasida Ssevol, Pavel, Modestin, Ulpian, Papiniandan to' Germogeniangacha bo'lgan mashhur huquqshunoslarning fikrlari mavjud.

Shunday qilib, digestlarni butun Rim klassik huquqshunosligining samarasi desa bo'ladi. Digestlar nashr qilinishi bilan Yustinian institutsiyalari ham ijod etildi. Bu eng oddiy o'quv qo'llanmasi bo'lgan, ammo uning ko'rsatmalari qonun kuchiga ega bo'lgan. Mana shu uch hujjat, ya'ni **Kodeks, Digestlar va Intitutsiyalardan** iborat bo'lgan uch hujjat Rim huquqi majmuasini tashkil etadi. Ammo, ular ustida ishlash davrida imperatorning yangi farmonlari ham e'lon qilingan. "Ellik qaror" deb atalgan ushbu farmonlarda Yustinian fuqaro huquqiga doir ba'zi munozarali masalalar hal qilingan. Bu farmonlar Yustinian qonunlarining 534 yilda chiqarilgan yangi nashriga kiritilgan. Rim fuqarolik huquqini tartibga solish shu bilan yakunlangan.

556 yilda imperator farmonlarining norasmiy majmuasi bosilib chiqqan (534, 556 yilgi nashrlar asosida). Bu to'plam "novellalar" (hikoyatlar) nomini olgan.

Kodeks, Digestlar, Institutsiya va Novellalar "Rim fuqarolik huquqlari majmuasi" (curpus jurus civilis) nomini olgan.

XII asr Yevropa uyg'onish davriga kelib Rim fuqarolik huquqi boshqa xalqlar orasida ham o'rganila boshlangan.

2-§. Rim huquqi subyektlari

1. Fuqarolar huquqi. Rim davlatchiligi mil. av. VI asr oxirlarida shakllangan. Mil. av. V asr boshlarida Serviy Tulliy islohotlaridan keyin shaxsning mavqei qadimgi Rim patritsiylarning oliy irq aslzodalar, oqsuyaklardan kelib chiqishi, nasl-nasabiga emas, balki mol-mulkiga qarab belgilana boshlagan. Bosib olingan yerlarni taqsimlashda ham shaxsning boyligi hisobga olina boshlagan. Bu esa plebeylarning patritsiylar ustidan siyosiy g'alabasi edi. Endi ular o'rtasida siyosiy va huquqiy tenglik o'rnatish uchun yo'l ochilgan edi. Bundan keyin Rim xalqini tashkil etuvchi Rimda yashagan kishilar (fuqarolar) uchun barchaga barobar qonunlar majmuasi ishlab chiqildi. Bu mashhur XII jadvaldan o'rin olgan

qonunlar bo'lib, ular mil. av. V asrda (451–450) xalq yig'inida qabul qilingan. Ulardan bizgacha yetib kelgan qismi tahlil qilinganida ham o'sha davrda ma'lum bo'lgan huquqlarning ko'p qismini o'z ichiga olganligi ma'lum bo'ladi (masalan, xususiy mulkchilik va mulkka egalik qilish huquqi, shartnomalar bo'yicha majburiyatlari, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar, jinoyat va jazo va boshqalar).

Bizning vazifamiz Rim klassik huquqini tahlil qilish bo'lgani bois XII jadval mazmuniga mufassal to'xtalmasak ham bo'ladi. Chunki bu jadval mil. av. II asrdayoq qo'llanilmay qo'ygan. Ammo Rim yuristlari va notiqdari (masalan, **Sitseron, Gay** va boshqalar) Rim davlatining gullab-yashnagan davrlarida ham XII jadval qonunlarini tegishli hollarda tilga olib turganlar. “Kim davlat ishlari bilan shug'ullansa, XII jadvalda davlat masalalari to'liq jamlanganligini ko'radi, – deydi xususan Sitseron, – chunki unda jamoa baxti, davlat idorasi uchun kerakli hamma narsa jamlangan”.

I asr Rim tarixchisi **Tit Liv** (17-yilda vafot etgan) fikricha, XII jadval qonunlari “ommaviy va xususiy huquqlar” manbai ekanligini hamma tan olgan. Garchi XII jadval qonunlari qo'llanishdan to'xtagan bo'lsa ham, Rimda yana ko'p yillar qonunshunoslar tayyorlashda o'rganish shart bo'lgan. XII jadval qonunlari sivil yoki fuqarolik huquqlari, kvirit huquqlari deb ham atalgan. “**Kvirit**” so'zi Romul podshoning (mil. av. VIII asr) ilohiylashtirilgan shaklidan olingan bo'lsa kerak. Shuning uchun “**Kvirit**” so'zini ishlatganlar eng qadimgi Rim huquqi demoqchi bo'ladilar. “**Sivil**” so'zi esa “shahar” so'zidan kelib chiqib, “shaharliklar” ma'nosini beradi, demak, fuqarolar ma'nosida ishlatiladi. XII jadval qonunlari ishlatilishdan to'xtagandan keyin ham xalq yig'inlarida qabul qilingan qonunlar sivil yoki fuqarolik huquqiga kiritilgan.

Mil. av. 207-yilgacha hamma qonunlar Serviy Tulliy islohoti natijasida yuzaga kelgan sentraturiat komitsialar tomonidan qabul qilingan. Undan keyin esa, **Gortenziya qonuniga** asosan plebeylar yig'ilishlarida qabul qilingan. Xalq majlisi joriy etgan va buyurgan har bir narsa qonun deb e'lon qilingan. qonunlar sirasiga, avvalo, davlat huquqi mazmuniga ega bo'lgan masalalar, ayniqsa, yerga egalik masalalari, Rim bosib olgan yerlarni taqsimlash, har bir kishi yerlarining eng ko'p hajmi, protsessual tartibni belgilash kabilar kirgan.

Xususiy huquq haqida, kam bo'lsa ham, juda muhim qonunlar bo'lgan. Masalan, Peteliy (mil. av. 326-y.) qonuni bo'yicha qarzini to'lolmagan qarzdorlarni qul qilish yoki ajnabiylarga sotish taqiqlangan, **Litsiniy – sekstiy** (mil. av. VI asr) qonuniga ko'ra yerga xususiy egalik

500 yuger (125 gektar) bilan cheklangan, unda bir xo'jalikka to'g'ri keladigan molning necha boshgacha bo'lishi mumkinligi ham belgilangan. Yana sudlov ishlarini yuritish va sud tizimlari haqida ham qonunlar bo'lgan.

Bizgacha yetib kelgan 800 qonun taqqoslab tekshirilganda, ulardan faqat 30 ga yaqinligina xususiy huquqqa aloqadorligi ma'lum bo'ldi. Rim yuristlari hech qanday qonun hayotda uchraydigan barcha voqealarni to'la qamray olmasligini yaxshi tushunganlar. Shuning uchun ular qonunlar turmushdagi asosiy voqealarning aksariyatini tartibga solish kuchiga ega bo'lishi, mayda-chuyda masalalarga o'ralashib qolmasligi kerak, deb hisoblaganlar. Bu jihatdan ular haq bo'lganlar.

Bu borada Rim qonunshunoslari va hukmdorlarining ko'plab so'zlarini keltirish mumkin. Masalan, Gayning yozishicha, "shunday voqealar uchrashi mumkinki, ularga atalgan yuridik yechimlar mavjud, ammo ularni qo'llash adolatsizlikka olib keladi va majbur qilish ham mumkin bo'lmagan hollar bo'ladi". Shu bois Rim qonunlarining yig'indisi bo'lmish digestlarda: "qonun yo yozma ko'rsatma beradi, yo man etadi, yo ruxsat beradi, yo jazolaydi", – deb yozilgan.

I asr oxirlari, ayniqsa, II asrdan boshlab imperatorlarning buyruq va farmonlari (reskriptlari) qonun maqomiga ega bo'la boshlagan. Bunday farmonlarni ishlab chiqishga mashhur qonunshunoslar jalb qilingan. Ular davlat idoralarida ham mas'ul vazifalarda xizmat qilganlar.

III asrgacha shunday davom etgan. So'ngra esa imperiyaning byurokratik apparati qonun chiqarish ishini ham, qonunlarni izohlash va talqin etish ishlarini ham batamom o'z qo'liga olgan.

2. Xalqlar huquqi. Rimda podsholar davrida kelib chiqishi noma'lum bo'lgan huquqsiz plebeylar bilan birga, har turli ajnabiylar ham yashaganlar. Ular asosan har xil hunar egalari bo'lib, kosibchilik, o'qituvchilik, savdo-sotiq, tabiblik, keyinroq esa bankirlik bilan shug'ullanganlar va "**peregrinlar**" deb atalgan. Peregrinlar Rimga Ulug' Gretsiya deb ataluvchi Italiya janubidan, Misr, Karfagen va yaqin Sharqning boshqa joylaridan kelganlar. Bu joylarda texnik va gumanitar madaniyat, jumladan, huquqiy madaniyat ancha ilgarilab ketgan.

Bu vaqtda har xil joylarda paydo bo'lgan huquqiy nizolar Rim aralashuvisiz o'sha joylarning milliy huquqlari asosida hal qilingan. Bunday tortishuvlarga nikoh va oila, vorislik va boshqa masalalar kirgan. Faqat peregrin va Rim fuqarosi oralarida nizo paydo bo'lgandagina unga fuqaroviy (sivil) pretor aralashgan.

Peregrinlar erkin kishilar bo'lib, tijorat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lganlar, ammo siyosiy huquqqa ega bo'lmaganlar. Faqat alohida xizmatlari uchungina ba'zilariga Rim fuqaroligi berilishi mumkin bo'lgan.

Rim magistratlari (boshliqlari), ayniqsa pretorlar, ular bilan birga butun jamiyat Rim iqtisodiy hayotiga peregrinlar bilan birga kirib kelayotgan yangiliklardan foydalanar edilar. Bu tajribalar (yangi bilimlar) Rim imperiyasi bosib olgan O'rta dengiz atrofidagi yerlarni idora qilishda juda qo'l kelgan. Endilikda pretorlarning ko'pchiligi mana shu yangi mintaqalarda yashay boshlaganlar. Bu yerlar prokonsullar, propretorlar, prokuratorlar boshliq Rim amaldorlari tomonidan boshqarilgan. Viloyatlar bilan iqtisodiy aloqalar borgan sayin yaqinlashib mustahkamlanib borgan. Bu ishda peregrinlar pretorlari fuqarolar pretorlari bilan birga ediktlar chiqarish huquqiga ega bo'lganligi katta ahamiyat kasb etgan.

Dastlabki davrlarda peregrinlar pretori faqat sudyalik, ya'ni hokimlik qilibgina qolmay, balki ko'proq o'rtada turuvchi, kelishtiruvchi shaxs sifatida ish olib borgan. U da'vogarlarning va javobgarlarning har ikkisini rozi qiladigan qaror qabul qilib, ularni kelishtirishga harakat qilgan. Chunki bu davrda so'z berish, qasam ichish kabi qoidalar eskirib, ularga hech kim ishonmay qo'yan.

Peregrinlar urf-odatlarida umuminsoniy qoidalar, binobarin, barcha xalqlarda bo'lgan huquqlar bo'lgan. Shu odatlar va ba'zi normativ qoidalar asosida mashhur **“yus gensium”**, ya'ni xalqlar huquqi yuzaga kelgan. Bu huquq, avvalo, rimliklar va ajnabiylar orasidagi nizolarni hal etishda ishlatilgan va Rim qonunlari tizimining bir qismiga aylanib qolgan.

Xalqlar huquqida, huquqqa baho berishda uning to'g'riligi o'lchovi **“insof”** va **“adolat”** ekanligiga katta ishonch bo'lgan. Ular zararli va kishilar manfaatiga to'g'ri kelmaydigan rasmiyatchilikka qarshi bo'lganlar, undan qochgan. Oddiy va arzon tushadigan sud da'volarga erkinlik bergan va tortishuvchilik prinsipiga asoslangan. Sud taraflar fikrlarining tagiga yetishi, ular manfaatlarini faqat hujjatlardangina emas, balki o'zlaridan surishtirib, shunga yarasha ish ko'rishi kerak bo'lgan **“Yus gensium”**da ko'rsatilishicha, peregrinlar huquqida asosan **quyidagilarga e'tibor berilishi kerak bo'lgan:**

1) faol hayotni bo'g'ib, uni kishanlab qo'yuvchi rasmiyatchilikdan ozod bo'lish;

2) har turli rasmiyatchilik va hujjatbozlikdan ko'ra taraflar istagini ko'proq hisobga olish;

3) shartnomaviy munosabatlarning yozma shaklda bo'lishi;

4) sivil protsessi vaqtidagi eskirib qolgan og‘ir rasmiyatchilik o‘rniga sudlov protsessini soddalashtirish;

5) tomonlarda bir-biriga nisbatan ishonch vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratish;

6) tomonlarning teng huquqliligi va ularning manfaatlariga bir xilda yondashish;

7) hakamlar sudi va boshqalar.

Peregrinlar huquqini Rim qonunshunoslari ularning tabiiyligi bilan izohlaganlar. Chunki avlod haqida g‘amxo‘rlik qilish, o‘zini, o‘z yerini himoya qilish huquqlari tabiiy bo‘lib, yer yuzidagi barcha xalqlarga xosdir.

Xalqlar huquqiga murojaat qilish qadimda o‘zgarmas hisoblangan qonunlarga, jumladan XII jadval qonunlariga hushyorroq qarashga o‘rgatgan, qog‘ozda yozilgan qoidalardan ko‘ra haqiqiy hayotning o‘zida yuz bergan voqealarni odamlar manfaatidan kelib chiqib, chuqurroq va adolatliroq tahlil qilishga chaqirgan. Endilikda kishilarning iqtisodiy, oilaviy va boshqa manfaatlarini ijtimoiy himoya qilishga e‘tibor qilina boshlagan. Shu sababli ham **“eksepto doli”** (“aldovga qarshilik”) qoidasi hukm sura boshlagan. Bu bilan sivil pretori, qonunan to‘g‘ri bo‘lsa ham, adolatga to‘g‘ri kelmaydigan da‘volarni rad etgan.

3. Pretorlar huquqi. Pretorlar huquqi (ius gonorarium) kundan kunga o‘sib borayotgan faol hayot jarayonidagi va qotib qolgan qadimiy huquqiy qonunlar, jumladan XII jadval qonunlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarning chuqurlashuvi natijasida yuzaga kelgan.

Mil. av. 367 yilda patritsiylar magistraturasida shahar pretori vazifasi ta‘sis etilgan va barcha sud ishlari uning ixtiyoriga berilgan.

Pretorning xalq majlisi (qurultoyi)ni chaqirish va qonunlar loyahasini taklif qilish, topshiriq asosida qurolli kuchlarga qo‘mondonlik qilish singari huquqlari bo‘lgan. Shuningdek, u oliy hukmdor sifatida bajarilishi barchaga majburiy edikt chiqarish va enderdikt farmonlarini e‘lon qilish huquqiga ham ega bo‘lgan. Ularning bajarilishi kuchli jazo sanksiyalari va boshqa choralar bilan ta‘minlangan.

Pretorlik muddati bir yil bo‘lganligi sababli, pretor chiqargan qonunlar ham ushbu muddat davomida kuchda bo‘lgan. Shu bois Sitseron ularni **“bir yillik qonunlar”** deb atagan. Ammo har bir pretor o‘zidan oldingi qonunlarning ma‘qul qismini, an‘anaga kirib qolganlarini saqlab qolgan va ular Rim qonunlari majmuasini to‘ldira borgan. Pretor hayot tajribasidan, talablaridan kelib chiqib, unga yangi qoidalar ham qo‘shgan. Bunday qo‘shimchalar ham ediktlarning o‘zlaridayoq protsessual xususi-

yatga ega bo'lgan, ya'ni ular da'volarni hal qilish tartibiga qaratilgan bo'lgan.

Pretorlar qonunlarni to'xtatish yoki bekor qilish huquqiga ega bo'lmaganlar. Buning uchun xalq qurultoylari chaqirilgan. Agar favqulodda masala chiqib qolsa, u senat qarori bilan hal qilingan. Pretorlarning qonun chiqarish huquqi bunday vaqtlarda juda qo'l kelgan, ammo kamdan-kam hollarda qo'llanilgan.

Pretorlar harbiy va ma'muriy idoraning yuqori tabaqalariga mansub kishilar hisoblanib, Rim respublikasida muhim ishlar bilan shug'ullanganlar va mashhur kishilar qatorida bo'lganlar. Pretor yuqori hokimiyat sohibi sifatida olti kishidan iborat soqchilar bilan yurgan. Ular bir bog'lamdan xivichlar olib yurganlar. Xivichlar orasida bolta ham bo'lgan.

Legisaksion protsess o'rniga formulyar protsess joriy qilinganidan keyin pretorlarning mavqei yanada oshib ketgan. Endi da'vo shakllari katta ahamiyat kasb eta boshlagan. Da'vo shakllarini esa pretor o'zining xohish-irodasiga qarab belgilagan. Uning bu faoliyati iqtisodiy hamda ijtimoiy manfaatni ko'zlagan. Adolat, insof, or-nomus, tomonlarning istak-xohishlari – hammasi da'vo shaklida o'z ifodasini topgan. Pretor bergan formula sud uchun bajarilishi shart bo'lgan ko'rsatma bo'lgan. U xalq uchun yozilib, ko'cha va xiyobonlarga osib qo'yilgan, qonun kuchiga ega bo'lgan.

Digestlarda ko'rsatilishicha, pretorlar ediktleri XII jadvalning qat'iy hisoblangan qoidalarini tahrir qilar, ulardagi ba'zi tushunchalarni o'zgartirar edi. Bu o'zgarishlar, albatta, adolat nuqtai nazaridan qilinar, ammo “**adolat**” tushunchasining o'zini ta'riflashda qiyinchiliklar paydo bo'lar edi. Shu davrda pretorlar huquqi (ius ignorarium) paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan. Mulkiy nizolarni adolatli hal etishga qiynalib qolgan pretorlar ko'pincha yuridik uydirmalar to'qib chiqara boshlagan, ya'ni masalaga aslida bo'lmagan faktlarni qo'shish yoki borlarini hisobga olmaslik kabi hollar yuz bera boshlagan. Ular rad etib bo'lmas qilib to'qib chiqarilgani va pretorga xos bo'lgani uchun yangi qonun chiqarish jarayonida muhim o'rin tuta boshlagan.

Pretorlar so'zda qadimiy qat'iy qonunlarni hurmat qilganlari holda, amalda ish bo'yicha yangi qoidalarni o'ylab chiqarar edilar. Rim yuristi **Marsianning** aytishicha, “U sivil (fuqaro) huquqining tirik tovushi bo'lib, yangi hayotiy ehtiyojlarni qondirishda muhim omil bo'ldi. Bu talablar savdo aloqalarining kuchayishi bilan ketma-ket bo'lib turar edi”.

Imperiyaning shakllanishi bilan pretorlarning huquq ijodkorlik faoliyati qisqara boshlagan. Chunki, bir tomondan, deyarli barcha masalalar

bo'yicha qonunlar ishlab chiqib bo'lingan bo'lsa, ikkinchi tomondan, endilikda qonun chiqarish imperatorning ko'rsatma-farmonlari va senatning qarorlari ko'rinishida ro'y bera boshlagan. 130 yilda mashhur Rim yuristi **Yulian** imperator **Adrian** buyrug'i bilan pretor ediktlari majmuasini tuzib chiqqan. U "**Doimiy edikt**" deb atalib, imperator **Yustinian** davrigacha jamiyat hayotida muhim o'rin tutib kelgan.

Peregrin pretorlari qonunlar majmuasining tuzilishi haqida ma'lumotlarga ega emasmiz. Shuni aytish mumkinki, III asr (212-y.)dan boshlab Rimning erkin aholisi fuqarolik (grajdanlik) maqomini olgan, shundan so'ng "xalq huquqi" deb atalgan peregrinlar huquqi o'zining alohida maqomini, mavqeini yo'qotgan, fuqarolik va peregrin huquqlari birlashib ketgan. Pretor huquqi va fuqarolik huquqlari bilan ham xuddi shundan bo'ldi.

VI asrda vizantiyalik yurist **Dorofey** bu haqda shunday deb yozgan: "Sekin-asta vaqt o'tishi bilan fuqarolik huquqi pretorlar huquqi bilan kelisha boshladi va shundan bir xillik kelib chiqdi, ya'ni ilgari bir-biri bilan qarama-qarshi turgan huquq manbalari qo'shilib ketdi". Biz o'rganayotgan Rim klassik huquqi ana shu tariqa vujudga keldi.

4. Huquqshunoslar faoliyati. Rim huquqshunoslarining sharhlari ham fuqaro huquqi tarkibiga kirgan edi. Respublika davrida esa, huquqshunoslar faoliyati asosan quyidagilardan iborat bo'lgan:

1) huquqiy masalalarda yordam so'rab kelgan fuqarolarga tushuntirish (maslahat) berish;

2) turli ish hujjatlarini tahrir qilish, bunga birinchi galda murakkab shartnomalar va shunga o'xshash hujjatlar kirgan;

3) taraflarning protsessual harakatlariga rahbarlik qilish, yo'naltirib turish, ya'ni **agere** (biroq bunda u advokat sifatida ish yuritmagan).

Mana shu faoliyat natijasida fuqarolar huquqi bilan bir qatorda sharhlovchilar huquqi, ya'ni qonunlarning yuristlar qilgan sharhlaridan tashkil topgan huquqiy qoidalar vujudga kelgan.

Hozirgi kunda qonunlarni sharhlash, tushuntirish huquqi faqat qonun chiqaruvchilarga yoki sud idoralariga berilgan, xolos. Rimda qonunlarni sharhlash huquqi senatga berilgan. Ammo senat asosan umumxalq huquqlari bilan shug'ullangan, kundalik hayot esa juda ko'p masalalarni o'rtaga qo'yardi. Shu bois xususiy huquq masalalari bilan bilimdon mutaxassislar shug'ullanganlar.

Binobarin hayotdagi boshqa masalalar kabi huquqiy masalalar ham chuqur ilmiy tavsif va talqinga muhtoj bo'lgan.

Bu davr yuristlarning talqinlari davlat tomonidan quvvatlanib, davlat qonuni kuchiga ega bo'la boshlagan. **Yulian, Pomponiy, Marsian, Ulpian, Pavel, Selsiy** va uning o'g'li davrlarida digest (qonun to'plamlari) juda ko'p yaxshi qonunlar bilan boyitilgan. Keyinchalik Rimda mutlaq hokimiyat o'rnatilganidan keyin Rim huquqshunosligi tanazzulga uchray boshlagan davrlarda (III asr) ham yuqorida nomlari keltirilgan yuristlarning nashr qilingan asarlaridan iqtibos (sitata)lar keltirilishi odat bo'lgan. Masalani hal qilishda ikki taraf baravar kelib qolgan vaqtlarda Papinian qaysi tarafda bo'lsa, o'sha fikr qabul qilingan.

Shu o'rinda huquqshunoslik ilmi tarixida muhim o'rin tutgan olimlardan biri II asr yuristi Gayni eslab o'tish joiz. U huquqshunoslikdan saboq berish bilan birga, ko'plab asarlar ham yozib qoldirgan, Rim huquqini oddiy, sodda, tushunarli va aniq qilib ta'riflab bergan.

Gay o'z kitobini uchta muhim qismga bo'lgan: 1-bo'limi shaxslarning huquqiy holatlariga, 2-bo'limi – ashyolarga, 3-bo'limi esa majburiyatlarga bag'ishlangan.

Kodeksmi, o'quv qo'llanmasimi – baribir, bu yo'sinda ta'riflash tizimi **institutsiya** deb atalgan.

5. Yustinian digestlari. Gay asarlarning bizgacha yetib kelgan qismi qanchalik muhim bo'lmasin, ular Rim klassik huquqi haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi. Ammo Vizantiya imperatori Yustinianning (483-565) digestlari bizgacha to'liq yetib kelgan bo'lib, ulardan ko'proq ma'lumot olish mumkin. Yustinian dehqonlardan chiqqan bo'lib, dono ish boshqaruvchi va askarboshi bo'lgan. Intizomli va adolatli davlat barpo etishga uringan Yustinian o'z davrining eng mashhur yuristlarini chaqirib, ularga quyidagi ishni topshirgan:

Rim-Vizantiya huquqiy normalari majmuasini tuzish (u keyinchalik **“institutsiya”** (darslik) nomini oladi);

117-yildan boshlab Rimni idora qilgan imperatorlar chiqargan konstitutsiyalar, qonun-qoidalar majmuasini tuzib chiqish;

3) keyinchalik **“digestlar”** deb nomlangan qonunlar kodifikatsiyasini tuzish (**“digestlar”** yuridik matnlar, ya'ni **“qonunlar yig'indisi”** deb tarjima qilinadi). Vizantiya imperiyasining davlat tili bo'lgan yunon tilida esa u **“pandekt”** deb ataladi. Shundan kelib chiqqan **“pandekt huquqi”** termini esa digestlarga asoslangan huquqni bildiradi).

Digestlar, albatta, yuridik matnlarning oddiy yig'indisigina emas edi, ularga Vizantiya davlatining feodallashtirilishi uchun xizmat qiladigan qonun-qoidalarigina tanlab kiritilgan edi. Ayni vaqtda unda bu davlatning boshqa manfaatlari ham e'tiborga olingan edi. Buning uchun 17 kishilik

komissiya tuzilib, uning ishini imperatorning o'zi nazorat qilib turgan. Bu ishga universitet professorlaridan tortib lotin tilini yaxshi bilgan bilimdon yuristlar ham jalb qilingan. Komissiyaning boshlig'i imperiyaning birinchi yuristlaridan hisoblangan **Tribonian** edi. Digestlar o'sha davr talablariga javob beradigan barcha muhim qonunlarni qamrab olgan, deyish uchun yetarli asoslar bor. Ular ham amaliy, ham falsafiy tomondan o'zlariga, ya'ni endilikda yuzaga kelayotgan feodal tuzumga xizmat qiladigan yuridik hujjatlarga ko'proq ahamiyat berganlar.

Shunday qilib, "digest konsepsiyasi" yuzaga kelgan. Digestga kiritilgan barcha qoidalar qonun maqomini olgan, unga kirmay qolganlari esa, chetga surib tashlangan, e'tiborga olinmaydigan bo'lgan va bora-bora o'z kuchini yo'qotgan.

Yustinian huquq normalari kodifikatsiyasini tamomlagach, ularni ta'riflash va sharhlashni man etgan, chunki turli xil talqinlar ularning mazmunini buzib yuborishi ham mumkinligini nazarda tutgan.

Napoleon I ham shunday fikrda bo'lgan. U tasdiqlagan Fuqarolik kodeksiga 1804 yilda kodeks mualliflaridan biri yozgan sharh chiqqanini eshitgan Napoleon: "**Kodeksim tamom bo'libdi!**", – degan ekan.

Ammo hayotiy voqealarning barchasini qonunlar qolipiga solib bo'lmagan: hayot doimiy ravishda o'zgarib, yangi qirralarini namoyon etib turgan, bu esa tor doirada yozilib, tasdiqlab qo'yilgan qonunlarga har taraflama ijodiy va oqilona yondashishni talab qilgan. Shuning uchun ham ularni ilmiy o'rganish va sharhlash zarur bo'lgan.

Ushbu digestlarni tuzish uchun komissiya a'zolari, yuqorida aytilgandek, juda katta ishni amalga oshirganlar: ular uch yil davomida 2000 kitobni o'rganib chiqib, ulardagi uch million satrdan 150 mingini tanlab olganlar. Bu esa 50 ta kitobni tashkil etgan. Bu kitoblarda, ya'ni digestlarda mil. av. II asrda yashagan yuristlardan boshlab milodning III asrigacha yashagan jami 39 huquqshunos olimlarning asarlaridan iqtibos (sitata) lar keltirilgan.

533 yilda Digestlar ustida ishlash oxiriga yetgan va ular qonun tusini olgan.

50 kitobning birinchisi huquq tarixi va bir qator umumiy masalalar haqida; 2–4-kitoblar – sud, sud jarayoni, da'volar haqida, 5–11-kitoblar – vorislik huquqi normalari haqida ma'lumot bergan; 12–19-kitoblar – garov huquqiga bag'ishlangan; 23–25-kitoblar – oila va er-xotinning mulkiy huquqlari haqida; 26–27-kitoblar – vasiylik va homiylik haqida; 28–38-kitoblar vasiyatlar haqida; 40-kitob – qullarni ozod qilish; 45–46-kitoblar boshqa shaxs tomonidan yoziladigan og'zaki (verbal) shartnomalar haqida

bo'lgan; 45–47-kitoblarni Yustinian “**dahshatli kitoblar**” deb atagan bo'lib, ular jinoyat va jazo masalalariga bag'ishlangan; nihoyat 50-kitobda umuman huquq masalalariga nazariy yondashilib, ba'zi umumiy xulosalar chiqarilgan.

6. Ba'zi umumiy qoidalar. Rim yuristlari o'z mulohazalarida masalaning amaliy tomoniga e'tiborni kuchaytirib, uning nazariy tomonini ikkinchi darajali deb bilganlar. Ammo shu bilan birga ular sudlar va advokatlar uchun yo'l-yo'riqlar, harakat qoidalarini ishlab chiqishlari lozim bo'lgan. Ular, xususan quyidagilardir: “Sud qarori sudning barcha a'zolari yoki ko'pchiligi tomonidan qabul qilinishi lozim”. “Agar aksi isbotlanmagan bo'lsa, ul kishi insofli, aybsiz hisoblanadi”, “Agar vasiyatnomada biror narsa xato yoki chalkash yozilgan bo'lsa, unda vasiyat qiluvchining umumiy xohishi hisobga olinib, ushbu nuqtai nazardan talqin etilishi kerak”, “Aybsiz kishini jazoga mahkum etgandan ko'ra, aybdorni jazosiz qoldirgan yaxshi”, “qonunni chetlab o'tish va qonun ruhiga qarshi harakat huquqqa xilof harakat hisoblanadi” va h.k.

Nazorat uchun savollar

1. Huquq manbalari istilohi qanday tushuniladi?
2. Rim huquqining qanday manbalari ma'lum?
3. Qonun va odat nimasi bilan farqlanadi?
4. Magistratlar ediktlarining yuridik tabiati qanday?
5. Rim xususiy huquqida “qo'shaloqlik” tushunchasi nimani bildiradi?
6. Rim huquqi taraqqiyotida yuristlarning xizmatlari qanday bo'lgan?
7. Shaxsiy va umumiy huquqlarga bo'linish asosida nima yotadi?
8. Huquq sub'yektlari kimlardan iborat bo'lgan?
9. Sivil (fuqaro) huquqi, xalqlar huquqi bilan peregrinlar (ajnabiylar) huquqlari orasidagi asosiy farq nimada va qachon, qanday sharoitda ular birlashib ketgan?
10. Pretorlar huquqi va ularning vakolat doirasi qanday belgilangan?
11. Yustinian digestlari deganda nimani tushunasiz?
12. Rim huquqining rivoj topishida Yustinianning ko'rsatgan faoliyatini qanday ifodalash mumkin?
13. Nima uchun Rim yuristlarining fikr-mulohazalari huquq manbalariga kiritiladi?

III BOB. SUD TIZIMI VA DA'VOLAR HAQIDA TA'LIMOT

Shaxslarning buzilgan huquqlari fuqarolik sudi protsesslarida himoya qilingan. Bu sud protsesslari uch xil bo'lgan: eng qadimiysi – **“legisaksion”** deb atalgan, undan keyingisi – **“formulyar”** va eng keyingisi – **“kognitsion”** sud protsesslari bo'lgan.

Legisaksion (sud) protsess ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqichda taraflar da'vo bilan magistratura (pretor)ga murojaat qilganlar. Ikkinchi bosqich sudlar tomonidan dalillarni baholash va qaror chiqarishdan iborat bo'lgan.

Qonunga, ya'ni XII jadval qoidalariga asoslangan da'volar bilan pretor yoki sudyalarda **“vijdonan”** to'g'ri deb topgan da'volar o'rtasida katta farq bo'lgan. Ilgari sudyalarda asosli deb topgan da'volar adolatga, aqlu zakovatga asoslangan bo'lsa, keyinchalik paydo bo'lganlari pul muomalasiga, mulkiy munosabatlarga asoslangan bo'lgan.

Da'volar o'z tabiati, mantig'iga ko'ra shaxsiy (**in persanam**) va ashyoviy (**in rem**) da'volariga bo'lingan. Da'vo bir tarafning o'z majburiyatlarini bajarmaganligi haqida bo'lsa, shaxsiy da'vo hisoblangan. Agar da'vo o'rtada hech qanday kelishuv bo'lmagani holda, birovning narsasini o'ziniki qilib olganligi haqida bo'lsa, u ashyoviy, ya'ni (**in rem**) da'vo hisoblangan.

Demak, da'vo turi asosan shaxsga bog'liq bo'lgan. U birinchi holda o'z majburiyatini bajarmagan kishi (shaxs) sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi holda o'z buyumi (ashyosi)ga bo'lgan egalik huquqini himoya qiladi. Shaxsiy da'voda shaxsning o'z zimmasiga olgan majburiyatlari haqida bahs yuritilsa, ashyoviy da'voda mol-mulkka bo'lgan huquqqa asoslanib ish yuritiladi.

Kviritlarda mulk egasining biror mulkini uning egasi bo'lmagan boshqa kishi olganligi tufayli qilgan da'vosi **“vindikatsion da'vo”** deb atalgan. Agar javobgar javob berishdan bosh tortsa, mol-mulk yoki ashyo to'g'ridan-to'g'ri da'vogarga o'tgan. O'zgalarda mulkidanda foydalanish huquqi uchun kurash ham ashyoviy da'voga kiritilgan. Masalan, qo'shning yeri orqali o'tish, mol haydab o'tish, suv o'tkazish va boshqalar tufayli fuqaroning biror buyumiga yetkazilgan zararni qoplash talabi ham ashyoviy da'voga kiritilgan.

1-§. Formuliyar sud

Formuliyar sud ham legitatsion sud singari ikki bosqichdan iborat bo'lgan: u avval pretor qoshida, so'ngra esa sud huzurida o'tgan. Da'vogar pretor huzuriga kelib, o'z da'vosini soddagina qilib tushuntirgan va himoya izlagan. Pretor uning da'vosini eshitgan, mulohaza yuritib, unga yarasha formula izlagan.

Bu ancha murakkab ish bo'lgan. Uning topgan formulasi u mazkur da'vo kiradigan ishlar guruhiga mansub yoki umuman hal qilinadigan bo'lishi kerak bo'lgan (masalan, qarz yoki garov masalalari kabi). Kerakli formulani topganidan keyin pretor uni mazkur da'voga moslashtirib, shaxsiylashtirishi va yozma ravishda javobgarga berishi lozim bo'lgan. Javobgar esa, javob tayyorlab, unga taqdim etgan. Da'vogar ushbu javoblar bilan tanishtirgach, o'z da'vosini bayon etishi lozim bo'lgan. Pretor ishni hal etish uchun sudya tayinlagan va shu bilan protsessning birinchi bosqichi tugagan.

Ammo pretorning quyidagi ikki xil yechimga kelish huquqi bo'lgan: 1) da'vo hujjatlarini shundayligicha sudyaga topshirib, qanday hal qilish masalasini sudyaning ixtiyoriga havola qilish, 2) pretorning o'zi bir to'xtamga kelib, da'vo yuzasidan qanday hal qiluv qarori chiqarish kerakligi haqida topshiriq berish. Bunda pretor bergan hujjatlar asosli bo'lgan holda, sud pretor ko'rsatgan qarorni chiqargan.

Gay pretor formulalari haqida gapirib, uning uchta tarkibiy qismi haqida ma'lumot bergan:

birinchisi – **“intensiya”** (lotinchada “ayblash” degan ma'noni anglatadi, shu bois intensiyani “talab qilish formulasi” deb ham yuritadilar). Unda da'vo va uning huquqiy asosi bayon qilingan. Bu asos XII jadval yoki boshqa Rim qonunlariga (sivil) yoki pretorlar ediktlariga (Bonitar) tayangan bo'lishi mumkin;

ikkinchisi – **eksepsiya bo'lib**, **“mustasno”**, **“istisno etmoq”** ma'nolarini bildiradi.

Quyidagi hollarda u pretor formulasining ajralmas qismi hisoblanadi:

1) agar javobgar da'voni asossiz hisoblab, pretordan himoya talab qilsa;

2) agar da'voni butunlay rad etmay, ayni paytda uni butunlay yoki qisman bajara olmasligini aytsa;

3) agar da'voning intensiyada ko'rsatilgan asosini rad etsa.

Intensiya ham, eksepsiya ham yo fuqaroviy (sivil), yo pretor huquqiga asoslangan bo'lishi mumkin bo'lgan. Eksepsiya – da'voni

so'ndiruvchi (yo'qotuvchi) yoki muhlat beruvchi bo'lishi mumkin bo'lgan. Yolg'ondan to'qilgan ekssepsiyalar ham keng qo'llangan va ular tufayli pretor fuqarolik huquqini taftish (reviziya) qilish imkoniga ega bo'lgan. Pretorlar uni adolat huquqi va pretorlar huquqi nuqtai nazaridan taftish qilganlar.

Pretor formulalarining uchinchi qismi – **“kondemnatsiya”** – hal qilish ma'nosini anglatadi va formulyar protsessining so'nggi bosqichini tashkil qiladi. Unda, agar javobgar da'vogarning da'volariga rozi bo'lsa yoki ularni rad etishga qodir bo'lmasa, ish oson ko'chgan; aks holda, sudya javobgarning qarshi talablarini ham hisobga olishi kerak bo'lgan (masalan, javobgarning to'lov qobiliyatini hisobga olib, to'lanadigan mablag' miqdorini o'zgartirishni sudya belgilagan).

To'rtinchisi **litiskontestatsiya** bo'lib, u pretorning ishni sudyaga topshirishdan avval bir jumлага sig'adigan formula tuzishi lozimligini bildirgan. Bu formula guvohlar ham imzolaganlaridan keyin da'vogarga topshirilgan, u esa javobgarga bergan. Topshirish jarayoni barchaning huzurida o'tgan va bu jarayon litiskontestatsiya deb atalgan. Ayni vaqtdan boshlab shaxsiy tortishuv ommaviy tus olgan. Pretorning **“farmon-formulasi”** sudya uchungina emas, har ikki tomon uchun ham ularni o'zaro bog'lovchi ma'muriy hujjatga aylangan.

Litiskontestatsiya sudlarining qarorlari uzil-kesil hisoblangan, keyin hech kim uning ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo'lmagan.

Hozirgi zamon cheh huquqshunosi **M. Bartoshek** pretor formulasini Rim yuristlari ixtiro qilgan hamda ularning ijodiy kuchi, bilimdonligi va iste'dodining naqadar yuksakligini, umuman, qonuniylikning yuqori bosqichda bo'lganligini ko'rsatuv eng noyob kashfiyot deb baholaydi.

Mil. av. 160-yilda Ebutsiya qonun bilan kiritgan pretor formulasi sudlovning yangi turini joriy etgan. Bu hol uch asr davom etdi va faqat imperiya vaqtida kognitsion sudning joriy etilishi bilan oradan ko'tarilgan. 342-yildagina imperator konstitutsiyasi bilan u butunlay bekor qilingan.

2-§. Sud va sudyalar

Sud va sudyalar tayin etgan kuni taraflar sud majlisiga kelganlar, uning **birinchi bosqichi (in inre)** peshinda boshlanib, qorong'u tushgunicha davom etgan.

Rimda amaldorlik mustahkam o'rin olgan paytdan boshlab to Grakslar davri (mil. av. II asr)gacha an'anaga ko'ra senatorlar, Rim

imperiyasining keyingi davrida esa hukmdorlardan hisoblangan suvoriylar sudyalik qilganlar.

Har bir masala uchun sudyalari pretorlar tomonidan alohida tayinlanganlar va shaxsan o'zlari sud qilganlar. Taraflarga sudya shaxsiga qarshi chiqish yoki pretor aytgan nomzodlardan birini tanlab olish yoxud uni chek tashlash yo'li bilan tanlab olish huquqi ham berilgan.

Sud majlisi Rimdagi bosh maydon Forumda o'tkazilgan Ammo sudyaga sud majlisini o'z uyida o'tkazish huquqi ham berilgan. Sudya ikki tomonni kelishtiruvchi hokim vazifasini ham bajargan. Tomonlar biroz hovurdan tushishlari uchun sudya majlisni keyinroqqa qoldirishi ham mumkin bo'lgan.

Xalqaro shartnomalarga daxldor bo'lgan va peregrin pretori alohida ko'rsatma bergan ishlarni rekuperatorlar – qaytarib beruvchilar muhokama qilganlar. Bunday sud uch kishidan iborat bo'lgan. Agar ma'lum sabablar ochilsa, rekuperat sudi jinoiy javobgarlikka tortib, jazo berishi ham mumkin bo'lgan. Xususiy sudyaning esa bunga haqi bo'lmagan.

qullarning quldorlar bilan bo'lgan ozodlik olish masalasidagi nizolari ham rekuperat sudlarida ko'rilgan. Agar sudya u yoki bu tarafga adolatsizligi natijasida zarar yetkazsa, bunga o'z mulki bilan javob bergan. Sudga kelmaslik uni mensimaslik hisoblanib (uzrli sababsiz bo'lsa), katta mulkiy javobgarlik qo'llanishiga sabab bo'lgan.

3-§. Dalillarni taqdim etish

Sudya ishni ko'rishdan avval pretor formulasi bosilgan qog'ozlarni taraflarga tarqatib, so'ng muhokama kirishgan. Taraflar – da'vogar, javobgar va ularning advokatlari bo'lganlar. Muhokamaning ushbu bosqichida (**in indicio**) taraflar rasmiyatchilik bilan unchalik bog'lanmaganlar, ammo yolg'on ko'rsatuv va hujjatlarni soxtalashtirganlik uchun qattiq javobgarlikka tortilganlar. Sudda guvohlar ham qatnashgan, zarur bo'lganda, ekspertiza ham o'tkazilgan. Sudyaning qarori qat'iy bo'lib, undan so'ng o'sha hujjatlar asosida o'sha da'vo yuzasidan ish qo'zg'atish mumkin bo'lmagan.

Asrlar davomida yuristlar formulalar protsessini chuqur o'rganganlar va rivojlantirganlar. Ushbu protsess ham zamon talabi, ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi tufayli rivojlanib, takomillashib borgan. Ba'zi ulkan va muhim masalalar (qullikdan ozod qilish, meros kabi) 10 yoki 100 nafar sudya ishtirokida ko'rilgan (va detsemvir yoki sentumvir deb nomlangan).

Dalillarga erkin baho berish. Rim yuristlarining eng oliy ixtirolari va avlodlarga qoldirgan bebaho qadriyatlaridan biri dalillarni erkin muhokama qilish, aql va vijdon ko'rsatmasi bilan qozonilgan e'tiqod, ya'ni ichki ishonchdir. Bu ishonch formal sharoitlarga emas, ishning barcha tomonlarini oqilona va xolisona tekshirishga asoslangan. Bu narsa fuqarolik hamda jinoiy ishlarni ko'rishda bab-baravar ahamiyatli bo'lgan.

Sudning hal qiluv qarorini bajarish. Ilgarigi vaqtlarda sud qarorini bajarish javobgarning zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, mazkur davrga kelib bu ishni pretor o'z qo'liga oladi. Buning uchun uning qo'lida majbur etish vositalari ham bo'lgan.

Restitutsiya (restitutio in integrum). Ba'zan javobgar ayol kishi yoki mehnatga layoqatsiz shaxs yoxud yosh bola bo'lsa, himoya izlab pretorga murojaat qilingan. Bunday hollarda restitutsiya – ya'ni ilgarigi holiga qaytarish, qayta tiklashning asosiy vazifasi yomon, og'ir oqibatlariga olib keladigan xatolarni tuzatish bo'lgan. Bu holda pretor da'vogarga o'z da'vosini qayta ko'rib chiqish, yangi dalillar bilan to'ldirish imkonini ham bergan.

Restitutsiya ko'pincha ashyoviy nizolarda qo'llangan va aniq shaxsiy xususiyatga ega bo'lgan.

4-§. Kongnitsion ish yuritish

“Kongnitsio” (kongnitio) “tekshiruv”, “tergov” ma'nosini bildiradi. Imperiya vujudga kelishi bilan favqulodda ish yuritish qoidasi rasm bo'la boshlagan. Bunda sud ishlarini hal qilish vazifasi viloyat hokimlariga topshirila boshlagan. Bunday ishlarga ashyoviy da'volar ham, shaxsiy ishlar ham kirgan. Kongnitsion ish yuritishda formulyar ish yuritishdagi kabi ikki bosqich bo'lmagan. Ishni avval boshidan o'sha viloyat amaldorining o'zi hal qilgan. U mutaxassis qonunshunosdan maslahatlar olib turishi mumkin bo'lgan.

Bunda taraflar borgan sari o'z huquqiy imtiyozlaridan mahrum bo'la borganlar, an'anaviy protsessual qoidalarni mensimay qo'yanlar. Advokatlar ham o'z mavqelarini yo'qota borganlar.

Kongnitsion ish yuritish dominato (III asr) davriga kelib uzil-kesil qaror topgan. Eng oliy sud vazifasi imperatorgagina xos bo'lib, yuqori mansabdagi amaldorlar uning nomidan sud qilganlar. Dalillarni taqdim etish tartibi eskicha qolgan bo'lsa ham, ularni erkin baholash tizimi jiddiy o'zgarishga uchragan. Atoqli, aslzoda odamning bergan guvohligi oddiy

odamning guvohligidan yuqoriroq, ishonchliroq hisoblangan. Rasmiy hujjat guvohlar ko'rsatmalaridan yuqori turgan.

Viloyat hokimlari sudlov jarayonini mutaxassis yuristlarga topshirishlari ham mumkin bo'lgan, ammo uning haq-huquqi gubernatorning ra'yiga bog'liq bo'lgan.

Yangi ish yuritish tizimi appelyatsiya (shikoyat qilish) tizimini ham joriy etgan. Shikoyatlar imperatorgacha borib yetishi mumkin bo'lgan.

Formulyar ish yuritish tizimini bekor qilish haqidagi aniq farmonlar saqlanib qolmagan. Formulyar va kongnitsion tizimlar II asr oxirigacha birgalikda hukm surgan. Pretor bajarishi barcha uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqargan. Bu farmonlar interdikt (ta'qiqlovchi, man etuvchi) deb atalgan. Ulardan ko'zlangan asosiy maqsad buzilgan huquqni majburiy ravishda tiklash bo'lgan. Ushbu farmonlar mulk egalaringning mol-mulklarini birovlar qonunga xilof ravishda o'zlashtirib olishlariga qarshi juda ta'sirchan vositalar bo'lgan.

Interdikt formulalari ham pretor ediktiga kirgan. Pretor barchaga qandaydir harakatni taqiqlovchi interdikt chiqarishi, talab qonuniy bo'lsa, sudda ishni ko'rmasdan oldinroq ham da'vogarga mol-mulkni topshirishi mumkin bo'lgan. Bunday formulalar quyidagi hollarda chiqarilgan:

1) homila sifatida mavjud bo'lib, tug'ilmagan bolaning otasi o'lishi natijasida yuzaga kelgan meros huquqini himoya qilish;

2) beva qolgan yoki erdan ajrashgan xotinning o'z sepini qaytarish huquqini himoya qilish;

3) qarz beruvchining qarzdor qarzini to'lashga qodir emasligini bilgach, qarzni undirishga intilishi.

Interdikt ish yuritish sud protsessiga aylanib ketishi ham mumkin bo'lgan. Umuman, mulkka egalik huquqini uzil-kesil ravishda sud hal qilgan.

5-§. Interdikt turlari va da'vo muddati

Interdikt talabi odatda bir tarafdin qo'yilgan, ammo ba'zan ikki taraf ham interdikt talab qilishi mumkin bo'lgan. Shu bois interdiktlar "oddiy" yoki "ikki tomonlama" xillarga bo'lingan. Mazmuni jihatidan ularni "taqiqlovchi" yoki "qayta tiklovchi" deb ataganlar.

Agar interdikt asosi sudda tasdiqlansa, unga qarshilik ko'rsatgan taraf jarima to'lagan, agar tasdiqlanmasa, interdikt talab qilgan tomon roziligi bilan ish sudsiz bitgan.

Da'vo muddati. Huquqiy munosabatlarning barchasida "vaqt" birligi ishtirok etadi. Har qanday shartnoma yoki bitimda ham vaqt masal-

asi aks ettiriladi. Bunga bitimda uning tuzilgan vaqti, bekor bo'lish vaqti yoki ma'lum shartlarning bajarilish vaqti ko'rsatilishi yaqqol dalildir. Vorislik huquqida ham vaqtning roli katta (masalan, meros ochilish vaqti, vasiyatnoma kuchining tugash vaqti kabilar).

Fuqarolik protsessida ham vaqt alohida ahamiyat kasb etgan. Masalan, huquqiy munosabat tarafdorlarining voyaga yetish darajalarini belgilashda ularning tug'ilgan yillari va kunlari aniq hisobga olingan hamda 25 yoshga to'lgan taqdirdagina, ular voyaga yetgan hisoblanganlar. Agar hech qanday uzrli sabab bo'lmasa, vaqt uzluksiz deb hisobga olingan. Agar kasallik, davlatning biror yerga jo'natishi, asir tushish kabi sabablar bo'lsa, ushbu vaqtni hisobga olishda inobatga olinishi mumkin bo'lgan, ya'ni muddat uzaytirilgan.

Rim sivil huquqida "da'vo qo'zg'atish muddati" tushunchasi bo'lmagan. Ammo pretor va sud o'tib ketgan muddatini hisobga olganlar va da'vogarni harakat qilishga undaganlar. Shaxsiy va ashyoviy da'volar uchun da'vo muddati V asrdan boshlab joriy qilinadi. Yustinian davrida da'vo muddatlari barcha da'volarga nisbatan qo'llaniladi. 30 yil o'tganidan keyin da'vo muddatining o'tishi nazarda tutiladi.

Pretor ediktlaridayoq ba'zi voqealar uchun da'vo muddatining cheklanganligini ko'ramiz (masalan, jarima solinadigan da'volar uchun). Bozor munosabatlari davrida vaqtga bo'lgan talab yana ham oshgan va ular respublikaning quyi magistratlari tomonidan tartibga solib turilgan.

Oldi-sotdi shartnomalarini muhokama qilish chog'ida narsaning kamchiligi, sifati buzilganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, kuril edillari bitimni bekor qilish va ashyolar pulini olti oy muddatda to'lash haqida qaror chiqarganlar, ashyoning xarid narxini kamaytirganlar. Bunday qarorlar chiqarish amaliyoti hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Yustinian qaroriga ko'ra, barcha da'volar 30 yildan so'ng bekor qilingan.

Nazorat uchun savollar

1. Da'volarning qanday turlari mavjud?
2. Qanday sud tizimi mavjud bo'lgan?
3. Formulyar sud nima?
4. Dalillarni taqdim etish qanday tartibda amalga oshirilgan?
5. Kognitsion ish yuritish haqida nimalarni bilasiz?
6. Interdikt necha xil bo'ladi?
7. Da'vo muddati qanday belgilangan?

IV BOB. RIM XUSUSIY HUQUQIDA SHAXSLAR TUSHUNCHASI

1789-yilda fransuzlarning inson va fuqaroning huquqi haqidagi deklaratsiyasi e'lon qilinganidan beri u o'ziga, rasman bo'lsa-da, og'ishmay yo'l ochib bormoqda va umumbashariy qimmatga ega umumdemokratik qadriyatga aylanmoqda. Deklaratsiyada insonlarning ozod va teng huquqli bo'lib tug'ilishlari va to' o'lguncha shunday qolishlari, shuningdek, ozodlik, mulkka egalik, xavfsizlik va zulmga qarshi kurash har bir davlatning maqsadi bo'lishi zarurligi va huquqiy tenglik prinsipi e'lon qilingan.

Ammo qadimgi Rimda bunday bo'lmagan. Unda qulchilik tuzumi taraqqiy etgan bo'lib, qul hech qanday huquqqa ega bo'lmagan. U ishlab chiqarish quroli yoki ish hayvoniga tenglashtirilgan. Shu bilan birga, har qanday ozod fuqaroning ham qulga aylanib qolishi hech gap bo'lmagan. Chunonchi, agar u asirga tushib qolsa, qarzini to'lay olmasa, biror gunohi uchun surgunga hukm qilingan bo'lsa, qul qilib ishlatilishi, sotib yuborilishi mumkin bo'lgan.

O'qituvchilik, ish boshqaruvchilik kabi ishlarni bajaruvchi qullarni xo'jayinlar tuzukroq ahvolda tutganlar. Bunday qullarga xo'jayinlari topshirgan vazifalar yuzasidan turli da'volar ham mavjud bo'lgan. qulga ma'lum miqdorda yer ajratib bergan xo'jayin qulni boqish vazifasidan ham qutilgan. Bunday qul yerni ishlab, o'zini boqqan, yerga kerakli xarajatlarni o'zi qoplab, xo'jayiniga ma'lum miqdorda to'lov ham berishi kerak bo'lgan. Ozod qilingan qullar ham ma'lum kunlarda xo'jayiniga ishlab berishlari lozim bo'lgan. Ana shunday munosabatlarning yuzaga kelishi bilan turli da'volar kelib chiqqan.

Og'ir jazo berilishiga qaramay, qullarning qochishi tez-tez uchrab turgan. Agar kul xo'jayinini o'ldirsa, o'sha vaqtda uyda bo'lgan qullarning hammasi o'limga hukm etilgan. Xo'jayinning qullarni o'ldirishi esa oddiy hol hisoblangan. Xo'jayinlar qullarning o'zaro turmush qurishiga qarshilik ko'rsatmaganlar, chunki bu ularning qullari ko'payishiga olib kelgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, qarzlarini to'lay olmagan fuqarolar qullikka mahkum etilganlar. Ammo mil. av. 326-yilda Peteliya qonuni qabul qilingach, qarz beruvchiga mol-mulkini berish yoki ma'lum vaqt ishlab berish bilan ham qutilishi mumkin bo'lgan. Bu "addikt sudi" tomonidan belgilangan.

19-yilda imperator Tiberiya davrida qulni ozod qilish masalasi ko'rilganda ovozlar soni teng bo'lib qolsa ham ozodlik tarafiga hukm

chiqarilgan. Bu qonun bo'yicha qul sotilgan taqdirda bolani onadan ajratish taqiqlangan.

Rim xususiy huquqining sub'yektlari alohida jismoniy va yuridik shaxslardan iborat bo'lgan. Huquq sub'yekti persona (persona) deb atalgan. U to'la huquqiy layoqatga ega bo'lgan va quyidagi guruhlardan tashkil topgan:

erkin bo'lishi bilan – status libertatus;

fuqarolik huquqiga ega bo'lishi bilan – status civitatis;

oilaviy holati bilan – status familias.

Birinchi guruh erkin shaxslar va quldorlardan tashkil topgan.

Ikkinchi guruh – Rim fuqarolari va xorijiy davlat fuqarolari, uchinchi guruh – oila boshlig'i va unga itoat etuvchilardan iborat bo'lgan.

Xususiy huquq bo'yicha quyidagi shaxslar to'la huquqiy layoqatga ega deb tan olingan: a) ius conubii – nikohdan o'tish, rimliklar oila qurish huquqiga ega bo'lganlar; b) ius commercii – mulkiy munosabatlarning sub'yekti huquqiga ega bo'lganlar.

1-§. Jismoniy shaxslar

Xususiy huquq, fuqarolik-protsessual huquqi, xaloyiq huquqi bergan haq-huquqlarni, shuningdek, omnaviy va xususiy huquqlar yuklagan vazifalarni bajaruvchi har bir kishi jismoniy shaxs hisoblanadi. Keng ma'noda, yashash huquqi, jismoniy daxlsizligi, sha'n va qadr-qimmatini qonun bilan kafolatlangan kishi jismoniy shaxsdir.

Rim xususiy huquqida qonun huquq egasi bo'lgan har bir kishining mulk egasi bo'lishiga yo'l qo'ygan, shartnomaviy munosabatlar yuritishga haqli bo'lgan kishini shaxs hisoblagan.

Shunday qilib, "huquq sub'yekti" tushunchasi shakllangan. Albatta, bu shaxs (hozirgi vaqtdagi kabi) muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim bo'lgan. Bu esa uning ma'lum yoshga yetishi, aqliy qobiliyati, qilayotgan ishi uchun mas'uliyatni sezish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan.

1. To'liq huquqiy layoqat egasi. To'liq huquqiy layoqat vujudga kelishi uchun uch narsa talab qilingan: ozod inson, Rim fuqaroligi va oila boshlig'i bo'lish. Ozod ota-onadan tug'ilgan kishi ozod hisoblangan. Keyinchalik, garchi otasi noma'lum bo'lsa ham, ozod onaning bolasi ozod hisoblanadigan bo'lgan. Agar homilador qul ozodlikka chiqsa, shundan keyin tug'ilgan bolasi ham ozod hisoblangan.

Rim huquqiga ko'ra, kishi tug'ilgan kundan boshlab huquqiy layoqatga ega hisoblangan. Ammo bolaning otasi vafot etib, u ona qornida

qolsa va vorislik masalasi ko'tarilsa, qorindagi bola ham vorislar qatoriga kiritilgan. Balog'at yoshi erkaklar uchun – 25, ayollar uchun – 18 yosh hisoblangan.

Harbiy xizmatda bo'lish va siyosat bilan shug'ullanish uchun fuqaro ozod bo'lishi kerak bo'lgan. Paterfamilias – otaning oilada boshchiligi bo'lib, xususiy huquqiy ishlar bilan faqat ota shug'ullangan. Agar ota asirga tushib qolsa, vafot etsa yoki fuqarolik huquqidan mahrum etilsa, uning o'g'illari fateramilias huquqini olganlar.

Huquqiy layoqatni cheklashning uch turi mavjud bo'lgan:

a) kimki fuqarolik va ozodlikdan mahrum etilsa, deyarli barcha huquqlarini ham yo'qotgan;

b) kimki ozod qolib, faqat fuqarolikni yo'qotsa (masalan, Rimdan ko'chib ketsa), yarim huquqini yo'qotgan;

v) kimki o'z oilasidan boshqa oilaga o'tsa, huquqini eng kam darajada yo'qotgan.

2. *Lotinlar*. Rimga bo'ysundirilishidan oldin lutsium xalqlari lotin nomi bilan yuritilganlar. Ular qadimiy lotinlar bo'lganlar.

Keyinroq mustamlaka lotinlari paydo bo'lganlar (Latini Coloniae). qadimgi lotinlar Rim fuqarolari qatoriga kiritilmasalar ham, Rimda tijorat bitimlari tuzishlari va sudlarda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan. Ba'zan Rim fuqarolari bilan nikohga kirish va xalq majlislarida qatnashishlari ham kuzatilgan.

Mil. av. I asrda lotin jamoalari Rim fuqaroligi huquqiga ega bo'lganlar.

3. *Peregrinlar*. Yuqorida aytilganidek, 242 yilda peregrinlar pretori lavozimi ta'sis etilgan. U o'z ediktlarini chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Uning farmonlari shahar pretori bilan kelishilgan holda chiqarilgan. Shunday qilib, xususiy va hududiy huquqlar kelishib olib boriladigan bo'lgan. Pirovardida hududiy huquq normalari yengib chiqqan, chunki pregrin pretori tabiiy huquq normalaridan ko'proq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Peregrinlar asosan Rim bosib olgan o'lkalarning (Gretsiya, Misr, Fransiya, va h. k.) fuqarolari bo'lganlar. Imperator Karakall qonuniga (212) muvofiq, pregrinlar holati ancha o'zgargan. Endilikda Rim poytaxt bo'lib qolsa ham uning imtiyozlari tugatilgan, Rimdagi barcha ozod kishilar fuqarolik huquqini olganlar. Endi asl rimlik va peregrin tovar almashtirish, oldi-sotdida bir xil huquqqa ega bo'lgan. Ular o'rtasidagi o'zaro nizolar ham teng huquqli asosda hal qilina boshlagan va "ekstraordinar (favqulodda) kognitsiya" deb atalgan.

4. Ixtiyoriy bo'shatilganlar (libertinlar) yoki ozod qilinganlar. qadim zamonlardan quldorlik davlatlari, xususan, Rimda qullarni ozod qilish huquqi mavjud bo'lgan. Ular turli usullarda (masalan, sud orqali, vasiyatnomalarga asosan va boshqa usullarda) ozod etilganlar. Imperiya vaqtida a) do'stlarga e'lon qilish, b) ozodlik xati berish, v) oilaviy dasturxon atrofiga o'tkazish kabilar usullar paydo bo'lgan. Imperator Konstantin davrida bu usullar soni yanada ko'paytirilgan. Ammo ozodlik olgan qul bilan uning sobiq egasi – quldor orasidagi munosabat batamom uzilib ketmagan, ularning bir-birlariga nisbatan ma'lum majburiyatlari saqlanib qolgan.

5. Kolonlar. Qullarni qo'yib yuborish amaliyoti goh kengayib, goh torayib turgan. Masalan, imperator Avgust zamonda tamg'a bosilgan qullarni qo'yib yuborish man etilgan yoki 30 yil xizmat qilmaganlarini qo'yib yuborish taqiqlangan. **Imperator Yustinian (VI)** esa qullarni xo'jayinining farmoni bilangina ozod etib yuborish huquqini bergan.

Undan tashqari, ozodlikka chiqqan qulga fuqarolik huquqi ham beriladigan bo'lgan. Buning o'z sabablari bo'lgan, albatta. Kolonlar tarixi ushbu savollarga javob beradi. Birovning yerlarini ijaraga olib, unga pul yoki mahsulot bilan haq to'lovchi (masalan, chorakor) kolonlar deb atalgan. Ularning har xil turlari bo'lgan. qulni bevosita ishlatgandan ko'ra, unga yer berib, "hosilning bir qismi o'zingniki", deyilsa, qul tirishibroq ishlagan va xo'jayinga ham ko'proq mahsulot yetkazib bergan. Ammo keyinchalik ular xo'jayinning qutulib bo'lmas qarz kishaniga tusha boshlaganlar.

Yer egalari (latifundistlar) va Rim imperiyasining manfaatini ko'zlab, ajratilgan yerlarini tashlab ketuvchi kolonlarga qarshi choralar ko'rila boshlagan. Masalan, 322 yilgi konstitutsiyada ana shunday kolonlarni majburiy qaytarish haqida qoida bo'lgan. 356 yilda esa yerni unda ishlovchi kolonlarsiz sotishni taqiqlovchi qonun chiqqan. Shu tariqa kolonlarni yerga birliktirib qo'yish yuridik asosga ega bo'lgan.

Kolonlikning yuzaga kelishi quldorlik tuzumi inqirozining natijasi bo'lgan. **Pekuliylilikning** o'zi (Pekuliya haqida quyida batafsil to'xtalamiz. – Z. Sh.). qulning manfaatdorligini oshiruvchi omil bo'lib, keyingi o'zgarishlarning boshlanishi bo'lgan.

Rim imperiyasi ancha susaygan bo'lib, endilikda harbiy yo'llar bilan qullarni ko'paytirishning imkoniyati qolmagan edi. Undan tashqari, kolonlik bilan rizq topib, kun ko'rishga rozi qashshoqlar ham ko'payib ketgan edi. Rim davlatining o'zi ham kolonlardan tushadigan soliqlardan

ko'proq manfaatlar bo'la boshlagan, pirovardida ular soliq to'lovchilar armiyasini tashkil qilganlar.

Kolonlarning to'liq huquqqa ega bo'lmagan, yer egalariga qaram tabaqa sifatida shakllanishi imperator **Anastasiy** (491-518) vaqtida yuz bergan. Uning qonuniga binoan, 30 yil davomida yerni ishlagan kishigina o'sha yerga egalik huquqiga ega bo'lgan. Shu tariqa, feodalizmga yo'l ochilgan. Kolonlar esa krepostnoylarning salaflariga aylanganlar. Shunday qilib, yerga birlashtirib qo'yish, chorakorchi va boshqalar feodallarning dehqonlar kuchidan foydalanish vositasi bo'lgan.

Pekuliy. Rimda qul egalari o'z mulklarining bir qismini qullarga topshirib, ularni bu mulkni idora qilishga jalb qilib qo'yganlar. Bunday mulk pekuliy deb atalgan. Masalan, qul kema kapitani vazifasini bajargan yoki biror yer mulkining boshqaruvchisi bo'lgan, ammo bu mulklarga, uning biror bo'lagiga yoki undan keladigan daromadga hech qanday egalik huquqiga loyiq hisoblanmagan va buni da'vo ham qilolmagan.

2-§. Yuridik shaxslar

Hozirgi vaqtda fuqarolik muomalasida o'z nomidan qatnashadigan, da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilotlar, korxonalar va muassasalar **yuridik shaxslar** deb ataladi. Rim yuristlari (ayniqsa, imperiya davrida) xo'jalik ishlarida ayrim shaxslargina emas, balki yuridik shaxslar ham qatnashishi mumkinligini payqagan, e'tirof etganlar. Ammo ular bu sohada mufassal bir ta'limot yarata olmaganlar. Bunga zarurat ham bo'lmagan. Ammo ular yuridik shaxs tavsifini (xarakteristikasini) ishlab chiqqanlar. Unga ko'ra:

- 1) korporatsiya (uyushma)larning mulki korporatsiya a'zolari mulklarining yig'indisi emas, balki o'zi bir butun mulk hisoblanadi;
- 2) korporatsiyaga yangi a'zolarining kelishi yoki ayrim a'zolarining undan ketishi korporatsiya uning yuridik huquqlariga ta'sir etmaydi;
- 3) korporatsiyaning qarzlari uchun uning a'zolari o'z mol-mulklari bilan javob bermaydilar;
- 4) korporatsiya o'zining homiylaridan yoki qarzдорlaridan olgan, undirgan mol-mulk uning a'zolariniki emas, balki faqat korporatsiyanikdir;
- 5) har qanday yuridik shaxs sud va davlat idoralarida uning ishlarini olib boruvchi vakiliga ega bo'lishi kerak.

Korporatsiyalarga turli hay'atlar, savdo, hunarmandlik va boshqa birlashmalar kirgan. Ularning faoliyatini tartibga soluvchi birinchi huquqiy

hujjat ularga rahbarlar va ulardan vakillar saylash haqidagi hukumat ko'rsatmasi bo'lgan. **Imperator Avgust** zamonidan boshlab xususiy korporatsiyalarni senat ruxsatisiz tashkil qilish taqiqlangan. Yer-mulki bo'lgan munitsipal shaharlar ham yuridik shaxs hisoblangan. **Imperator Konstantin** (313-y.) vaqtdan boshlab cherkovlar ham yuridik shaxs hisoblana boshlagan, qariyalar uylari, mehr-shafqat (xayriya) tashkilotlari ham xuddi shunday maqomga ega bo'lgan.

Nazorat uchun savollar

1. Rimda kimlar to'la huquqiy layoqatga ega sanalgan va ular qanday belgilarga ega bo'lishlari shart bo'lgan?
2. Rim fuqaroligini olish va yo'qotish tartibi qanday bo'lgan?
3. Rimda shaxsning muomala layoqati qanday tushunilgan?
4. Rim fuqarolarining qaysi tabaqalari muomalaga layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb hisoblangan?
5. Lotinlar va peregrinlarning huquqiy holatini aytib bering.
6. Rimda qullarning huquqiy holati qanday bo'lgan?
7. Libertinlar qanday huquqlarga ega bo'lganlar?
8. Kolonlar kimlar va ularning huquqiy maqomi qanday bo'lgan?
9. Yuridik shaxslarga qanday belgilar xos bo'lgan?

V BOB. RIM XUSUSIY HUQUQIDA OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR

1-§. Oila huquqi

Rim oilasi nihoyatda o'ziga xos bo'lgan. Shuning uchun Gay uni "favqulodda oila" deb atagan. Ota unda mutlaq hokim bo'lgan. Bolalari, nabira va abiralari uchun ham uning hukmi qat'iy bo'lgan. Xotin esa qizlar bilan teng huquqqa ega bo'lgan, xolos. Barcha oila a'zolari **sui**, ya'ni "o'zimizniki" deb yuritilsalar, ota – **sui iuris**, ya'ni "o'ziga o'zi xo'jayin" deb yuritilgan.

Rim oilasining ikkinchi xususiyati shundan iborat bo'lganki, unda qon-qarindoshlikka emas, yuridik vaziyatga, huquqiy aloqadorlikka qaralgan va bu "**agnatik**" holat deb atalgan. Ya'ni qon-qarindosh bo'lgan o'g'il-qizlar ham, qarindosh bo'lmagan xotin va asrab olingan farzandlar ham bir xil huquqqa ega bo'lganlar; oilada ularning mavqei bir xil bo'lgan.

Rim oilasining uchinchi xususiyati shundaki, oilaga, faqat agnatlar, ya'ni biz tushungan ma'nodagi oila a'zolarigina emas, balki qullar, uy hayvonlari, hatto jonsiz narsalar ham kirgan.

Oila a'zolarining yuridik holati otaning olamdan o'tishi yoki uning xohishi (biror o'g'lini o'z hukmidan ozod qilishi, qulni qo'yib yuborishi, qizini erga berishi kabilar) bilan o'zgarishi mumkin bo'lgan.

2-§. Kognatlar va agnatlar

"**Familiya**" (familia) degan rimcha so'zning birinchi ma'nosi uy xo'jaligini anglatgan. Keyinchalik uy xo'jaligiga ashyolarning, buyumlarning egalari, ya'ni kishilar ham qo'shila boshlagan. Otadan tarqagan qarindoshlar, farzandlar, shuningdek, ular bilan teng huquqli hisoblangan farzandlikka olingan bolalar ham agnatlar deb hisoblangan.

Ona tomondan qarindoshlar "kognat"lar deb atalgan. Bunga, avvalo, turmushga chiqish natijasida boshqa oilaga o'tib ketgan qizlar, akalarning singillari kiritilgan.

Shunday qilib, otadan keyin o'g'il barcha huquqlarni olgan, qiz esa boshqa oilaga o'tib, erining yoki qaynotasining ixtiyoriga (hukmiga) tushib qolgan. Bunda faqat ma'naviy qarindoshlik munosabatlari saqlanib qolgan, xolos. Biroq u hech qanday huquqiy ahamiyatga ega bo'lmagan.

3-§. Nikoh

Modestin nikohni “ilohiy va insoniy ittifoq” deb ta’riflangan bo’lsa ham, Rim huquqida xristianlardagi singari uni ilohiylashtirish bo’lmagan.

Nikohlar “**cum manu mariti**”, ya’ni xotin hukmronligidagi nikoh (Yustiniandan avvalgi davrda) va Modestin (III asr) zamonga kelib esa **sine manu**, ya’ni erkak hukmronligidagi nikohlarga bo’lingan. Nikohga kirish uchun **quyidagilar talab qilingan**: balog’at yoshiga yetish, o’zlarining va otalarining roziligi, har ikki tomonning bu ittifoq – nikoh ekanligini tushunib, doimo yodda saqlashi, birgalikda hayot kechirish, ayolning eriga vafodorligi. Nikohning quyidagi **uch xil marosimidan** qaysi birini tanlab olish nikohlanuvchilar, ularning otalari yoki boshqa homiylarining ixtiyorida bo’lgan:

1) non tishlash odati. Nonning qolgani Yupiterga sadaqa qilingan, ruhoniylardan tashqari, yana 10 nafar guvoh qatnashgan. Imperiya davrida bu odat faqat ruhoniylar orasida qo’llanilgan, plebeylarga ta’qiqlangan;

2) tarozu va mis yordamida amalga oshirilgan marosim. U besh kishining guvohligida o’tkazilgan. **Kuyov kelidan**: “Sen menga munosib materfamilias bo’lasanmi?”, – deb so’ragan. “Sen qayda bo’lsang, meni ham shundan topasan”, – deb javob bergan kelin. So’ng kuyov kelinning otasiga bir quyim mis bergan. U o’ziga yarasha qalin vazifasini o’tagan. Bu odat klassik davr oxirlarigacha davom etgan;

3) XII jadval qonunlarida rasmiy bo’lmagan, oddiy nikoh shakli haqida habar beriladi. Unga ko’ra, hayotini hech qanday rasmiy marosimsiz erkak bilan bog’lagan ayol unga tobelikdan ozoddir va xohlagan vaqtda ajrashib ketaverishi mumkin. Ammo u bir yilda uch kecha eri oldiga kelib turishi kerak bo’lgan. Agar ayol bu shartni buzsa, uning norasmiy nikohi rasmiylashtirilgan va u erkak tobeligiga tushib qolgan. Bunday nikohdan tug’ilgan bolalar ham rasmiy nikoh bolalariniki kabi huquqlarga ega bo’lganlar.

Xullas, nikoh qoidalarining asosiy vazifasi teng huquqli oila qurish emas, balki unda otaning mutlaq hukmronligini o’rnatish bo’lgan.

445-yilda **Kanuyel qonuni** qabul qilingunicha patriksiylar bilan plebeylar o’rtasida nikoh tuzish taqiqlangan. Rim fuqarosi bilan peregrinlar ozodlar bilan qullikdan bo’shatilganlar, ozod fuqarolar bilan qullar o’rtasida nikoh tuzish ham taqiqlangan. Qarindoshlar orasida esa amaki va jiyan, vasiy bilan uning himoyasidagi ayol o’rtasidagi nikohlar taqiqlangan. Nikohga kirishning eng kam yoshi qizlar uchun 12, yigitlar uchun 14 yosh qilib belgilangan. Keyinchalik xristianlar ham shuni qabul qilganlar.

Xulosa qilib aytganda, faqat quyidagi shartlarning bajarilishigina nikohga kirish huquqini bergan:

- 1) uy egalarining roziligi;
- 2) nikohlanuvchilarning roziligi;
- 3) nikohlanuvchilarning nikohlanish huquqiga egaligi (bu huquq faqat Rim fuqarolari orasida bo‘lgan);
- 4) nikoh yoshiga yetganlik;
- 5) boshqa nikohda bo‘lmaslik;
- 6) nikohlanuvchilarning qarindosh bo‘lmasligi.

Nikohning alohida turlari. Bunga konkubinat turini kiritish mumkin. Unga asosan har xil ijtimoiy tabaqalardan bo‘lgan erkak va ayol nikohlana olmaganlar, ammo birga yashashlari mumkin bo‘lgan. Ular orasida rasmiy nikoh marosimi o‘tkazilmagan. Ayol ham nikohdagi xotinlik huquqlaridan foydalana olmagan. Bunday benikoh yashash huquqiga faqat erkaklar ega bo‘lganlar. Ayollarda bunday huquq bo‘lmagan.

Peregrinlar orasidagi nikohlar ham nikohning shunday turiga kirgan. Chunki Rim qonunlari bunday nikohlarni ham rasmiy nikohga qo‘shmagan. Bunday nikohlar peregrinlarning o‘z qonunlari bilan tartibga solingan.

Nikohning tugatilish. Agar er-xotindan biri olamdan o‘tsa, qamalsa, huquqidan yoki fuqarolikdan mahrum etilsa, albatta, taloq vujudga kelgan. Rasmiy nikohlar faqat erkakning xohishi bilan bekor qilingan. Rasmiyatchiliksiz tuzilgan erkin nikohlar bir tomonning xohishi bilan buzilib ketavergan. Tantanali nikohlar faqat ruhoniylar orasida uzoq saqlangan, rasmiy bo‘lmagan oddiy nikoh shakli keng tarqalgan. Undagi “uzi”, ya’ni ajrashgan eri yoniga uch kun kelib ketish odati unutilgan. Klassik davrda esa taloq shakli ham o‘zgargan, nikohlar har ikki tomonning kelishuvi bilan ham, bir tomonning xohishi bilan ham buziladigan bo‘lgan. **Gay** “jahl ustida buzilgan nikoh adolatdan emas” deb ogohlantiradi.

Yustinian davrida nikohning tugatilishi sohasida ancha o‘zgarishlar bo‘lgan. U nikohning bekor qilinishiga olib keladigan quyidagi sabablarni belgilab bergan: xotinning eriga nisbatan xiyonati, qo‘shmachilik bilan shug‘ullanish, davlatga xiyonat qilish, sog‘liq masalasi, monastirga ketish. Keyinchalik mazkur ko‘rsatmalar xristianlarning qonunlari, **Napoleon kodeksi** va boshqalarga asos qilib olingan. Beva qolgan xotin bir yillik idda saqlashi lozim bo‘lgan. **Imperator Avgust** farmonlariga binoan, eri o‘lgan tul xotin ikki yildan so‘ng, eridan ajrashganlar esa 18 oydan so‘ng yangi-

dan turmush qurishlari, boshqa erkak bilan nikohlanishlari mumkin bo'lgan.

Yetimlar haqini himoya qilish maqsadida, oila mol-mulkiga tegish, ya'ni ularni sotish yoki yangi eriga hadya qilish ham ta'qiqlangan.

4-§. Er-xotinning mulkiy munosabatlari

“**To'g'ri**” va “**noto'g'ri**” nikohlarda ayol ahvolining qanday bo'lishi haqida yuqorida gapirilgan edi. Xotin har qanday huquqdan mahrum, eriga tegishli ashyolar qatorida bo'lgan. Ba'zan oilaviy kengash chaqirilib, xotinning qarindoshlari ham taklif etilgan, ammo qarorni er chiqargan, u nima desa, shu bo'lgan.

Xotin agnat sifatida eriga merosxo'r, bolalari bo'lsa, ular bilan birga merosxo'r hisoblangan. O'qimishli, ziyoli yoki badavlat ayollar er asoratiga tushib qolmaslik uchun “noto'g'ri” nikohni tanlaganlar. Shu tariqa noto'g'ri nikohlar ko'paya borgan, patriarxal oilalar yemirilib, kamaya borgan. Voyaga yetgan o'g'illar ham bosib olingan viloyatlarga ishga ketib, ota zulmidan qutilishga harakat qilganlar, ya'ni pekuliy olganlar.

Klassik yuristlar davriga kelib er-xotinning mulkiy holati baravrlashtirib qolgan. Ular nikohga kirishdan avval ega bo'lgan mulklarini o'zlariniki hisoblab, saqlab kelganlar. Er-xotin oralarida o'z mulklarini sotish, almashish kabi ishlarni ham (hadyadan tashqari) qilish mumkin bo'lgan. Hadya qilish haqida digestda: “Er-xotinlik sof sevgi-muhabbat, ko'ngil moyilligi asosida bo'lishi kerak, hadya esa bu asosga dog' tushiradi”, – deyilgan, tamagarlikka olib boradi deb salbiy baholangan. Ammo sovg'a qilishning boshqa tomoni ham bor: xotiniga yoki qiziga hadya bergan shaxs bu sovg'alarning bolalariga va nabiralarga o'tishini ham nazarda tutgan.

Klassik davrda ayol kishi erining ruxsatisiz ko'chmas mol-mulk savdosiga, qarz berish va shunga o'xshash ishlarga aralashmagan.

Dos(Sep). Bizning tushunchamizdagi kelinning sepi rimliklarning parapherna tushunchasiga mos, chunki unda sine manu nikohidagi ayolning mulki nazarda tutiladi va ayol bu mulkni o'zi boshqarishi mumkin bo'lgan. Shu bilan birga, mulkni eri (yoki pater familias) ham boshqarishi, undan olingan daromadni esa oilaga ishlatishi mumkin bo'lgan. Mulk nobud bo'lsa, culpa concreto (beparvolik aybi) yuzaga kelgan.

Dos esa – kuyovga beriladigan sep bo‘lib, kuyovning nikohdagi hayotini yengillashtirish uchun berilgan (U katta miqdordagi pul, yer maydonlari, podalar va boshqa qimmatbaho narsalar bo‘lishi mumkin bo‘lgan).

Otalar farzandlarini uylantirish haqida gaplashganlarida sep masalasi ham kelishib olingan. Sep kelinning boshqa buyumlaridan, chunonchi, keyinchalik sotib olgan, sovg‘a sifatida kelgan narsalaridan doimo ajralib turgan va endi erining mulki bo‘lgan. Xotinlarning eridan badavlatroq bo‘lish hollari ham ko‘p bo‘lgan.

Sep berish odati qadimiy odat bo‘lib, uning kelib chiqishi XII jadval qonunlaridan oldin bo‘lgan. Patriitsiyalar plebey qizlariga uylanish huquqiga ega bo‘lmaganlar. Ammo kambag‘allashib qolgan patriitsiy oilalari ishi yurishib, boyib borayotgan plebey oilalari bilan qudalashishga tayyor bo‘lgan. Bunday erlarning plebey xotinlarini qo‘yib, undan qolgan sep bilan boshqa xotinga uylanish hollari ko‘p bo‘lgan.

Buning oldini olish uchun sep qoidasiga o‘zgartish kiritilgan. Eri o‘lgan yoki erining tashabbusi bilan ajrashgan xotinlarga ularning sepi qaytarib beriladigan bo‘lgan. Keyinchalik pretorlar huquqi davrida ushbu holat yanada mustahkamlangan. Agarda ajrashish xotin tashabbusi yoki uning aybi bilan sodir bo‘lsa, sep erkakka qoladigan bo‘lgan. Ammo er ajrashish ro‘y bermasdan oldinroq ham sepga kelgan mulkni yo‘q qilib yuborishi, tasarruf etishi mumkin bo‘lgan. Buning oldini olish uchun 18-yil qonuni chiqqan. Unga binoan, er sep sifatida kelgan mulkni xotining roziligisiz sotishi va boshqacha yo‘llar bilan tasarruf etishi taqiqlangan.

Imperator Yustinian (VI) davrigacha sep masalalari huquqiy kategoriyalardan ko‘ra ko‘proq axloq-odob kategoriyasiga kirgan. Sep erakakning mulkiga aylanishi nazarda tutilib, nikoh boshidayoq erkak ma‘lum sharoitlar (masalan, bolasizlik) yuz bergan taqdirda sepnini qaytarib berish haqida tilxat yozgan. Mil. av. III asrga kelib noto‘g‘ri nikohlar ko‘payishi natijasida sepga qarash ham o‘zgargan. U endilikda faqat erkakning emas, balki butun oilaning mulki deb hisoblana boshlagan. Bundan agar ajralish yuz bersa, sep ayolga qaytarilishi lozimligi kelib chiqar edi. Ayol tul qolganda ham shu qoidaga amal qilingan. Ko‘pincha erga sepning asosiy qismini tashkil qilgan yer maydonini tasarruf etish taqiqlangan.

5-§. Ota-onalar va farzandlarning huquqiy munosabatlari

Qadimgi Rimda otaning farzandlar ustidan mutlaq hukmron bo'lganligi haqida yuqorida gapirildi. Farzand ota ixtiyoriga uch yo'l bilan tushganlar: undan tug'ilgan yoki asrandi bo'lgan (farzandlikka olingan) yoxud qonunlashtirib olingan (o'zining nikohsiz tug'ilgan bolasi). **Imperator Mark** qonuniy nikohdan tug'ilgan bolalar haqida 30 kun ichida ommaviy e'lon qilishni talab qilgan va ularni yozib borishni joriy etgan (121–180).

Asrab olish, farzandlikka olish – qadimdan qolgan va barcha xalqlarga mansub odat. Rim tarixining keyingi davrlarida asrab olish siyosiy, dinastik yoki iqtisodiy maqsadlarda amalga oshirilgan. Asrandilik orqali plebey patriitsiyga, kohin senatorga aylanishi mumkin bo'lgan.

Rimda asrandi olishning ikki xil usuli bo'lgan:

1) birinchi usul huquqiy layoqatga ega kishilarga taalluqli bo'lib, unda ular uchun kurit majlisi chaqirilgan va unda oliy ruhoniy (kohin) "falonchining ustidan otalik hokimiyatini o'rnatishni" taklif etgan (**patria potestas**), shundan so'ng farzandlikka olinuvchi tobelikka tushgan (sui iuris).

Xalq yig'inlari barham topgan davrdan boshlab bu usulni ham qo'llab bo'lmagan. **Imperator Dialektian** (243–316) bu usulni qonun kuchiga ega bo'lgan imperator raskripti bilan almashtirish haqida farmon bergan;

2) ikkinchi usul o'z otasi bo'lgani holda biror sababga ko'ra boshqa oilaga o'tadiganlar uchun joriy etilgan. Unda **adoptatsiya (adoptio)** yo'li qo'llanilgan. Bunda berilayotgan bolaning otasi uni oluvchi kishining vakiliga uch marotaba sotgan. Farzandlikka oluvchi bolani ikki marta qo'yib yuborgan, faqat uchinchi martasida ishga aralashgan va soxta da'vo yo'li bilan bolaga nisbatan otalik huquqiga (**Patria potestas**) erishgan. Kichik o'g'illar, nabiralar va qizlar uchun bir marta sotishning o'zi yetarli bo'lgan.

3) qonunlashtirish usuli faqat imperiya vaqtida qo'llanadigan, e'tiborga olinadigan bo'lib, konkubinlardan bo'lgan (har xil nikohsiz tug'ilgan) bolalarga nisbatan qo'llanilgan. qonunlashtirishning eng oddiy yo'li – bolaning onasini nikohlab olish bo'lgan.

Yana boshqa ikki usul ham qo'llanilgan: a) imperator reskripti – bu kamdan-kam odamga nasib etgan; b) mahalliy tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan va bolaga oid mulkiy senz (cheklangan mulkni tayinlash) orqali.

Onalarga kelganda, ulov bolalarga egalik huquqiga ega bo'lmaganlar, ular ustidan hukmronlik qilmaganlar. Ammo bu qoida susayib borgan sayin onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro majburiyatlar va huquqlar vujudga kelgan, II asrdan boshlab esa bir-birlariga nisbatan merosxo'r voris sifatida tan olinganlar.

Otaning mutlaq huquqini zolimlik deb tushunish ham to'g'ri emas, otalar ham bizning davrimizdagi kabi har xil bo'lganlar. Ko'pchiligi o'z farzandlariga mehribon bo'lganlar. Odatga ko'ra, ota o'z qaramog'idagilardan birini qattiq jazolashi kerak bo'lganda, oila kengashi chaqirilgan. Bu qoida bajarilmasa, senzor aralashgan.

Respublikaning oxiri, imperiyaning boshlanish davrlaridan boshlab patriarxal oila asoslari buzila boshlagan, avvalo, yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tashlab yuborish taqiqlangan, so'ngra bolalarni sotish cheklangan. II asrdan boshlab esa o'g'ilning ota hukmidan chiqish uchun imperiya hokimiyatiga murojaat etishiga ruxsat berilgan, otaning o'z farzandlarini qatl qilish huquqi cheklangan va taqiqlangan.

Balog'atga yetgan o'g'illar oila mulkini bo'lib olishga harakat qilganlar va o'z mulklariga o'zlari egalik qila boshlaganlar, yuqorida qayd etilgan **pekuliylar** paydo bo'lgan. Pekuliylilikni olgan o'g'il iqtisodiy mustaqillikka erishgan. Paterfamilias pekuliya bergan mulkini qaytarib olishi mumkin bo'lgan, ammo buning uchun juda asosli sabablar bo'lishi talab etilgan. Pekuliylar vasiyatnoma qoldirmay vafot etgandagina ota uning mulkini o'zining, oilaning mulkiga qo'shib olishi mumkin bo'lgan.

6-§. Emansipatsiya

Emansipatsiya(bo'shatish, ozod etish). Paterfamiliasning o'g'illari, qizlari va nabiralari emansipatsiya ob'yektlari bo'lganlar. Ularning otalari beshta guvoh huzurida ularni ozodlikka chiqarib yuborishlari mumkin bo'lgan va bunda ular to'la huquqli fuqarolarga aylanganlar.

Agarda ozodlikka chiqqan biror o'g'il o'z otasiga yoki boshqa otaga qaytib kelsa, uni qaytarib olish mansipatsiya deyilgan va u ham beshta guvoh ishtirokida amalga oshirilgan.

Qadimgi Rimda mis ma'dani pul o'rnida yuritilgan va uni tarozida tortib, og'irligi bo'yicha baholaganlar, keyinchalik mis asslari paydo bo'lgach, tortib olish ramziy xususiyatga ega bo'lgan.

7-§. Vasiylik va homiylik

Vasiylikni qalbaki otalik ham deydilar. Chunki vasiy ham vasiylikka olinganlar va ularning mol-mulki ustidan ota singari huquqlarga ega. Faqat vaqt o'tishi bilan vasiyning bunday qat'iy huquqlariga boshqacharoq qarala boshlangan. Ular ustidan vasiylik ostidagi bolalar foydasiga nazorat olib borila boshlangan. Davlat tomonidan tayinlanadigan vasiy eng yaqin **agnat** maqomini egallagan. Paterfamilias oila mulkini asrab-avaylashga yoki uni ishlatishga qodir bo'lmay qolgan paytlarda vasiylik qo'llanilgan. XII jadval qonunlaridayoq ayollarning mol-mulkni o'z xohishlari bo'yicha tasarruf etishlari taqiqlangan. Balog'atga yetmagan bolalar ham xuddi shunday. Ularga yo otaning vasiyatiga qarab, yo ommaviy hokimiyat tomonidan vasiy tayinlagan.

Agnatik vasiylik Yustinian davrigacha davom etgan, so'ngra kognatik, ya'ni qarindoshlik vasiyiligi qo'llanilgan. Ayollar ustidan vasiylik esa ramziy xususiyatga ega bo'lib qolgan. Ilk respublika davrida vasiylikni qarindoshlar va **kuriat** (xalq) majlislari nazorat qilganlar, hokimiyat bunda kam qatnashgan. Ammo respublika davrining o'rtalariga kelib davlat amaldorlari nazoratni o'z qo'llariga olganlar, chunki bu paytda vasiylarning tartibbuzarliklari avjiga chiqqan. Vasiylarning o'zlari ham bemorlik, qarilik va boshqa sabablarga ko'ra vasiylikdan bosh tortishlari mumkin bo'lgan.

Vasiylarning o'z qaramog'idagilarga yetkazgan mulkiy zararlari undirib beriladigan bo'lgan. **Imperator Konstantin** zamonida vasiylarning mol-mulki vasiy qaramog'idagilarga garov qilib tayinlanadigan bo'lgan. Bu mulk vasiy mulki hisoblangan, ammo uning bir qismi yoki hammasi vasiylikdagi shaxslarga mulk qilib berilishi ham mumkin bo'lgan. qonun bo'yicha, bir yoki bir necha vasiylar bir yo'la tayinlanishlari va vasiylikni ijro etishlari ham mumkin bo'lgan. Bunday vaziyatda ulardan biri boshliq bo'lgan. Vasiylikdagi shaxs balog'atga yetgach, vasiylik tugatilgan va agar vasiy uning mol-mulkiga yoki boshqa narsasiga zarar yetkazgan bo'lsa, da'vo ko'rib chiqilgan. Xotin-qizlarga vasiylik ham yosh bolalarga vasiylik singari bo'lgan, ammo agarda ular turmushga chiqmasalar, umrlarining oxirigacha vasiyga tobelikda qolganlar.

Imperiya davridan boshlab ayollarga nisbatan vasiylik tartibi yumshatila boshlagan. **Imperator Klavdiy** zamonidan boshlab uch nafar bola tuqqan xotinlar ozod etila boshlagan.

Qadim zamonlardan vasiylik bilan birga, homiylik ham joriy etilgan. O'z mulklarini idora qilishga jismoniy jihatdan ojiz yoki 25 yoshga yet-

magan va boshqalarga homiylar tayinlangan. Vasiy o'z vazifasini bajara olmagan taqdirda ham homiy tayinlangan.

Nazorat uchun savollar

1. Qadimgi Rim oilasining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat bo'lgan?
2. Qadimgi Rimda nikoh qanday tuzilgan?
3. Qanday sharoitlarda nikoh bekor bo'lgan?
4. Er-xotinning mulkiy munosabatlari qanday bo'lgan?
5. Ota-onalar va bolalarning huquqiy munosabatlari qanday tartibga solingan? -
6. Vasiylik va homiylik qanday bo'lgan?
7. Otalik hokimiyati qanday tugatilgan?

VI BOB. RIM XUSUSIY HUQUQIDA MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIIY HUQUQLAR

1-§. Ashyoviy huquq

Jahon tarixida xususiy mulkchilik huquqini ishlab chiqishga rimliklar ulkan hissa qo'shganlar. Ular xususiy mulkni hech bir ideallashtirmay va ilohiylashtirmay, hayotda qanday bo'lsa, shundayligicha tavsiflaganlar. Bu huquq ularga ashyolardan foydalanish va ularga hukmronlik qilish, ashyolarni o'z xohishlariga ko'ra tasarruf etish huquqini bergan.

Rimliklarning: "Ashyolardan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, hatto ularni yo'q qilishgacha bo'lgan huquqi", degan iborasi xususiy mulkchilikning klassik ifodasi bo'lib xizmat qildi.

Engels: "Rim huquqi – sof xususiy mulkchilik hukmronlik qilgan jamiyat hayotiy sharoitlarining va kelishmovchiliklarining klassik ifodasi", degan fikrni aytib o'tgan. "Keyingi feodal qonunlari ham, burjua qonunlari ham unga arziqli o'zgarish kiritmaidi", – deydi u davom etib.

"Ashyo" tushunchasi. Rim yuristlari ham biz ashyo hisoblagan narsalarni ashyo hisobiga kiritganlar. Ularning fikricha ham, ashyo yoki narsa ma'lum hajmga vaznga ega bo'lib va muayyan makon (joy)ni egallab turishi kerak (Masalan, yer, suv, turar joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy anjomlari va boshqalar). Ular inson ixtiyoridan tashqaridagi ob'yektlarni (ya'ni havo, oy, quyosh kabilarni ashyo hisobiga kiritmaganlar.

Rim huquqida egasiz narsalar bo'lganidek, jismsiz narsalar ham bo'lgan. Chunonchi, biror kishining meros huquqi, ammo bu huquq amalga oshmay, ya'ni unga tegmay qolishi mumkin (amalga oshmagan servitut va uzufukt huquqlari kabi). Agar bir kishi boshqa kishining yeridan o'z mollarini haydab o'tish huquqini olgan bo'lsa, unda bu jisimli ashyo buladi, ammo u shu yer egasining yordamisiz haydab o'tolmasa unda vujudsiz ashyo huquqi bo'lib qoladi.

Muomaladan chiqarilgan ashyolar. Diniy muassasalar, masjid, ibodatxonalar, qabriston buyumlari va boshqalar muomalaga kirmaydigan ashyolar hisoblangan. Romul podsho davrida Rimda qurilgan (hozirda saqlanib qolmagan) devorlar ham, muqaddas hisoblangan daryolar va, umuman, oqar suvlar, umumiy yo'llar, hammomlar, sport zallari, ommaviy zallar ham muomaladan tashqaridagi mol-mulklar hisoblangan.

Muomaladagi ashyolar. Biz mulkning qo'ldan-qo'lga o'tishi (mansipatsiya) haqida yuqorida gapirgan edik. Ammo qo'ldan-qo'lga

o'tadigan ashyolar ma'lum bir tartibda tanlangan. Bunda Rimning yer jamoalarining o'ziga xos jihatlari o'z ifodasini topgan, chunki hali bu davrda imperiyaning (hokimiyatning) ishlab chiqarish qurollariga (xususan, yerga) bo'lgan huquqi saqlanib qolgan.

Rim imperiyasida mansipatsiya qilinadigan narsalarga yer, qullar, ish hayvonlari, ya'ni urush yo'li bilan, rimliklar jamoasining barchasi qatnashib (svitas) qo'lga kiritilgan narsalar kirgan. Ular Rim jamoasining barcha a'zolari hisoblanib, chek tashlash yo'li bilan o'rtada taqsimlangan. Yer xalqning umumiy mulki hisoblanib, ko'p marotaba qayta taqsimlashlarga duchor bo'lgan.

Ko'char va ko'chmas mulk. Rim huquqida ko'chib yurishi mumkin bo'lgan "ko'char" va qo'zg'atish mumkin bo'lmagan "ko'chmas mulk" tushunchalarining ahamiyati katta bo'lgan. Ko'chmas mol-mulkka rimliklar, avvalambor, yerni va undagi inshootlarni, dov-daraxtlarni kiritganlar. "Nimaiki yer ustida yaratilgan bo'lsa, yer bilan birga bo'ladi" degan prinsip asosida ish ko'rilgan. Ko'char ashyolarga barcha o'zi yurar yoki jismoniy xususiyatlariga zarar yetkazmagan holda ko'chirish mumkin bo'lgan narsalar kiritilgan. Kutubxona, omborxona kabilarni mulkning qaysi turiga kiritish haqidagi bahs-munozaralar hozirga qadar davom etmoqda. Xususan, butun kutubxonani bir ashyo hisoblash kerakmi yoki uning har bir kitobinimi, degan tortishuvlar bunga yaqqol misoldir.

Ashyolarni ko'chmas yoki ko'char deb ajratish masalasi ularni qo'lga kiritish muddatlari masalasini aniqlashda ham katta ahamiyatga ega.

Iste'mol qilinadigan va iste'mol qilinmaydigan ashyolar. Rim huquqi ashyolarni ikki turga bo'lib qaragan. Ularning bir qismi foydalanish natijasida tugab ketadi yoki tamom bo'lib qoladi (masalan, oziq-ovqatlar yoki pul (birovga o'tib ketadi) va h. k.). Ikkinchi xil ashyolar borki, ular tamom bo'lmaydi yoki asta-sekinlik bilan yemirilib boradi (masalan, kiyim-kechak, imoratlar, ish qurollari, bezak mollari va boshqalar).

Bo'linar va bo'linmas ashyolar. Ulpianning ko'rsatishicha, bo'linish, maydalash natijasida o'z xususiyatlarini yo'qotmaydigan narsalarni bo'linmas ashyolarga kiritish kerak (masalan, yer va uning beradigan mahsulotlari, rudalar va h. k. Ammo bo'linmas narsalarni ham, agar u bitta bo'lsa, o'rtada kelishib bo'lib olish mumkin. Masalan, uch o'g'ilga bir sigir meros qolgan bo'lsa, biri sigirni, qolgan ikki nafari o'z hissalarini pul shaklida olishlari yoki kelishib olingan, ma'lum vaqt

davomida undan galma-gal foydalanishlari mumkin (uydan ham, ko‘ldan ham va h. k.).

Oddiy va murakkab ashyo. Pomponiy uning klassik ta’rifini bergan:

1. Oddiy ashyolar bir butun bo‘ladi (masalan, qul yoki bir yog‘och kabi).

2. Murakkab ashyolar ikkiga bo‘linadi: a) Boshqa bo‘laklardan yig‘ilgan (uy, kema kabi); b) bir nom ostida birlashgan, ammo bir-biriga qo‘shilmas alohida narsalardan yig‘ilgan (masalan, mollar podasi kabi).

Murakkab ashyolarning turi ko‘p bo‘lib, ular yuzasidan yuridik qaror qabul qilish ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Masalan, bir poda qo‘yni garovga olib, qarz bergan kishi qarz qaytariladigan vaqtgacha qo‘ylarni olgan holatida saqlab turishi kerak bo‘lgan. Bu esa oson emas (ularni bo‘ri tortib ketishi, o‘g‘irlanishi yoki kasallik tegib qirilib ketishi mumkin).

Xususiy va turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar.

Ashyolar yo‘qolsa, shikastlansa yoki sinsa buning uchun amalga oshiriladigan to‘lov masalasidagi nizolarda ularning o‘xshashligi yoki o‘zigagina xosligi masalasi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Olish-sotishda og‘irligiga, hajmiga yoki soniga qarab o‘lchanadigan ashyolar turga xos alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar hisoblangan. Masalan, birovga pul berilsa, o‘sha pullarning o‘zi talab qilinmaydi, balki miqdoriga qarab olinadi. Ammo birovga idish berilsa, xuddi o‘zi talab qilinadi, shu bois bu xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyo hisoblanadi. Bunday narsa sinsa yoki yo‘qolsa, uni qaytarish masalasi qiyinlashadi, sud uning qiymatini bosa oladigan narsa bilan qoplashni talab etadi va h.k.

2-§. Egalik

Ashyoga amalda xo‘jayinlik yoki hukmronlik qilish, qo‘lda saqlab yoki ushlab turishga egalik (possessio) deyilgan. Bu tushuncha “mulk”, “mulkdor” tushunchalaridan ilgari ma’lum bo‘lganligi tufayli Rim yuristlari bu haqda alohida ta’limot yaratganlar. Bu ta’limot shunchalik mukammal bo‘lganki, “mulkdorlik” va “egalik” tushunchalari orasida hech qanday umumiylik yo‘q (**Nihil commune habet proprietatis cum possessione**) degan gapda ham asos bor. Modomiki, shunday ekan, so‘z qandaydir vaqtinchalik emas, balki doimiy egalik haqida boradi. Egalik qilingan ashyo faqat shaxs qo‘lida bo‘ladi, doimiy ravishda shaxsni bo‘lishi kerak. Ba’zi birovlar ashyoni o‘ziniki qilib yurib, “oxiri meniki bo‘lib ketar” deb umid qilsalar ham, uning egasi hisoblanmaydilar.

Shuningdek, o'g'irlab olingan ashyolar ham to egasi topilmaguncha egasiz bo'ladi, vaqtincha olib yurgan kishi uning egasi hisoblanmaydi.

Qadimgi Rimda yer taqchil bo'lgan. Shu bois yer umumxalq mulki hisoblangan. Uning bo'sh yotishi barchaning manfaatiga zid bo'lgan. Shuning uchun ham egasiz, tashlandiq yotgan yoki egalari qaramay qo'ygan yerlarni egallab olib, ishlash va obod qilish avj olgan. Agar yangi xo'jayin yerni ikki yil yaxshi ishlab, obod qilsa, egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat yetgan hisoblangan. Ko'char mol-mulkka nisbatan ham bu qoida qo'llanilgan, ammo bunda muhlat ikki yildan bir yilga tushirilgan. Demak, "egalik" ikki jihat bilan belgilangan:

- a) ashyoga amalda xo'jayin bo'lish;
- b) shu narsaga xo'jayin bo'lish istagi.

Agar bulardan bittasi bo'lmasa ham, egalik huquqi tasdiqlanmagan. Buning uchun quyidagilarni inobatga olish kerak bo'lgan:

1) bu buyumlar xuddi marhumning o'z mulkidek vorislarga to'g'ridan-to'g'ri meros huquqi bilan o'tmagan;

2) insofli asosda egalik qilayotgan odamni egalik ostidagi ashyoga egalik huquqini zo'rlik bilan buzilganda o'z huquqini himoya qilib da'vo bildirishga haqli;

3) asirlikdan qaytish ashyolarga egalik huquqini mulk huquqi kabi o'z-o'zidan tiklamagan;

4) xususiy mulk huquqi da'vo bilan himoyalangan, ashyoga egalik esa interdikt bilan va sud orqali tiklangan.

Shaxs egalik huquqini boshqa kishi orqali ham qulga kiritishi mumkin bo'lgan, buning uchun:

a) uning vakilida shu narsani olish uchun berilgan to'liq vakolat bo'lishi kerak bo'lgan. Bu vakolat qonunan, ya'ni vasiylikdan yoki vorislikdan yoxud alohida shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan;

b) vakilda ashyoni o'zi uchun emas, boshqa birov uchun olish istagi bo'lishi lozim bo'lgan.

Ushbu ikki holatning bo'lishi vakil orqali egalik huquqini olishga imkon bergan.

Ushlab turish. Buyumlarni qo'lda ushlab turish, ularga egalik qilishdan farq qilgan. Masalan birovning xonadonini ijaraga olgan kishi unga xo'jayinlik qiladi, uni yasatishi ham, tuzatishi ham, birovni kiritishi yoki kiritmasligi ham mumkin va h. k. Ammo u hali bu mulkning mulkdori ham, egasi ham emas.

Qadimgi Rimda mulk egasi bunday ashyo bo'yicha o'z huquqini himoya qilish uchun pretorga murojaat qilishi mumkin bo'lgan, ammo

ashyoni ijaraga olgan kishining bunga haqi bo'lmagan. Chunki u ashyoni vaqtincha qo'lida ushlab turuvchi hisoblangan. Ammo agar narsa saqlab berish yoki bir joydan ikkinchi joyga olib borib berish uchun berilgan bo'lsa, u vaqtda ashyoni olganlar ushlab turuvchi huquqiga ham ega bo'lmaganlar, chunki ular bu ashyodan foydalana olmaganlar. Birovning iltimosiga ko'ra vaqtincha foydalanish uchun berib turilgan yer "prekar yeri" deyilgan va bu holda ham pretor yerni olgan kishining emas, yer egasining huquqlarini himoya qilgan.

Egalik huquqining turlari. Biz yuqorida egalik bevosita va bilvosita turlari bilan tanishdik. Rim yuristlari, bundan tashqari, yana egalikning sivil turini ajratganlar. Egalikning bu turi XII jadval qonunlarida ham ko'rsatilgan. Bu turdagi egalik umumjamo'a yerlaridan bir qismini egallab olish bilan bog'liq bo'lib, shaxs unda ikki yil ishlaganidan keyin yer unga egalik huquqida berilgan. Pretor faqat bunday mulk egasinigina emas, balki uni foydalanishga olgan shaxslarni ham himoya qilgan. Rimda: "Maza-maza shularniki" degan gap ham yurgan. Demak, egalik asosan defakto tan olingan. Chunki ashyoga egalik qilib turgan odamning boshqalarga nisbatan huquqi ko'proq hisoblangan.

Egalik ham qonuniy, ham g'ayriqonuniy bo'lgan. XII jadval qonunlariga asoslangan egalik qonuniy va insofli egalik hisoblangan. Unga to'g'ri kelmaganlari esa (masalan, birovning yerini egasi yo'g'ida bosib olish va h. k.) g'ayriqonuniy va insofsiz egalik hisoblangan.

Egalik huquqining boshqa kishiga o'tishi. Ashyolarning qo'ldan-qo'lga o'tishiga doir son-sanoqsiz huquqiy qoidalarni keltirish mumkin. Ulardan eng muhimlari yerning boshqa kishiga (masalan, merosxo'rning qo'lga) o'tishi haqidagilardir. **Sivil huquqi** bo'yicha merosxo'rning egalik huquqi bo'lmagan, chunki u birinchi bo'lib ushbu buyumni qo'lga kiritmagan. Faqat pretorgina o'z buyrug'i bilan bu huquqni unga berishi mumkin bo'lgan.

Vaqt o'tishi bilan bu hol qonunlashtirilgan va "buyumga uzoq muddatli egalik huquqi bo'lgan kishi o'lsa, o'sha davr uchun uning merosxo'ri ham egalik qiladigan" bo'lgan. O'g'irlagan va kuch bilan tortib olingan narsalarga egalik huquqi (qancha vaqt o'tsa ham) berilmagan.

Egalik huquqining himoyalaniishi. Rimda egalik huquqi alohida himoyaga ega bo'lgan. Avvalo mulkka egalik huquqining mavjudligi va uning buzilganligi aniqlangan (possessorium), so'ngra egalik da'volari bilan emas, balki interdiktlar bilan himoya etilgan. Interdiktarning mulkni a) ushlab qolish va b) yo'qotilganini qaytarib berish kabi turlari bo'lgan. Mulkni ushlab qolish uchun beriladigan interdiktlar ham ikki xil bo'lgan:

1) ko'chmas mulkni ushlab qolish uchun beriladigan interdiktlar va 2) ko'char mulklar himoyasi uchun berilgan interdiktlar.

Mulkni qaytarib olish interdiktleri ham asosan ikki xil bo'lgan:

– **unde vi** interdikti ko'chmas mulkidan zo'rlik bilan mahrum qilingan shaxslarga berilgan. Javobgar kishi yerni va uning barcha hosilini to'liq qaytarib berishi kerak bo'lgan;

– **de precario** interdikti o'z mulkini boshqa birovga talab qilib olguncha, ya'ni vaqtincha bergan, ammo olgan kishi qaytarishdan bosh tortgan hollarda qo'llanilgan.

Interdiktlerden tashqari, yana **actio in rem publiciana** degan da'vo ham bo'lgan. Bu da'vo mulkning belgilangan muddati o'tishi munosabati bilan qaytarib olishga haqli kishilar huquqini himoya qilgan. Uni pretor amalga oshirgan.

Egalik huquqining bekor bo'lishi. Egalik ikki holda: 1) ashyoning o'zi yo'qolgan, nobud bo'lganda yoki 2) egasi ashyodan voz kechgan, unga ehtiyoji qolmagan holda tugatilgan. Agar ashyoning yo'qolishida egasi aybdor bo'lmasa, (masalan, ishlanmay o't bosib yotgan yerni birov bosib olsa), unda pretor egasining tarafini olib, egalik huquqini tiklab bergan. Egalik qilgan kishining o'limi bilan ham egalik tugagan. Ammo uning vorislari pretorga murojaat etib, ushbu ashyoga egalik huquqini olishlari mumkin bo'lgan.

3-§. Mulk huquqi

Rim huquqida mulk lotincha "**dominium**" so'zi bilan ifodalangan. Bu so'z "bo'ysundirilgan", "rom qilingan", "qo'lga olingan" ma'nolarini anglatgan "**domare**" so'zidan olingan bo'lsa kerak. Birovning mulkiga aylangan ashyo yoki buyum "**proprietas**" (**proprietates**) deb atalgan.

Respublikaning oxirgi davrida faqat Rim fuqarolarigina bu huquqqa ega bo'lganlar. Mulk huquqining asosiy ko'rsatkichi mulkka mutlaq xo'jayinlik va uning taqdirini hal qilish huquqlarining qo'shilishidir.

Qadimgi Rimda mulk huquqi quyidagilar bilan belgilangan:

- 1) ashyoga bevosita xo'jayinlik, hukmronlik qilish;
- 2) ashyoga boshqa kishilarning har qanday da'vosi va haq-huquqini istisno qiladigan maxsus huquqning mavjudligi;
- 3) qonunda ko'rsatilganlaridan tashqari hollarda ashyoga bo'lgan to'liq, cheklanmagan, mutlaq huquq;
- 4) xo'jayinlikning, hukmronlikning sharoitga yengil moslanishi;
- 5) ashyoga qonuniy haqdorligi;

6) mulk egasining ashyodan hamda u keltirgan hosil va daromadlardan foydalanishga bo'lgan to'liq va bevosita hokimiyatga ega bo'lishi.

Rim xususiy mulkchiligida yerga bo'lgan huquq boshqa barcha huquqlardan ustun turgan.

Yer va yer uchun kurash. Jamiyat iqtisodiyotining asosiy qismini agrar soha tashkil qilgan paytlarda yer masalasi juda muhim bo'lgan va u eng qimmatli mulk hisoblangan. Shu bois turli siyosiy kurashlar bilan birga, yer uchun kurash ham avj olgan: uni taqsimlaganlar, qayta taqsimlaganlar, kimlargadir berganlar, kimlardandir tortib olganlar va h. k.

Yer haqida doimo turli qonunlar, farmonlar chiqib turgan. Biz qadimiy davrlar haqida gapirmasak ham, keyingi davrlar qonunlaridan quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin: **Litsiniy-Sekstiy qonuni** (mil. av. 3–7 y.) fuqarolarga (patritsiylarga ham) 500 yuger (125 ga) dan ortiq yerga ega bo'lishni taqiqlangan. Jamoat yerlarida 100 boshdan ortiq mol boqish ham ta'qiqlangan. **Flaminiy qonuni** (mil. av. 228 y.) Shimoliy Italiya jamoa yerlarini muhtoj kishilarga bo'lib berishga ruxsat etgan. **Liviy qonuni** (mil. av. 89 y.) Italiyada bo'sh yotgan yerlarni kambag'allarga bo'lib berish haqida bo'lgan.

Mayda yer egalari bilan katta zamindorlar orasidagi kurashning qizishiga **Tiberiya Grakx** islohoti (mil. av. 133 y.) sabab bo'lgan. Bunda davlat yerlarini bosib olish ta'qiqlangan, bir kishi uchun ilgarigidek 500 yuger qoldirilgan, ammo voyaga yetgan o'g'illari bo'lsa, ularga 250 yuger qo'shib beriladigan bo'lgan. Ammo oilaning umumiy yeri 1000 yugerdan oshmasligi kerak bo'lgan. Ortiqchasi 30 yugerdan qilib kambag'allarga bo'lib berilgan.

Bu qonun senat arboblarning qarshiligiga uchragan, chunki ular orasida katta yer egalari – proessorlar ko'p bo'lgan. Rim tarixchisi **Apian** bu davr haqida: “Boylar yerni bosib oldilar, kambag'allar esa bola-chaqasini boqish uchun mablag'siz qoldilar”, – deb yozgan edi. “Tiberiyga kelsak, u kambag'allarga rahm-shafqatdan emas, ularga yer berib, davlatga jangovar askarlar olishni mo'ljallar edi”, deb yozgan edi yana u.

Yer uchun avj olib borayotgan kurashni susaytirish maqsadida xalq majlisi mil. av. 111 yil qonunini qabul qilishga majbur bo'lgan. Bu qonunga binoan, barcha yer mulklari, ularning kelib chiqishidan qat'i nazar, kvirit mulklari hisoblanadigan bo'lgan. **Spuriy Toriy** qonuniga binoan, musodara qilish ruxsat etilgan yerlarni majburan tortib olish taqiqlangan (mil. av. 121 yilda bekor qilingan edi).

Harbiy diktatura davri yerlarni qayta bo'lish shiori ostida o'tgan. Sulle davrida (81-y.) katta-katta yer maydonlari musodara qilinib, ularga 100 minglab askarlar joylashtirilgan. I asr oxirida kambag'allarga yer berish haqida komitsial qonun chiqqan. Keyingi yillarda yerlarning bir to'lda kishilar qo'lida to'planishi latifundiyalar va kolonatlarni keltirib chiqargan. Bu esa dehqonlarning yersizlanishiga va ekspluatatsiya qilinishga olib kelgan.

Mansipatsiya. Rimda mulk huquqini boshqa shaxsga tantana bilan o'tkazish tartibi mansipatsiya deb atalgan. Bu marosimda, ikkala tarafdan tashqari, besh guvoh va tarozibonning hozir bo'lishi talab etilgan. U vaqtlarda Rimda tanga-chaqalar zarb qilinmagani sababli, pul vazifasini bajaruvchi mis og'irligiga qarab qabul qilingan. **Ashyoni oluvchi** (xaridor) olayotgan narsasining bir chekkasini bo'lsa ham qo'lida ushlab turib, odatga aylangan quyidagi so'zlarni takrorlagan: "Men iqror qilamenkim, kviritlar huquqiga binoan, bu narsa menga qarashli va men buni mana shu mis evaziga sotib oldim". Misni taroziga bir urib olgach, xaridor uni sotuvchiga topshirgan va shu bilan marosim tugallangan.

Vaqtlar o'tishi bilan mansipatsiya udumi boshqa sohalarda (masalan, hadya, mol almashtirish, bola asrab olish va boshqalarda) ham qo'llaniladigan bo'lgan. Bunda ramziylik kuchli bo'lsa-da, xaridorning mulkka bo'lgan huquqini mustahkamlab, unga kafolat bergan.

Pul berish masalasiga kelganda esa, u xohlagan shaklda bajarilishi mumkin bo'lgan. XII jadval qonunlaridan ilgari pontifiklar o'ylab chiqargan bir chaqa berish orqali ijro etish usuli qo'llanilgan. Bu usulga ko'ra, mansipatsiyada xaridor birgina chaqani sotuvchiga tantanali topshirgan va bu hisob-kitob tamom bo'lganidan darak bergan. Mansipatsiya oldi-sotdi ishlarini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Eski iqtisodiyotning tugashi bilan mansipatsiya ham barham topgan. Ammo "bu meniki" ("**meum esse**") iborasi ancha vaqtgacha qo'llanilgan. Bu esa sudyalarga alohida vazifa yuklagan. Ular da'vogarlardan qaysi birining "Bu meniki"si asosliroq ekanligini aniqlashlari va adolatli qaror chiqarishlari lozim bo'lgan. Bu juda nozik ish bo'lgan, chunki yutqazgan taraf nafaqat yeridan, balki sud boshlanishi oldidan qo'ygan kattagina garov mablag'idan ham ajralib qolgan.

Inyure sessio. Qadim zamonlardan boshlab mansipatsiya bilan birga, "inyure sessio" (**in iurecessie**) deb atalgan usul ham qo'llanib kelgan. Bu ko'p variantli soxta sud jarayoni bo'lgan. Bunda nizolashuvchi tomonlar pretorga murojaat etganlar. Pretor ashyni taqdirini hal qilib, bittasiga hukm chiqargan va hujjat ham bergan. Shu bilan janjal hal bo'lgan. Pretor

buning uchun tarafkashlardan biri – xaridor talablarini, gaplarini eshitgan, agar u sukut qilsa, buni da'vogar so'zlarini tasdiqlash deb hisoblangan va qaror chiqargan.

Bu marosim, ashyoga egalik huquqini birovga o'tkazishdan tashqari, boshqa munosabatlar, masalan, merosdan voz kechish, qulni ozod qilish, servitutni boshlash yoki tugallash kabilar munosabati bilan ham qo'llanilgan.

Mansipatsiyadan farqli o'laroq, bu usul qo'ldan-qo'lga rasmiy an'anaviy yo'l bilan o'tgan barcha narsalarga nisbatan qo'llanilgan. Bunda gap pretorlar emas, balki kviritlar mulkchiligini aniqlash ustida boradi.

An'ana. Rimda mansipatsiyasiz bir qo'ldan ikkinchisiga o'tadigan ashyolar ham ko'p bo'lgan. Ularning o'tishi hozirgidek oddiy an'ana yo'li bilan bo'lavergan. Juda ko'p yuridik faktlar – shartnomalar, qarz berishlar, narsalarga egalik qilishlar va boshqalar an'ana asosida amalga oshirilgan. An'anada birov olgan narsani shu ondayoq unga topshirishi shart emasligi bu usulning kengroq tarqalishi sabablaridan biri bo'lgan va tovar aylanishini osonlashtirgan. An'ananing asosiy talablaridan biri buyum narxini aniqlash bo'lgan, ammo shunda ham uning pulini birdan va shu ondayoq emas, balki oz-ozdan to'lab borish mumkin bo'lgan. Bu an'ananing qayerdan kelib chiqqanligi noma'lum: ehtimol, u Gretsiyadan yoki Misrdan kelgandir. An'ana usuli bora-bora mansipatsiyani siqib chiqargan, juda oz narsalargina mansipatsiya qilinishi lozim bo'lgan. Ashyolarga egalik huquqi faqat an'anaviy usulga tayanib hujjatlashtiriladigan bo'lgan. **Yustinian kodifikatsiyasida** faqat an'ana tan olingan.

Pretor mulki. Yuqorida ko'rib chiqilgan, ikki usul bilan qo'ldan qo'lga o'tgan narsalar kviritlar mulki bo'lgan. An'ana bir qancha vaqtgacha kviritlar va pretorlar huquqi chegarasida bo'lgan, keyinchalik u pretorlar mulkchiligi tarafiga yon bosgan va, shunday qilib, pretorlar huquqini ifoda etadigan bo'lgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi bilan mansipatsiya yoki inyure usullarini qo'llash mushkullashgan, savdoda vakil yuborish keng qo'llana boshlagan. Agar orada kelishmovchilik chiqsa yoki buyum egasi g'irromlik qilib, janjal chiqarsa, uni sud hal qilgan. Sudda yutib chiqqan xaridor narsa egasi bo'lgan. Ammo mulk kvirit yoki sivil mulki emas, balki pretor (bonitar) mulki hisoblangan.

Vaqt kelib sivil huquqi da'vosiga aldov haqidagi eksepsiya qarshi qo'yiladigan bo'lgan. Mashhur **eksepsiya dol (exemptio doli)**da: "Agar

da'voda yolg'on, aldov borligi ma'lum bo'lib qolsa, uni rad etish uchun shuning o'zi kifoya, boshqa narsa kerak emas", – deyilgan.

Pretorlar shu yo'llar bilan savdo-sotiq va, umuman, munosabatlarning insofli va adolatli bo'lishiga erishganlar. Shunday qilib, pretor eksepsiyasi, ya'ni faktga asoslangan e'tiroz vujudga keladiki, u da'voning huquqiy asosini ham barbod etishi mumkin bo'lgan.

Ancha vaqtgacha bu usullar parallel ravishda ishlatib kelingan. Bu ahvolining uzoq davom etolmasligi ochiq ma'lum bo'lib qolganda, pretor **Publitsian edikti** paydo bo'lgan (mil. av. 70 y.) va da'vo ham uning nomi bilan ataladigan bo'lgan.

Ushbu orqali bonitar mulk egasi (mulkdor) vindikatsion da'vo qilish huquqiga ega bo'lgan.

Provinsiya mulki. Rim davlati bosib olgan (Yevropa va Osiyodagi) joylar Rim imperiyasining chekka o'lkalari hisoblangan va provinsiya deb atalgan. U yerlardagi mulk egalari o'z mulkdorligicha qoldirgan. Ularning birdan-bir egasi qilingan Rim davlati ular ustidan barcha huquq-larga ega hisoblangan, yerni mustamlakachi askarlarga bo'lib berish huquqi ham davlatga tegishli bo'lgan. Bundan chekka o'lkalarning aholisi siqilgan va norozi bo'lgan. II asrga kelib provinsiya yer egalari izufruktariy huquqini olib, himoyalanih imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Galliya va Iberiyadagi yerlarning ko'p qismi Rim senatorlari va suvoriylari tomonidan bosib olingan. Ular possessorlar deb atalgan.

Chekka o'lkalardagi yer egaligi ikki jihati bilan ajralib turgan:

- 1) uning uchun soliq to'langan
- 2) bu yerlarning huquqiy holati peregrin huquqi asosida tartibga solingan (sivil qoidasi bo'yicha emas).

Peregrinlar mulki. Peregrinlar kvirit mulk egalari toifasiga kirmaganlar. Ammo savdo-sotiqning o'sishi bu tabaqa kishilari mulkiy huquqlarini ham muhofaza qilishni taqozo eta boshlagan. Ko'p hollarda peregrinlar mulki ham kviritlarniki singari himoya qilina boshlagan va shunday qilib, Rim huquqida xususiy mulkchilikning umumiy bir tizimi ishlab chiqilgan.

Rim davlatining rivojlanishi bilan mulkchilikning turli ko'rinishlari orasidagi farqlar ham barham topa borgan.

Dominata davrida Rim yuristlari xususiy mulkchilikning umumiy bir tushunchasini ishlab chiqqanlar. Bu tushuncha bo'yicha, kimning qanday mulkka egalik qilishi hech bir ahamiyatga ega bo'lmagan.

Xususiy mulk huquqi. Xususiy mulk huquqi quyidagi huquqlarni o'z ichiga oladigan bo'lgan:

- 1) mazkur mol-mulkka egalik qilish huquqi (ius possidendi);
- 2) undan foydalanish huquqi (ius utendi);
- 3) hosil va daromad olish huquqi (ius fruendi);
- 4) tasarruf qilish huquqi (ius avutendi);
- 5) o'z mulkining boshqalar qo'lidan o'ziga qaytarilishini talab qilib olish huquqi (ius uindicandi).

Bu huquqlar xususiy mulk egasining hamma mulklariga va ularga qo'shila borgan ashyolarga daxldor bo'lgan. Mulkdor bu ashyolarni ko'paytirishda o'z mehnati yoki boshqalar mehnatidan foydalanishi mumkin bo'lgan. Yer egasi esa yeriga va uning ustidagi barcha narsalarga hukmronlik qilgan.

Rim yuristlari: "Mulkdor o'z mulki bilan nima xohlasa shuni qilish huquqiga ega, faqat u qonunda taqiqlangan ishlardangina saqlanishi kerak", degan fikrda bo'lganlar. Bunday cheklash ko'proq ko'chmas mulkka taalluqli bo'lgan.

XII jadval qonunlarida quyidagi qoidalar mavjud: 1) yer egasi o'z yeridan arava o'tadigan yo'l va so'qa, omoch aylanishi uchun joy qoldirishi shart; 2) u to'kilgan mevalarini terib olishi uchun qo'shnisiga kunora o'z yeriga kirishga ruxsat berib turishi kerak va h. k.

Mulk huquqini bevosita yoki bilvosita hosil qilish. Agar hech kimga qarashli bo'lmagan yovvoyi hayvonni tutib olsak, biz unga egalik huquqini birinchi bo'lib bevosita olgan bo'lamiz. Agar yerimizdan qadimda kimdir ko'mib qo'ygan boylikni topib olsak ham, birov keraksiz hisoblab, tashlab yuborgan narsani olsak ham shunday bo'ladi. Ammo agar birovga tegishli mulkning egalik huquqi boshqa kishiga o'tkazilsa, u bilvosita olingan hosila huquq bo'ladi.

Qadimgi Rimda narsa ma'lum marosimlardan keyin boshqa birovning qo'liga o'tsa, (an'anaga ko'ra) u pretor mulkidan kvirit mulkiga aylangan. Yerni bosib olish (okkupatsiya) yo'li bilan qo'lga kiritish alohida holat sanalgan. Yerning haqiqiy egasi qayerdadir bo'lsa-yu, tayin etilgan muddatda paydo bo'lmasa, bu yerning hozirgi egasi ham (boshqa narsalar ham) dastlabki asosda qo'lga kiritilgan mulk huquqini olgan. Yustinian qonuni ushbu muddatni ko'char mulkka uch yil, ko'chmas mulkka 10 yil qilib belgilagan.

Egalik muddati bo'yicha mulk huquqini olish. Rimda egalik huquqini olish muddati ham qo'llanilgan. Bunda qonun tarafidan belgilangan muddatgacha biror mol-mulkka egalik qilib kelgan shaxs pirovardida o'shaning mulkdori hisoblangan va unga nisbatan barcha huquqlardan foydalangan.

XII jadval qonunlar majmuasida yer uchun bu muddat ikki yil, boshqa ashyolar uchun bir yil qilib belgilangan, faqat bu ashyo o'g'irlanmagan, halol, insofli yo'l bilan topilgan bo'lishi shart bo'lgan.

Yustinian davrida quyidagi uch shart bajarilishi lozim bo'lgan:

- 1) ashyoga belgilangan muddatgacha egalik qilish;
- 2) ashyoga insof bilan munosabatda bo'lish;
- 3) egalik qilish uchun qonuniy asoslarning mavjudligi.
- 4) ko'char mulk uchun bu muddat – uch yil. Ko'chmas mulk uchun esa – 10 yil (hatto 20 yil), mulk egasi shu joyning o'zida yashasa – 10 yil, aks holda 20 yil qilib belgilangan.

5) o'sha mol-mulk ashyo olishga arziydigan holatda bo'lishi lozim (muomaladan chiqarilgan, o'g'irlangan va boshqa ba'zi narsalar bundan mustasno hisoblangan).

Ashyolarni qayta ishlash. Bu jarayon spetsifikatsiya deyiladi hamda ashyolarni qayta ishlash, qo'shimchalar qilish va o'zgartirishni anglatadi.

Qadimgi yuristlar ashyo o'zgarganidan keyin kimga taalluqli bo'lib qolishi haqida ko'p tortishganlar. Yustinian qonunlari bu masalani quyidagicha hal qilgan: Agar qayta ishlangan ashyoni asliga qaytarish mumkin bo'lsa, ashyo unga sarf etilgan narsa (masalliq xomashyo) egasining mulki hisoblanadi, agar endi asliga qaytarish mumkin bo'lmasa, u ashyoni yasagan odamning mulki hisoblanadi. Bunday holatda masalliq, xomashyo, material egasiga uning bahosi to'lanadi.

Ashyolarni qo'shib yoki aralastirib yuborish. Asosiy mulkka qo'shilgan boshqa ashyo asosiy mulk egasiga qarashli bo'ladi. Masalan, yerga ekilgan ekinlar, daraxtlar, unda solingan imoratlar va boshqalar yer egasiga tegishli bo'ladi.

Yerda turgan va yersiz ham mustaqil mavjud bo'la oladigan ashyolar, masalan, asbob-uskuna, omoch, arava va kabilar bunga kirmaydi. Agar ikki-uch narsa qo'shib ajralmas, yaxlit bir ashyoni tashkil qilsa, unga har ikki ashyo egalari egalik qiladi.

Agar bir xil ashyo, masalan, bug'doy yoki shunga o'xshash narsalar qo'shilgan bo'lsa, har kim o'z ulushiga egalik huquqini olgan. Shunga tariqa xususiy mulkchilikka kirgan va hayotda uchraydigan har bir katta-kichik voqea qonunda ko'rsatilgan huquqiy asosga ega bo'lgan. Masalan, odat bo'yicha mulkni sud qarori bilan yoki vasiyat qilish orqali boshqa birovga o'tkazish kabi hollarda mulk huquqi vujudga kelgan.

Mulkka egalik huquqini yo'qotish. Quyidagi uch holatda fuqaro xususiy mulkka bo'lgan egalik huquqidan mahrum qilingan:

1) mulkning batamom nobud bo'lishi (sinishi, yonib ketishi va boshqalar);

2) mulk egasining mulkni o'zidan begonalashtirishi (birovga berib yuborishi, tashlab yuborishi va h. k.);

3) mulk egasining erki-irodasidan tashqari hollarda.

Umumiy mulk. Qadimgi Rimda bir mulkka bir necha kishining bir vaqtda egalik qilishi umumiy mulkchilik deyilgan, o'rtadagi mulk esa umumiy mulk hisoblangan. Bu mulkning taqdiri barcha hammulkdorlar qo'lida bo'lgan. Ularning har biri ayrim-ayrim holda ushbu mulkka doir hech qanday qarorga kelolmagan, uni bajara olmagan va alohida holda hech kim mulkni tasarruf eta olmagan. Birortasi ajralib chiqmoqchi bo'lsa, uning ulushi ajratib berilishi mumkin bo'lgan, ammo bu ham uning da'vosiga asosan sud qarori bilan amalga oshirilgan. U sud ajratib bergan ulushgagina egalik huquqini olgan.

4-§. Mulk huquqini himoya qilish

“Vindikatsiya” (“mulk huquqini himoya qilish”) iborasi juda qadimiy **“vimdicera”** so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “kuch ishlataman” ma'nosini anglatgan. Bunda gap odamning o'z mol-mulkini talab qilib olish huquqi haqida borgan. Ammo vaqt o'tishi bilan bu vazifa shaxsga, mulkdorga emas, balki davlat, ya'ni pretorga yuklatilgan. Mulkdorlar mulkni pretor himoya qiladigan bo'lgan, bu haqda u interdikt chiqargan. Shu bilan birga, pretor mulk egasining sudga murojaat etib, o'ziga yetkazilgan zararni qoplatishiga ham imkon bergan. Mulkni qonunga xilof tarzda o'zlashtirgan javobgar shaxs uni o'z ixtiyori bilan qaytarib bermasa, ishga pretor aralashgan. Ushbu mulkdan olingan foyda, hosil va daromadlar yoki unga qilingan sarf-xarajatlar hisobga olingan hamda ularni kimning hisobidan undirishni sud belgilagan.

Imperiya davriga kelib, vindikatsion da'volar faqat mulkdorning foydasiga emas, balki yana mol-mulkni qonuniy asosda olgan ijarachilar foydasiga ham qo'llana boshlagan. Ko'pincha bu juda uzoq cho'ziluvchi protsesslarni (litiskontestatsiya) yuzaga keltirgan.

Petitor va negator da'volar. Da'volar Rim huquqida petitor va negator turlariga ajratilgan bo'lib, bu hol hozirgacha saqlanib kelmoqda .

Petitor da'vo – mulkidan ajralib qolgan mulkdor uning mulkiga nohaq egalik qilib kelayotgan shaxsga qarshi berilgan da'vo. Bu da'vo orqali u o'zining qonuniy mulkini qaytarib olishi, o'ziga yetkazilgan zararni qoplatishi mumkin bo'lgan.

Negator da'vo – mulkdan foydalanishda mulkdorga qilingan to'sqinliklarni bartaraf qilish to'g'risidagi da'vo bo'lib, u mulkdorning mulkka nisbatan to'liq huquqini tiklashga qaratilgan.

Publitsian da'vo. Bu da'vo bonitar mulk egalaring manfaatini ko'zlab o'ylab chiqarilgan. Biror sabab bilan yo'qotilgan mulkni topib olgan va haqiqiy egasiga topshirish imkoniyati bo'lmagan shaxslarga mana shu da'vo qo'l kelgan. Bu da'vo pretorga izhor qilinib, bironing mulkini egallab olgan kishi ham mulkka yaxshi vijdonan munosabat bilan qaraganligi tufayli muayyan vaqt o'tishi bilan haqiqiy mulkdor huquqini qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan. Albatta, kuch bilan tortib olingan, o'g'irlangan narsalarga bu da'vo o'tmagan. Bu da'vo faqat halol topib olingan ashyolargagina qo'llanilgan. U biror narsani (masalan, tashlandiq yerni) o'zlashtirib, unda vijdonan ishlayotgan shaxsni boshqa bir shaxsning tajovuzidan himoya qilgan.

Xullas, vindikatsion da'voning xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lgan:

1) doimo ashyoni boshqa kishi egallab olishiga yoki unga tajovuz qilishiga qarshi qaratilgan;

2) bu da'vo mulkini qo'ldan berib qo'ygan kvirit mulkdorining bu mulkni nohaq egallab olgan yangi egasiga qarshi da'vo bo'lib, da'vogarning huquqini himoya qilish va mulkini qaytarishga qaratilgan;

3) da'vo aniq ko'chmas yoki ko'char mulk ustida boradi va da'voning butun isbotlash yuki da'vogarga tushadi;

4) klassik davr oxirlarida vindikatsion da'vo mulkni o'z qo'lida qonuniy ushlab turish uchun berilgan shaxslar tomonidan ham qo'llanilgan;

5) javobgar nizolashmasdan ham chekinishi mumkin bo'lgan. Ammo ko'chmas mulkni qaytarib berishi uchun pretorning buyrug'i talab qilingan;

6) da'vogar litistansiya paytigacha hamma narsasini qaytarib olishi kerak bo'lgan;

7) agar da'vo qilingan mulkka sarf-xarajatlar qilingan bo'lsa va javobgar ularni qaytarib olishiga ishonsa, ekssepsiyaga haqli bo'lgan;

8) javobgar sud hukmini bajarmasa yoki paysalga solsa, da'vogar foydasiga belgilagan jarimani to'lagan;

9) da'vogarni himoya qilish uchun publikatsiya da'vosi qo'llanilgan. O'tgan muddatning soxta yuridik ko'rsatkichiga ruxsat berilgan.

5-§. Mulk huquqini cheklash

“Qo‘shning devori qancha baland bo‘lsa, qo‘shni shuncha yaxshi” degan ingliz maqoli qadimgi rimliklarga ham to‘g‘ri keladi. XII jadval qonunlaridayoq “qo‘shni yeridan bir fut (30 sm) chekinib devor ol, chegara chiz, daraxtlarning bo‘yi 6 metrdan oshmasdan qirqib tur (soyasi qo‘shnikiga tushmasin), qo‘shnikiga chiqib ketgan shoxlarini kes, qo‘shnikiga tushgan mevalar uniki” singari qoidalar bitilgan. Keyinroq ularga “qo‘shnidan oqib kelgan yomg‘ir suvlari, tutun va boshqalarga chidash” kabi ko‘plab cheklovlar qo‘shilgan.

Mulk huquqidagi bunday cheklanishlar har ikki tomon uchun ham qabul qilinadigan va ikkala tomonning manfaatini himoya qiladigan bo‘lgan. Bunday hollarning hammasida sabr qilish, toqat qilish talab etilgan.

O‘zgarar mulkiga bo‘lgan huquqlar. Mulkiy huquq doirasiga xususiy mulkdan tashqari, o‘zgarar mulkiga bo‘lgan huquqlar, unga egalik (undan foydalanish) huquqi ham kirgan. Bu huquq yer, bog‘, imorat va boshqalar egasining emas, balki undan foydalanuvchilarning huquqidir. Bu huquq “servitut huquqi” deb atalgan. Bunda har ikki tomonning roziligi juda muhim bo‘lgan.

Qadim zamonlardan ma‘lum bo‘lgan ushbu huquq biron qonun bilan belgilangan bo‘lishi ham mumkin. Hozirgi uning qonun bilan tayinlanganligi yoki o‘zi hayotga odat bo‘lib kirib kelganligi haqida bir nima deyish qiyin.

Bunday servitutlar to‘rt xil bo‘lgan:

1) boshqalar yeridan o‘tish huquqi (yo‘l tushishi va boshqalar natijasida);

2) boshqalar yeridan mollarni haydab o‘tish huquqi;

3) aravaga ortilgan yuklar bilan boshqalar yeridan o‘tish huquqi;

4) boshqalar yeridan suv o‘tkazish huquqi.

Bunday servitutlarga barcha rozi bo‘lgan va ular oshkora (legal) va qonuniy hisoblangan. Ular interdiktlar bilan himoya qilingan.

Bunday servitutlarga hojat qolmagach, ular tugatilgan.

Vaqt o‘tishi bilan shaharga oid servitutlar ham paydo bo‘lgan (suv quvurlari, kanalizatsiya o‘tkazish, qo‘shning devoridan foydalanish singlarilar uchun)

An‘anaviy va shaxsiy servitutlar. Ma‘lumki, “servitut” birovning mulkidan ma‘lum maqsadda foydalanish huquqi yoki o‘z mulkidan boshqalarning cheklangan ravishda foydalanishiga imkon berishdir. Shu nuqtai

nazardan qaraganda, ikki yondosh yer maydoni yonma-yon bo'lsa, ularning biri, ya'ni tuzukrog'i ustunlik qiluvchi, hukmron, ikkinchisi esa yordamchi hisoblangan. Ularning munosabatlari servitut bilan belgilagan. Servitutlar o'rtada tortishuvlar paydo bo'lishining oldini olgan. Servitutlar ilk respublika davrida ikki yillik bo'lgan, so'ng egalik huquqlari 10, hatto 20 yilgacha uzaytirilgan. Shundan keyin har xil qiyinchiliklar kelib chiqq boshlagan.

Ko'p hollarda yer egalari servitut olish uchun o'zaro foydali shartnomalar tuzishlari lozim bo'lgan. Bunday ahvoldan chiqish yo'lini qidirganlar va, avvalo, mansipatsiyaga murojaat etganlar yoki **in yure sessia**. Yer merosga kolganida vasiyatnomada servitutning saqlanib qolishi haqida ko'rsatma berilgan. Yer maydoni taqsimlanganida ham servitut saqlangan. Yerning foyda berishi yoki bermasligi borasida yordamchi yer maydon hech qanday talab qo'yilmagan, ammo hukmron yer egasi yordamchisiga ham qarab turishi talab etilgan.

Xo'jalik talablari nuqtai nazaridan, servitutlar qishloq va shahar servitutlariga bo'lingan. Qishloq servitudida qo'shning yeridan o'tish, hayvonlarni haydab o'tish, aravada, otda o'tish, ariq o'tkazish yoki umuman suv olish kabi huquqlar bo'lgan. Shahar servitudiga esa qo'shning devoridan foydalanib, imorat solish, yomg'ir suvlarni qo'shni yeri orqali o'tkazib yuborish, kanalizatsiya o'tkazish, ma'lum belgilangan balandlikdan yuqori imorat qurmaslik, qo'shning derazasini to'sib qo'ymaslik kabi vazifalar kirgan.

Demak, servitut, bir tarafdand, yer egasiga ma'lum ishlarda qo'shni yeridan foydalanish huquqini bersa, boshqa tarafdand, ma'lum majburiyatlarni ham yuklaydi yoki ma'lum harakatlar sodir etishni man etadi. Mil. av. I asrgacha servitutlar o'tgan muddatga qarab qaror topgan. Keyin bu usul bekor qilingan. Klassik davrda qo'shni yeriga servitudand foydalanish muddatiga unchalik e'tibor berilmagan. **Yustinian** buning uchun 10 yoki 20 yillik muddat belgilagan.

Skriboniy qonuniga muvofiq, servitut sharti buzilsa (masalan, baland imorat solinsa) yoki servitudand foydalanilmasa, ikki yildan so'ng servitut bekor qilingan. Foydalanish uzilib tursa-yu, ammo u ikki yilga yetmasa, servitut davom etavergan.

“Servitut” qo'shni yer maydonlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishini bildiradi. Shuning uchun qo'shni yerga kelgan har kim – (uning mulkdorigina emas, balki mehmonmi, tabibmi, ustami – barcha servitudand foydalanish huquqiga ega bo'lgan, chunki servitutsiz bu yerdan foydalana

olmagan. Shaxsiy servitutlar alohida shaxsga xizmat qilgan holatlar vaqtincha bo'lgan.

Uzufrukt. “Uzufrukt” atamasi bironing ashyosi va daromadidan umrbod foydalanib, uning butun saqlanishi va xo‘jalikka yaroqli bo‘lishini ta’minlashni anglatgan. Uzufrukt boshqalar ashyosidan foydalanishning klassik shakli bo‘lgan. **Raul** bu haqda: “Uzufrukt – bu o‘zgalar narsasidan foydalanish va undan foyda, hosil undirib olish”, – degan. Demak, uzufruktda ashyoning o‘zi emas, uning foydasi, mevasi kabilar boshqa bironing ixtiyoriga o‘tgan, ashyo esa egasining mulki bo‘lib qolavergan.

Ammo uzufruktchi ashyolar samarasidan foydalanish huquqini boshqalarga o‘tkazishi, hatto ijaraga berishi ham mumkin bo‘lgan. Masalan, mulk egasi uyining bir xonasini xizmatkoriga butun umr foydalanishga bergan bo‘lsa, uzufrukt sohibi berilgan mulkni qarab, saqlab turishi kerak bo‘lgan. Ushbu mol-mulkning egasi o‘zgarsa ham, merosxo‘r bo‘lsa ham, uzufruktni bekor qilolmagan. Bunday mulklarning sotilish bahosi ancha past bo‘lgan. Ammo uzufruktni bergan kishi ham uni bekor qila olmagan, pretor doimo uzufruktchining tarafini olgan.

Uzufrukt huquqiy tizimi oilaviy hayotdan boshlangan, xotinidan ajralgan erlar unga umrbod foydalanish uchun biror ashyoni berganlar (uy-joy va boshqa). Bu odat mil. av. III asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan. Uzufrukt sep yoki sovg‘a sifatida ham berilgan. Uzufrukt sohibining vafoti bilan u tugatilgan. Foyda beruvchi ashyoning nobud bo‘lishi ham uzufruktning tugatilishiga olib kelgan.

O‘zgalar uyida yashash huquqi kishilarga umrbod berilgan va ular bu uyni ijaraga berish huquqiga ham ega bo‘lganlar.

O‘zgalarning qulidan foydalanish. Qullar yoki ish hayvonlarining egalari ularni boshqalarga butun umrga foydalanish huquqi bilan berganlar.

Uzus – bu uzufruktning bir turi bo‘lib, bunda yer yoki bog‘ hosilidan foydalanishgina, u ham bo‘lsa qisman cheklangan.

Servitutning paydo bo‘lishi va tugatilishi. Servitutni tugatishning eng oddiy yo‘li in yure sessiyaga tayanib, uni rad qilish bo‘lgan.

Shaxsiy uzufruktlar egasining o‘limi bilan, yer uzufruktlari esa yerda ishlovchining vafoti bilan yoki berilgan uyning o‘t tushib yonib ketishi bilan tugatilgan. Servitut huquqidan uzoq vaqt foydalanilmagan taqdirda ham uni tugatish mumkin bo‘lgan. Servitut huquqining egasi o‘zining haqi bo‘lmagan ishlarni qilsa ham uni tugatish mumkin bo‘lgan. Bu hol ayniqsa shaharlarda yuz bergan, chunki shaharda servitut masalasi murakkabrok bo‘lgan (bu yerdagi imoratlarning yaqinligi va boshqalar tufayli).

Servitutning himoya qilinishi. Servitutlar konfessor da'volar bilan himoya qilingan. Bundan tashqari, pretor ediktleri orqali ham yerlarni himoya qilish uchun bir necha interdiktlar chiqarilgan.

Servitutlar quyidagi hollarda tugatilgan:

- 1) qonuniy yo'l bilan;
- 2) servitutga beriluvchi ashyo servitut egasiga ortiqchalik qilib qolgan taqdirda, boshqa kishiga shartnoma yoki vasiyat yo'li bilan;
- 3) ashyolar taqsimotida sud qarori bilan;
- 4) egalik huquqini himoya qilish paytida egalik huquqi muddatining o'tib ketishi natijasida,
- 5) servitutda belgilangan muddatning tugashi;
- 6) servitudan voz kechish;
- 7) servitut ashyolarining nobud bo'lishi;
- 8) servitudagi hokim (asosiy) va mahkum (mansub) yerlarning birlashib ketishi;
- 9) servitudan 10-20 yil foydalanmaslik.

Superfitsiya. Boshqalar mulkiga bo'lgan huquqlar ichida superfikatsiya ham bor. Bu so'z qurilishlarning yer ustki qismiga yoki, umuman, yer bilan bog'liq ashyoga bo'lgan huquqni bildiradi. Birovning yeriga qurilgan imoratini ijaraga olish va bunda imoratning o'ziga haq to'lash yoki u qurilgan yerga ham haq to'lash **superfitsiy** deyilgan. Ijarachi imoratning yoniga yana xonalar solishi mumkin bo'lgan, bunda ularga ham yeriga qarab pul to'lab turgan. Superfitsiy haqi har bir foydalangan yilga to'langan. Bu uzoq muddatli ijara hisoblangan va hatto merosxo'rlarga ham o'tgan. Ammo mulkdor va ijarachi kelishsalar, ijaraga xususiy mulk qilib o'tkazib berishlari ham mumkin bo'lgan.

Pretor interdikt chiqarib, ijarachining huquqini himoya qilgan. Avvaliga himoya ushbu mulkka da'vo qilgan boshqa shaxslarga qarshi, keyinchalik esa ijara mulki egasiga qarshi bildirilishi ham mumkin bo'lgan. Har ikki holda ham pretor ijarachi tarafini olgan.

Emfitevisis. Uzoq muddatli meros bo'lib o'tadigan ijara shunday atalgan. Bunda ijaraga olingan yerning ijara haqi ancha past bo'lgan va ijara avloddan avlodga meros bo'lib o'tganligi uchun yersiz dehqonlarga qo'l kelgan. Katta yer egalari ham bu foydali bo'lgan. Bunda ijarachining ko'pgina huquqlari yer egasining huquqlariga teng keladigan darajada bo'lgan. Ular bir qismini ikkilamchi ijaraga ham bera olganlar. Hosilning hammasi o'zlariniki bo'lgan.

Ijara haqi pul yoki boshqa ashyolar bilan belgilangan hamda vaqtda to'lab turilmasagina yer egasi emfitevisisni bekor qila olgan. Rim yuristlarining o'zlari emfitevisisning oldi-sotdi shartnomasi yoki ijara shartnomasi ekanligi haqida tortishib yurganlar. Faqat **Yustinian** davriga kelib bunga aniqlik kiritilgan.

Emfitevisis bo'yicha yerni ijaraga olgan kishi quyidagi huquqlarga ega bo'lgan:

- 1) olingan yerdan foydalanish;
- 2) olingan yerga uning sifatini pasaytirmaslik sharti bilan o'zgarishlar kiritish;
- 3) yerdan olinadigan hosilni yig'ib olish;
- 4) yerni garovga qo'yish, o'zidan begonalashtirish va avlodlariga qoldirish.

Emfitevisischi yer egasiga ijara haqi va davlat soliqlarini muntazam ravishda to'lab turishi shart bo'lgan. Agar u ijara haqini uch yil to'lamasa, emfitevisis huquqi bekor qilingan.

Nazorat uchun savollar

1. Ashyo deb nimaga aytiladi?
2. Muomaladagi va muomaladan chiqarilgan ashyolar nima?
3. Ko'char va ko'chmas mulklar nima?
4. Bo'linar va bo'linmas ashyolar nima?
5. Oddiy va murakkab ashyolar nima?
6. Xususiy va turga xos alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar deb nimalarga aytiladi?
7. Ashyoviy huquqining o'ziga xos tomonlari nimadan iborat?
8. Ashyoviy huquqqa nimalar kiradi?
9. Egalik huquqi nima?
10. Qadimgi Rimda egalik huquqining qanday turlari bo'lgan?
11. Egalik huquqining tugatilishi qanday tartibda amalga oshirilgan?
12. Egalik interdiktleri necha xil bo'lgan?
13. Rim huquqida mulkning belgilari nimadan iborat bo'lgan?
14. Mansipatsiya nima?
15. Pretor mulki haqida nimalar bilasiz?
16. Provinsiya mulki nima?
17. Peregrinlar mulkining xususiyatlari nimadan iborat?
18. Xususiy mulk huquqi qanday huquqlardan iborat?
19. Qanday hoilarda fuqaro mulkka egalik huquqini yo'qotgan?
20. Vindikatsiya nima?
21. O'zgalar mulkiga egalik huquqi qanday vujudga kelgan?
22. Mulk huquqini cheklash nimalardan iborat bo'lgan?
23. An'anaviy va shaxsiy servitutlar qanday bo'lgan?
24. Servitut qanday hollarda tugatilgan?
25. Uzufrukt nima?
26. Emfitevisisni tushuntirib bering.

VII BOB. MAJBURIYATLAR VA SHARTNOMALAR TO‘G‘RISIDAGI UMUMIY TA‘LIMOTLAR

1-§. Majburiyatlar haqida umumiy qoidalar

Majburiyat. “Majburiyat” so‘zini juda oddiy tushunish mumkin, ammo qadimgi Rim yuristlari unga turlicha ta‘rif berganlar. Masalan, **Taubenshlag:** “Majburiyat bu kreditor (qarz beruvchi) va qarzdor oralaridagi huquqiy munosabat bo‘lib, bunda qarzdorga kreditoridan olgan qarzini to‘lash va boshqa xil vazifalarni bajarish majburiyati yuklangan, ularni bajarmasa turli salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin”, – deydi. Bu yerda majburiyat predmeti biroz tor ma‘noda, ya‘ni qarz berish va qarz olish bilan bog‘liq harakatlarni bajarish bilan ifodalanadi. Aslida, majburiyat turli xil, chunonchi, tovarni yetkazib berish, sotish, ishni bajarish, xizmat ko‘rsatish, qarz berish kabi harakatlarni bajarishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. “Majburiyat” tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 234-moddasida berilgan. H.Rahmonqulovning ta‘kidlashicha, “majburiyat bo‘yicha biron-bir harakatni bajarishga yoki boshqarishdan o‘zini saqlashga majbur bo‘lgan taraf – qarzdor, ushbu harakatni bajarishni yoki bajarmaslikni talab qilish huquqiga ega bo‘lgan taraf – kreditor deb hisoblanadi. Shunga ko‘ra majburiyatning sub‘yektlari “qarzdor” va “kreditor” deb yuritiladi³. **M. Andreyev** fikricha, rimliklar majburiyatni davlat tomonidan tasdiqlangan qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlari, bajaradigan yoki bajarmaydigan ishlari sifatida tushunganlar. Rim yuristi **Pavelning** yozishicha, “majburiyatning asl ma‘nosi biror jismaniy ashyoni bizniki qilish emas, balki birovni bizga bog‘lashdir, u shaxs ushbu bog‘lanishi tufayli biror narsani bizga berishi, bajarishi yoki biror narsaga imkon berishi kerak”. Birovgga bir narsa berib, undan so‘z olinar ekan, biz unga ishonamiz. Demak, majburiyat ishonchsiz bo‘lmaydi. Majburiyatga asoslangan talab doimo shaxsiy bo‘ladi.

Rim yuristlari fikricha, kreditor va qarzdor yo‘q joyda majburiyat ham bo‘lmaydi. Kreditor va qarzdorni qonun bir-biridan yuqori qo‘ymaydi, ular qonun oldida teng va har ikkisi ham bir xil himoyaga loyiq. Yustinian qo‘llanmasida: “Majburiyat huquqiy kishandir, bunda kreditor ham, qarzdor ham fuqarolik huquqimizga muqobil ma‘lum vazifalarni ba-

³ H. Rahmonqulov. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 1997. 380-b.

jarish majburiyati bilan bog'langan. Majburiyatni bajarish esa, mana shu bog'ich – kishanlardan forig' bo'lishdir", – deyilgan.

Rim yuristlari majburiyat huquqini quyidagi turlarga bo'lib qaraganlar:

1) XII jadval va keyingi qonunlar bilan tasdiqlangan sivil majburiyati;

2) pretor tomonidan himoya qilinadigan pretor majburiyati;

3) natural majburiyatlar.

Delikt va kontrakt. Majburiyat ikki manbadan hosil bo'ladi: 1) huquqbuzarlik, aybdorlik, birovga zarar yetkazish, turli taqiqlarni buzish; 2) biz o'zimizga turli vazifalarni oladigan kontraktlar va shartnomalar. Birinchisi **delikt** deb ataladi. XII jadval qonunlarida bu haqda: "Sindirdimi – tuzatsin", "zarar yetkazdimi – to'lasin" kabi qoidalar mavjud. Ikkinchisi – **kontrakt**, ya'ni shartnomaga asoslangan **majburiyat** deyiladi.

Shartnomalar haqida jadval va qonunlarda: "Shartnomani bajarish shart, va'da berdingmi bajar" degan qoidalar takrorlangan. O'z majburiyatini bajarmagan, so'zidan qaytgan kishi ikki baravar jarima to'lashi kerak bo'lgan. Ibtidoiy taraqqiyot davrida bo'lgan jamiyat uchun shuning o'zi yetarli bo'lgan, chunki ularda natural munosabatlar mavjud bo'lgan.

Rim huquqi 3-4 asr davomida shunday taraqqiyot yo'lini bosib o'tdiki, u oddiy mol egalari – kreditor bilan qarzdor, sotuvchi va xaridor, ijaraga beruvchi va ijarachi kabilar orasidagi munosabatlarni aniq belgilaydigan qonunlarni ishlab chiqqan.

Yuridik faktlar. Ma'lum yuridik normalarga muvofiq natijasida huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki tugatilishiga sabab bo'lgan hayotiy sharoitlar, voqea-hodisalarga yuridik faktlar deyiladi. Yuridik faktlar o'z tabiatiga ko'ra yuridik hodisalar va yuridik harakatlarga bo'linadi. Insonning tug'ilishi, o'limi, nogiron bo'lib qolishi singarilarning har biri yuridik fakt hisoblanadi va hammasi "hodisalarga" kiradi, chunki ular insonning xohish-irodasidan tashqarida sodir bo'ladi.

Yuridik harakatlar esa insonning o'z xohishi bilan bajariladi. Ular fuqarolik huquqida – bitim, ma'muriy huquqda – akt (harakat), jinoyat huquqida – jinoyat deb ataladi.

Majburiyat va da'vo orasidagi munosabat. Rimda majburiyatlarning bajarilishi da'vogarning da'vo bildirishi orqali himoyalangan. Shu bois ham agar majburiyat shunga muvofiq da'vo shakli bilan yuridik ta'minlangan bo'lsagina u qonuniy kuchga ega bo'lgan, ammo, shunga qaramay, **quyidagi ikki holatning yuz berishi ham mumkin bo'lgan:**

1) norasmiy majburiyatni shartnoma orqali rasmiylashtirish va 2) rasmiy holatdan chekinib, qarzni to'lash yoki boshqa majburiyatlarni shartnomada ko'rsatilmagan usulda ijro etaverish (agar ikki tomon ham bunga rozi bo'lsa). Bunday harakatlar natijasida shartnoma talablari bajarilgan deb hisoblangan va u sivil holatga o'tgan yoki yangi shartnoma tuzilishi ham mumkin bo'lgan.

2-§. Rim shartnomasi tizimi

An'anaviy Rim shartnoma tizimi quyidagi turlarga bo'linadi:

1-guruhga qadimdan ma'lum so'zlarni takrorlash orqali **og'zaki** kelishib tuzilgan shartnomalar kiradi. Shunday odatlar bilan bog'liq og'zaki tuzilgan shartnomalar "**stipulyatsiya**" deyilgan. Ular oldin qarz sohasida paydo bo'lib, keyinchalik boshqa sohalarga ham o'tgan. Imperiya vaqtida stipulyatsiya o'zining rasmiy qimmatini yo'qotgan. Stipulyatsiya peregrinlarning hayotida ham qo'llangan. Nihoyat har qanday og'zaki shartlashish ham huquqiy himoyalangan bo'lgan va u Rimda bitim shakli deb hisoblangan.

Og'zaki so'zlarning shartnoma asosini tashkil qilishi haqida Rim yuristlari o'rtasida ko'p tortishuvlar va munozaralar bo'lgan.

Rim shartnomalarining ikkinchi guruhi **yozma** (literal) shartnoma deb atalgan. Ular ilgari og'zaki shartnomalardan so'ng paydo bo'lgan, ammo ularning ham dastlabki va keyingi shakllarini farqlash kerak.

Dastlab kreditorlarda uy hisob daftarlari paydo bo'lgan, unga kim va qancha qarz ekanligi yozilgan. Qarzdor ham o'zi uchun qandaydir yozma hisob olib borgan. Ammo ushbu yozuvlar bir tomonlama bo'lgani uchun o'rtada ba'zan kelishmovchiliklar kelib chiqqan va o'zlarining haq ekanliklarini ularni isbotlash qiyin bo'lgan.

Shu bois Yunonistondan kirib kelgan va yunoncha atalgan yangi usul tarqalgan. Bular qarz hujjatlari bo'lib, barcha hozirgi xalqlarda ham qo'llanilmoqda. **Yustinian** digestlari qarz kitoblarini hayotdan siqib chiqargan. Ammo bu verbal (og'zaki) shartlashuvlar butunlay yo'qolib ketdi degan gap emas, ular to hozirgacha qo'llanilmoqda. Chunki og'zaki kelishuvda taraflarning qay biri so'zidan tonsa, uning obro'-e'tibori uch pul bo'ladi va keyinchalik hech u kim bilan ish yuritmay qo'yadi. Bitim (shartnoma)ning og'zaki shakli haqidagi tushuncha va ta'rif O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 106-moddasida berilgan.

Yozma majburiyatda vekselda esa barcha majburiyatlar ko'rsatilgan bo'ladi va bajarilishi shart hisoblanadi.

Xalqaro veksel muomalasi 1837 yil qabul qilingan **Jeneva konvensiyasi** bilan tartibga solinadi. Bundan tashqari, 1882 yilda Angliyada qabul qilingan veksel qonuni ham bor. Ularning ba'zi normalari Rim huquqi bilan bog'liq. Bozor munosabatlari tizimida veksellarni keng qo'llash imkoniyatlari mavjud. Undan oldingi yozma hujjatlarda majburiyatni guvohlantirish vositasi sifatida tilxat ham ishlatilgan.

Uchinchi guruh shartnomalar **real va konsensual** shartnomalardan iborat.

Ashyo yoki pulni ikkinchi shaxsga bergan paytdan kuchga kiradigan shartnomalar real (haqiqiy) shartnoma deyilgan (qarz berish kabi). Taraflarning kelishuvidan shartnoma talablari haqidagi o'zaro kelishuvdan keyin kuchga kiradigan shartnomalar konsensual shartnoma deyilgan (olish-sotish, ishga yollanish va h.k.).

3-§. Shartnomalarning haqiqiyliги shartlari

Majburiyat predmeti. Majburiyat predmeti (mavzui) haqida ikki xil fikr mavjud. Ulardan biriga ko'ra, majburiyat predmeti faqat ashyolardan iborat bo'lib, ularga narsalar, pul yoki shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Bu fikrga ko'ra, majburiyat predmeti bo'lgan barcha narsalar ikki guruhga bo'linadi: 1) xususiy alomatlari bilan belgilanmaydigan ashyolar – bunda ularning hajmi, og'irligi, miqdori ko'rsatiladi (masalan, pul, vino, don va h.); 2) xususiy alomatlari bilan belgilanadigan ashyolar (masalan, haykalchalar, guldona, uy-joy va h. k.), bunda ularning aniq belgilari, sifat xususiyatlari haqida shartnomada ko'rsatmalar mavjud bo'lish lozim.

Ikkinchi fikrga ko'ra, shartnoma majburiyati biror ashyoni berish (dare), nimadir ijro etish (fatsare), biror narsani taqdim etish (prestare)dan iborat. Ya'ni bunda shartnomadagi ashyolar emas, uni bajarish harakatlari nazarda tutiladi. Har ikki fikrning ham mantiqiy asosi bor.

Majburiyatlarda kauza. “**Kauza**” so'zini lotinchadan “**sabab**”, “**maqsad**” deb tarjima qilish mumkin. “**Kauza**” sub'yektiv tushuncha bo'lib, shartnoma tuzish va majburiyatlar olish sababini bildiradi (moddiy va boshqacha manfaat va h.). Ammo bu maqsad qonuniy bo'lishi va odobdan tashqari bo'lmasligi lozim. Majburiyat olish sabablari: 1) biror narsasini berib yuborish, 2) qarz berish, 3) sep tayinlash, 4) xizmat ko'rsatish; 5) novatsiya – ilgariги majburiyatlarini yangilash bo'lishi mumkin.

Shartnoma shartlari bajarilmaganida yoki qisman bajarilganida har ikki tarafga ham shikoyat qilish huquqi berilgan.

Taraflar kelishuvi. Shartnomaning deliktidan ajratib turadigan birinchi belgisi tomonlarning kelishuvidir. Ammo kelishuvni yuridik hujjat darajasiga ko'tarish kerak bo'ladi. Buning usullari xilma-xil: qadimgi shumerliklar qasamlar bilan kuchaytirilgan yozma shartnomalarni ixtiro qilganlar, slavyanlar ko'p asrlargacha qo'l berish bilan qanoatlanganlar, rimliklar stipulyatsiya davomida bosh irg'ash bilan cheklanganlar. Rozilikning ko'p turlarini (hatto indamaslik, sukut saqlashni ham) e'tirof etgan rimliklar shartnoma uchun rozilikning eng kerakli, zarur shart ekanligini tushunib, uni izhor etishning turli usullarini qo'llaganliklarini yuqorida ko'rdik (verbal, konsensual, literal kabi). Ammo shartnoma (kelishuv) uchun taklif (oferta) hamda uni qabul qilish (aksept) zarur bo'lgan. Buning natijasida kreditor va qarzdor maydonga kelgan. Ushbu kelishuvdan har ikki tomon manfaatdor bo'lishi kerak bo'lgan. Hech qaysi taraf shartnoma tuzishga majbur qilinmasligi shart bo'lgan.

Taraflarning irodasi. Unga ko'ra, ikki ma'noli shartlar shartnoma tuzuvchilarning istak-irodasini quvvatlashi, unga zid bo'lmasligi lozim. Yuridik amaliyotda meros qoldiruvchining vasiyatnomasi xususida ushbu vasiyatnoma vasiyat qiluvchining o'z erki bilan yozilganmi, uning haqiqiy irodasini aks ettiradimi kabi masalalarda juda ko'p tortishuvlar bo'lib turadi.

Rim amaliyotida ham ko'p tortishuvlardan keyin pretor amaliyotida ham, obro'li yuristlarning asarlarida ham vasiyatchining o'z xohishi, irodasini aniqlash va e'tiborga olish lozim, degan muhim qoida qabul qilingan.

Shartnoma nuqsonlari. Shartnoma nuqsonlari asosan ikki turga bo'linadi. Ularning birinchisi – yanglishuv, adashish. Bunda taraflarning haqiqiy irodasi shartnomada to'g'ri ta'riflanmaydi (shartnoma matnida kerakli so'zlar topib ishlatilmagan yoki muhim masala tushib qolgan va h. k.). Ikkinchisi – kelishuvning yuridik nuqtai nazardan noto'g'ri yoki qisman noto'g'ri tuzilganligi.

Rim huquqida kechirish mumkin bo'lgan va tuzatish lozim bo'lgan nuqsonlarga quyidagilar kiritilgan: 1) bitim ma'nosini, mohiyatini yaxshi tushunmay xatoga yo'l qo'yish; 2) bitim predmeti xususida yanglishish (masalan, bir qul o'rniga boshqasini berib yuborish). Agar nuqson va xatolar jiddiy bo'lsa, u holda shartnoma bekor qilingan. Agar xato tuzatilsa, shartnoma kuchda qolishi mumkin bo'lgan. Bular kelishuv xatolari deb atalgan. Masalan, oltin deb mis ashyo berib yuborilgan bo'lsa, shartnoma

mis ashyo oldi-sotdisiga o'tkazilgan (erkak yoki ayol qullar haqida ham shunday). Ammo Rim yuristlari kelishuv xatolari haqida aniq bir fikrga kelolmaganlar. Mashhur **Selz**: "Huquq "insof" va "adolat" tushunchalaridan mohirona foydalanishdir", deb bejiz aytmagan.

Dolyus. Shartnomaning bekor bo'lishiga dolyus deb atalgan harakat asos bo'lgan. Unda kimdir o'z manfaatini ko'zlab, foydali, ammo noqonuniy kelishuvga kirishgan. Pretor huquqi rivojlanishi bilan qonunga muvofiq, ammo insofga zid bo'lgan adolatsiz harakatlar ham dolyusga kiritilgan. **Sitseronning** xabar berishicha, dolyus shartnomani bekor qiluvchi asos sifatida pretor **Akviliy** tomonidan mil. av. 44 yilda kiritilgan. Pretor dolyusni "zohiran bir, mazmunan boshqa harakat" deb ta'riflangan. Yuz yillarcha vaqt o'tgach, boshqa pretor yolg'onchilik va qalbaki aldov bilan shartnoma tuzishni ayb hisoblab, dolyusga kiritgan va aybdorlarga katta jarima belgilagan, yolg'onchi esa xalq ichida sharmanda qilingan. Bundan tashqari, pretor aldov uchun javobgarlikni yo'q qiladigan "kelishuv va bitimlarini" bekor qilgan. Bunday bitimlarning ko'pchiligi sotib olinganligi yoki zo'rlik bilan majburan tuzilganligi uchun hech qanday kuchga ega bo'lmagan shartnoma deb hisoblangan va bekor qilingan.

Zo'rvonlik. Mil. av. I asrlardayoq, Rim huquqshunosligi kuch ishlatib, jismoniy yoki ruhiy zo'rvonlik bilan tuzilgan barcha shartnomalarni haqiqiy emas, deb hisoblaganlar. Rim ma'muriyati orasida sarkashlarni qiynash, qamash shu bilan birga, tamagirlik, poraxo'rlik keng tarqalgan. Chet viloyatlariga borib ishlab kelganlar haqida "qashshoq ketib, boy bo'lib keldi" degan gaplar yurgan.

Ammo ruhiy tazyiqni aniqlash qiyin bo'lgan. Qaysidir holda qaydadir do'q-po'pisa rol o'ynagan bo'lsa, ba'zan shaxsning o'zi kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan qo'rqib yon berishi mumkin bo'lgan. Bunday hollarda pretor sudyaga: "Agar da'vo isbotlansa, unda yetkazilgan zararining 4 hissasiga teng jarima tayinla va kelishuvni bekor qil", degan ko'rsatma bergan. Bu masalaning birinchi qismi pretor edikti bilan, ikkinchi qismi esa sivil huquqi bilan hal etilgan.

Korreol majburiyat. Stipulyatsiya jarayonida kreditor "reus" deb atalgan, bu so'zning ko'pligidan "korreal" so'zi kelib chiqqan. Agar birgina majburiyat bo'yicha bir necha kishi kreditor hisoblansa, shunday deyilgan. Birgalikdagi majburiyat real birgalikdagi talab bilangina emas, ishonchliroq bo'lish uchun ham korreol joriy qilingan. Kreditorlardan birining to'liq qoniqishi boshqalarining da'vosini ham bajarihgan deb hisoblash uchun asos bo'lgan. Birgalikdagi majburiyat har bir kreditorga yakka o'zi

da'vo qo'zg'atish huquqini bersa ham, lekin kreditorlardan birining da'vosi bilan qarz batamom to'lansa, barchasining da'vosi bekor bo'lgan.

Novatsiya. Majburiyatning yangilanishi. Bu masala, avvalo taraflarning biri vafot etganda yuzaga kelgan. Bunda vorislar huquqidan boshqa majburiyatlar bekor qilingan, chunki vorislik butun oilaga taalluqli bo'lgan.

Hayotda esa qarzdorning o'limi bilan ish ancha qiyinlashgan. Ammo novatsiya yo'li bilan bu ahvoldan chiqish yo'lini topganlar, ya'ni shartnoma yangidan tuzilgan. Buning uchun taraflarning roziligi kerak bo'lgan. Bunda bir turdagi shartnoma ikkinchi tur shartnoma bilan almashtirilgan yoki shartnomaning ba'zi shartlari ham o'zgarishi mumkin bo'lgan. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha sotib oluvchi tovar haqini o'z vaqtida to'lamasa, tarafdorlarning kelishuvi bilan tovar haqining to'lanmagan qismi bo'yicha qarz shartnomasini tuzishga yo'l qo'yilgan (majburiyatning yangilanishi haqida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 347-moddasida tegishli qoidalar nazarda tutilgan).

Qarzni to'lash muddatini cho'zish yoki shartnomani biroz o'zgartirish kerak bo'lib qolganda ham novatsiya qo'llanilgan. Klassik davrlarda har qanday novatsiya stipulyatsiyani talab qilgan. Keyingi davrlarda esa litteral shartnomaning o'zi kifoya qilgan. Avvallari novatsiya kreditori almashtirish uchun tuzilgan bo'lsa, keyinchalik murakkabliklardan qochish uchun sessiya usuliga o'tilgan.

Sessiya. Majburiyatni bajarishni talab qilish huquqining bir kreditoridan boshqasiga o'tishi va qisman yon berish sessiya deb atala boshlagan. Bunda kreditor o'rniga uning vakili qatnashgan. Vakildan uch narsa talab qilingan: 1) da'voni himoya qilish uchun butun kuchini sarflash; 2) yolg'ondan saqlanish; 3) ishonch bildirgan, vakolat bergan shaxsga tegishli barcha haqni to'lash. Shunday qilib, kognitsiya odati paydo bo'lgan.

Kognitor talab qilib undiradigan narsani to'lashga (masalan, yeb qo'ygan taqdirda) yetadigan ashyo bo'lishi kerak bo'lgan. **Antoniya Piy** davrida (VIII-XI asrlar) sessiya imkoniyatlarini toraytiradigan ko'p jihatlar bekor qilingan va bora-bora u mustaqil odatga aylangan. Bizning davrimizda ham shunday bo'lib qolmoqda. Kreditor o'z huquqlarini boshqa kishiga (vakiliga) o'tkazib, vakolat beradi (unga sessionar deyiladi), ammo unga o'zining huquqidan ortiq huquq berolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 313-moddasiga binoan, sessiya "Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tish asoslari va tartibi", degan so'zlar bilan ifodalanadi. Ushbu moddaning 1-qismida

kreditorga tegishli bo'lgan huquqning majburiyat asosida boshqa shaxsga o'tkazilishi haqida gap yuritiladi. Lekin ba'zan qonunlarda maxsus nazarda tutilgan hollarda intellektual mulkka asoslangan huquq ham boshqa shaxslarga o'tkazilishi mumkin. Masalan, patent oluvchi shaxs unga bo'lgan huquqni xohlagan shaxsga o'tkazishi mumkin (FK 1088-m.). Tovarlar, ishlar va xizmatlarning barcha guruhlariga yoki bir qismiga nisbatan tovar belgisiga bo'lgan huquqni uning egasi shartnoma asosida boshqa shaxsga berishi mumkin (FK 1105-m.).

Shartlar va muddatlar. Shartnoma – o'z nomi bilan shartnoma, ya'ni u turli shartlarga asoslangan bo'ladi. Ammo Rim huquqidagi shartnomalarda, masalan, “agar falonchi konsul bo'lsa, sen menga falon narsani berasan” deganga o'xshash shartlar ham bo'lgan. Yoki vasiyatnomadagi “agar o'g'il tug'ilsa, falon-falon bo'lsin” kabi shartlar qo'shimcha (ikkinchi darajali) shartlar hisoblangan. Ammo ma'lum sharoitlarda ular ham e'tirof etilgan. Ular ijobiy yoki salbiy xususiyatga ega bo'lishi mumkin bo'lgan. Agar shartnomaning asosiy, muhim shartlari noqonuniy yoki aslida bajarib bo'lmaydigan bo'lsa, qo'shimcha shartlari ham shartnoma bilan birga bekor qilingan.

Shartnoma muddatlari ham turlicha bo'lgan. Masalan, “falon qulimni to'lov puli 100 sesteringga yetganda qo'yib yuboraman” yoki “agar ijarachi falon vaqtgacha narsalarini olib kirmasa, shartnoma bekor bo'ladi” singari tarzda tuzilgan shartnomalar bo'lgan.

4-§. Shartnomaning ijrosini ta'minlash va uning buzilganligi uchun javobgarlik

Shartnomaning ijrosini ta'minlash vositalari. Har qanday kreditor, ayniqsa bu ishda mutaxassis bo'lgan bankchi yoki sudxo'r birovga bergan qarzni undirib olishni o'ylaydi. Uning uchun ushbu qarzning ma'lum bir tartibda va vaqtda qaytarilishi ham katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa zakalat berish, kafillik (kafolat) berish, garov, burdsizlik to'lovi (aybona, neustoyka) kabi vositalar qo'llaniladi.

Zakalat (bay puli) berish rimchasiga “*arra*” yoki “*arxa*” deyilib, qimmatli bir narsani garovga qoldirishdan iborat bo'lgan. qarz shartnomasi bo'yicha uning qiymati ashyo qiymatidan kam bo'lar edi. Keyinchalik zakalat oldi-sotdi ishlarida ham qo'llanila boshlagan, ammo shartnoma bekor qilinganda u ham qaytarib berilgan. Faqat Yustinian davridan boshlab bay puli jarima vazifasini o'tay boshlagan. Aslida Sharqdan kelgan bu odatni Yustinian 628 yilda qonunlashtirgan.

Kafolat. Kafolat masalasini **Gay** ta'riflab bergan. Kafillikka o'tgan kishi shartnoma shartlarini qabul qiladi va qarzdor o'z qarzlarini to'lamagan taqdirda ularni to'laydi. Ammo shundan keyin u ham qarzdorga nisbatan regress da'vo huquqiga ega bo'ladi.

Agar qarzdor majburiyatini bajarmasa yoki o'z vaqtida qarzini to'lama, boshqa bir shaxs ushbu majburiyatning ijrosini o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan. U qarzdor uchun kafolat bergan yoki kafillikka o'tgan. Bu narsa ham stipulyatsiyada keng qo'llanilgan. Bunday kafillikni Rimning badavlat fuqarolari bajarganlar. Ular uchun bu kambag'al fuqarolarga ta'sir o'tkazish, hatto ularni o'zlariga tobe qilish shakllaridan biri bo'lgan.

Majburiyat muddati o'tgach, uning ijro etilmagani uchun kreditor nafaqat qarzdorga, balki kafilga nisbatan ham chora ko'rishga haqli bo'lgan (o'zbeklarda "kafil turma – kafansiz ketasan" degan maqol bor). Demak, qarzdor ham, kafil ham bir xilda javobgar hisoblangan.

Agar qarzdor o'rniga kafil qarzni to'lab yuborsa, qarzdor unga ikki barobar qilib qarzini qaytarishi lozim bo'lgan.

Garov. Digestlarda aytilishicha, garovga narsa qo'ygan kishi bu bilan o'zini majburiyatlar bilan bog'lab beradi. Shuning uchun ham garov rimchasiga pignus, ya'ni "kishan" deb ataladi. Garovni shartnomaga qo'shimcha majburiyat deydilar.

Iqtisodiy rivojlanish davrlariga kelib kreditorga garovni sotish huquqi berilgan. Ba'zan garovga qo'yilgan narsa bir necha kreditorga tegishli bo'lgan. Unda pretor, avvalo, birinchi kreditorning huquqini himoya qilgan.

Garov predmetini ba'zan birovga yoki o'z egasiga vaqtincha foydalanish uchun berib turish ham mumkin bo'lgan. Ko'p hollarda kreditor shartnoma asosiy majburiyatining bajarilish muddati o'tishi bilanoq garovdagi buyumning o'ziga o'tib ketishini shart qilib qo'ygan. Faqat 326 yilda garovdagi narsaning barcha hollarda ham sotilishi va ortiqcha puli egasiga berilishi haqida qaror chiqqan. Bu vaqtga kelib bank ishlarida "ipoteka" degan garov shakli vujudga kelgan.

Ipoteka. III asrga kelib greklardan kelgan ipoteka usuli keng qo'llanila boshlagan. Ipotekaning pignusdan asosiy farqi shundaki, garovga qo'yilgan narsa kreditor emas, qarzdorning o'zida saqlangan va qarzdor undan foydalanib yurishi ham mumkin bo'lgan. Qarzdor u narsani birovga o'tkazib yuborsagina kreditor uni talab qilib olishi mumkin bo'lgan. Agar qarzdor o'z majburiyatini bajarmasa, kreditor uning garovdagi narsasini tortib olgan.

Vaqt o'tishi bilan ipoteka ko'chmas mulkka, birinchi galda, yerga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan, undan keyin qarzdorning bor mulkiga nisbatan belgilash udum bo'lgan. Bu "bosh ipoteka" deb atalgan. Bu odat bizning kunlarda ham davom etmoqda va endilikda ipoteka ommaviy ravishda qayd etiladigan maxsus ro'yxat kitoblar paydo bo'ldi.

Ipoteka O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 265-moddasida nazarda tutilgan.

Shartnomaning bajarilish joyi. Bajarilish joyi yo shartnomada ko'rsatilgan, yo o'z-o'zidan tushunlari bo'lgan. Ammo Italiyaning bosib olinishi va Rimning jahon bozoriga qo'shilishi bilan ish ancha murakkablashgan. Gretsiya, Misr, Finikiya, Karfagen kabi davlatlar bilan aloqalarning o'rnatilishi narsalarni uzoq joylarga olib borish, buning narx-navoga ta'siri masalalarini keltirib chiqar. Bundan tashqari, bozor qoidalarning muayyan muammolarni yuzaga keltirgan. Agar kreditor ikki-uch joyning nomini aytsa-yu, bajaruvchi o'ziga ma'qul joyni ko'rsatmagan bo'lsa (masalan, vasiyatnomada), shartnoma bajarish mumkin bo'lgan joyda bajarilavergan. Ammo javobgar (bajaruvchi) bu haqda ogohlantirilishi kerak bo'lgan. Aks holda shartnoma bajarilmagan deb hisoblangan. Agar oldi-sotdida narsaning bahosi ko'rsatilmagan bo'lsa, unda shartnoma bajariladigan joydagi narx-navo mezon qilib olingan.

Shartnomaning bajarilish muddati. Shartnomada uning bajarilish muddati ko'rsatilgan bo'lsa, hech qanday muammo bo'lmagan. Agar u ko'rsatilmagan bo'lsa, unda kreditor talabiga qarab bajarilishi kerak bo'lgan. Ammo bajarilish joyi uzoqda bo'lsa, uni hisobga olishga to'g'ri kelgan. Masalan, Rimda kelishilgan yukni Karfagenda topshirish kerak bo'lsa, yo'lga ketadigan vaqtni hisobga olishga to'g'ri kelgan. Agar kreditor "mendan olayotgan qarzingni boshqa shahardagi o'g'linga to'laysan", desa u shunga yarasha vaqt berishi kerak bo'lgan. Agar muddat haqida tortishuv chiqsa, uni sud hal qilishi kerak bo'lgan. Muddat belgilanadigan barcha hollarda kreditorning emas, qarzdorning ahvolini hisobga olish kerak bo'lgan.

Agar to'lash vaqti o'tib ketsa, da'vo muddati boshlangan. Ikki tomon kelishgan bo'lsa, muddat o'tmagan hisoblangan. Basharti shartnomada aniq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, qarzdorga imkoniyat bo'lishi uchun talab oldindan bildirilishi haqida ogohlantiruvchi pisanda bo'lishi talab etilgan. Kreditor o'z vaqtida kelmasa, narsa yoki pul deponentga (saqlashga) berilgan; mazkur buyum yo'qolsa yoki nobud bo'lsa, kreditor aybdor hisoblangan.

Aybona (burdsizlik to'lovi). Bunda taraflardan biri qo'yilgan shartni bajarmagan taqdirda, jarima to'lashni zimmasiga oladi. Kreditor uchun buning ikki taraflama foydasi bo'lgan: birinchidan, bu bilan shartnomaning bajarilishi ta'minlangan; ikkinchidan, unga yetkazilgan zarar qoplangan. Digestlarda bu jarimani to'lashga majbur qilish mumkin emasligi haqida ko'rsatma berilgan, ammo bu odat davom etavergan.

Aybdorlik va zararni qoplash. Yuqorida Rim yuristlarining "dolyus" degan atamalari, uning "yozuv niyat" ma'nosini anglatishi haqida so'z yuritilgan edi. Har bir shartnoma tomonlaridan shartnoma predmetini ehtiyot qilish talab etilgan. Masalan, ijarachining ijara mulkiga o'z mulkidek qarashi talab qilinsa-yu, u mazkur talabni bajarmasa, demak, uning aksi, ya'ni beparvolik, aybdorlik paydo bo'ladi. Ammo ijarachi hamma lozim ehtiyot choralarini ko'rishga qaramay, masalan, tabiiy ofat natijasida ijara mulki shikastlansa yoki nobud bo'lsa, aybsiz hisoblanadi. Binobarin aybdan aybdorning farqi bor.

Ayb shakllari har xil bo'lgan, avvalo, qo'pol xato (lata kulpa)ni o'ta ketgan mas'uliyatsizlik deb hisoblaganlar. Yuristlar bunday aybni "yovuz niyatga" qo'shish tarafdori bo'lganlar. Ammo Selz buni xato hisoblagan va tarixan haq bo'lib chiqqan. Yengil mas'uliyatsizlikni "kulpa" deganlar. Zararni qoplash masalasiga kelganda esa, barchalari "ayb yo'q joyda, zarar ham yo'q" degan fikrda bo'lganlar. Ammo "lata kulpa" qasd bilan tenglashtirilgan va javobgarlikni keltirib chiqaruvchi asos hisoblangan. U javobgarlikdan ozod etish uchun bo'ladi, degan kelishuv haqiqiy hisoblanmagan.

Kustodia. Kustodia – saqlash, muhofaza qilish degani bo'lib, Rim huquqi ashyo haqida g'amxo'rlik qilishdan uni asrab, avaylashni yuqori qo'ygan. Masalan, tikuvchi bir kiyimni tuzatib berishga olsa, uning saqlanishini ham bo'yniga oladi. Qulni yoki molni sotib berishni bo'yniga olgan dallol uni boqishni ham o'z zimmasiga olgan. Bunda gap ashyolarning o'g'irlanishi, yo'qolishi, yonib ketishi kabi hodisalar uchun javobgarlik xususida bormoqda.

Yengib bo'lmas kuch. Yengib bo'lmas kuch, tabiiy ofatlar, masalan, zilzila, bo'ron kabilarni hisobga olmay bo'lmaydi. Agar birovning tomidagi cherepitsalarni, shiferlarni uchirgan shamol ularni birovnikiga tushirib, sigirini bosib o'ldirib qo'ysa, tomning yopilishini tekshirish kerak bo'ladi. Agar tom lozim darajada mustahkamlanmagan bo'lsa, javobgarlik, ayb masalasi vujudga keladi.

Manfaatdorlik. Rim yuristlari shartnomani bajarmaslik yoki javobgarning delikti natijasida kreditorga yetkazilgan ashyoviy zararni shunday deb ataganlar. **Kreditorning zarari ikki xil hisoblangan:** 1) u shartnomaning bajarilmagani uchun mol-mulknı xarajatları, kirishilmasdanog

ing bajarilmagani uchun mol-mulkni xarajatlari, kirishilmasdanoq bir qator xarajatlar shikastlanishi va nobud bo'lishi – real zarar; va 2) shartnoma bajarilmagani uchun u ololmay qolgan foyda – boy berilgan daromad. Manfaatni tarafning alohida talablari bilan chalkashtirmaslik kerak. Masalan, o'ldirilgan qul uchun xo'jayin: u mening nikohsiz tug'ilgan o'g'lim edi, shuning uchun unga mehrim alohida edi, deb juda yuqori baho talab qilsa, bu hisobga olinmagan. Digestlarda: “har bir keltirilgan zarar uchun o'sha bilan bog'liq xarajatlargina to'lanadi”, deyilgan.

5-§. Delikt (huquqbuzarlik)dan kelib chiqadigan majburiyatlar

Ushbu darslik Rim xususiy huquqiga bag'ishlangani uchun uning bu qismida ham “**Ulpian formulasi**”ga binoan “Ayrim shaxslarning huquq va manfaatlariga”ga taalluqli huquqbuzarlik haqida so'z yuritamiz. Bunga shaxsni haqoratlash, shikastlantirish, kaltaklashlarga emas, hozirgi davrda jinoyat “**kriminal**” hisoblangan boshqa (masalan, o'g'rilik, talonchilik, birovning mulkiga zarar yetkazish kabi) xatti-harakatlar ham kiradi.

Tarixiy kelib chiqishiga ko'ra, deliktlar XII jadval qonunlariga borib taqaladi. Unda qonga qon talab qilish, hatto o'lim jazosi ham bo'lgan. Katta jinoyat yoki yengil ayblar uchun jarima solingan. Jadvallarda “davlatga qarshi jinoyat” tushunchasi ham bo'lgan. Ularda Rimga hujum qilish uchun gij-gijlash, sudyalarning poraxo'rliigi kabi ba'zi jinoyatlar uchun o'lim jazosi berilishi haqida yozilgan.

Inyura. Bu atama, keng ma'noda, har qanday huquqbuzarlikka, ammo keyinchalik ko'proq jismoniy shikast yetkazishga nisbatan ishlatilgan. Pretorlar kishini tahqirlash, haqoratlashlarni ham, oilaga nifoq solishni ham inyura doirasiga kiritganlar. XII jadvalda belgilab qo'yilgan jarimalar ro'yxatini pretorlar jabrlanuvchi talab qilgan jarimalar bilan to'ldirganlar. Faqat jabrlanuvchiga (u o'lganda esa, vorisiga) da'vo qilish huquqi berilgan.

Furtum (o'g'rilik). O'g'rilik boshqalar buyumini, ashyosini yashirin tarzda olib ketish hisoblangan. XII jadvalda tungi va kunduzgi o'g'rilik alohida-alohida qaralgan. Tungisiga nisbatan qattiqroq jazo qo'llanilgan. O'g'irlangan narsa yonidan topilgan kishi o'g'ri deb hisoblangan. Pretorlik huquqida saqlashga berilgan yoki garovga qo'yilgan ashyolardan foydalanish ham O'g'rilik hisoblangan.

Bosqinchilik. O'g'rilikdan farqli o'laroq, bosqinchilik yashirin emas, balki ochiqdan-ochiq sodir etiladi. U tungi O'g'rilik bilan barobar jazoga loyiq hisoblangan.

Italiyada sullanslar va marianslar orasidagi fuqarolar urushi natijasida bosqinchi banditlar ko'payib ketgan davrda bosqinchilikka qarshi alohida

qonun chiqarilgan va uning muallifi nomi bilan **“Lukulla edikti”** deb atalgan.

Akviliy qonuni. Notiq Akviliy nomi bilan atalgan bu qonun (mil. av. 286 y.) o‘zigacha bo‘lgan barcha jazolarni bekor qildi va yangi jazolar joriy etdiki, bundan keyingi sudlar faqat shu qonunni qo‘llashlari lozim bo‘lgan. qonunda huquqbuzarlikning hamma turlariga nisbatan turli jarimalar va boshqa jazo choralarini belgilab chiqilgan. Masalan, **quyidagi huquqbuzarliklarga:** 1) birovning qulini yoki hayvonini o‘ldirish; 2) birovning ashyosini shikastlantirish yoki boshqacha zarar yetkazish; 3) qo‘shimcha kreditor (adistipulyator) tomonidan yetkazilgan zarar; 4) birovning quliga yoki hayvoniga zarar yetkazish.

Akviliy qonuniga asosan, qulning yoki hayvonning o‘limi yoki jarohatlanishiga olib keluvchi atayin qilingan jismoniy harakat “zarar” hisoblangan. Ammo bu harakatning qasddan yoki bilmasdan qilinganligi haqida bahslar ko‘p bo‘lgan. Qonun aybdorga nobud bo‘lgan ashyoning eng yuqori bahosini to‘lash majburiyatini yuklagan. Agar aybdor buni asossiz rad qilsa, jarima ikki barobar oshirilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Majburiyat nima?
2. Delikt va kontrakt majburiyatlar qanday farqlanadi?
3. “Yuridik fakt” tushunchasi?
4. Majburiyatlarni bajarish shartlari Rim huquqida qanday belgilangan?
5. Majburiyatlar qanday vujudga kelgan?
6. Shartnomalarning qanday shakllari bo‘lgan?
7. Shartnomaga nima asos bo‘la oladi?
8. Shartnoma predmeti nimadan iborat?
9. Shartnoma nuqsonlari nimalardan iborat?
10. Dolyus nima?
11. Majburiyatlarda “Kauza” deganda nimani tushunasiz?
12. Majburiyatlarda novatsiya (yangilanish) qanday ahamiyatga ega?
13. Sessiya nima va u qanday maqsadda qo‘llaniladi?
14. Majburiyat ijrosini ta‘minlashning qanday usullarini bilasiz?
15. Garov Rim huquqida qanday holatlarda qo‘llanilgan?
16. Ipoteka nima?
17. Shartnomaning bajarilish muddati qanday belgilangan?
18. Rim huquqi bo‘yicha aybning qanday shakllari nazarda tutilgan?
19. Zararni belgilash va uni undirish qanday amalga oshirilgan?
20. Delikt majburiyati nima va uning qanday turlari mavjud bo‘lgan?

VIII BOB. SHARTNOMALARNING ALOHIDA TURLARI. PAKTLAR VA KVAZIKONTRAKTLAR

1-§. Verbal shartnomalar

Gap shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni amalga oshirish vazifalari haqida borar ekan, ikki narsani ta'kidlab o'tish kerak: birinchidan, har ikki taraf o'z roziligi bilan bitim tuzgan; ikkinchidan, shartnoma shartlari va qonun oldida har ikki taraf ham barobar. **Neksum** (qarzini to'lamaganni qul qilish huquqi) bekor qilinganidan keyin jarima faqat pul yoki ashyo shaklida solinadigan bo'lgan. Janjal chiqsa, hokimiyatga (pretor, sud va sh.k.) murojaat qilingan. Shuning uchun Rim shartnomasida majburiyat huquqi haqida gapirilganda, tomonlar huquqining tengligi, shartnoma shartlarini bajarmaganlarning mulkiy javobgarligi, tovarlarga nisbatan taklif va talab kabi sharoitlar hisobga olinishi kerak. Faqat huquqiy himoya bilan ta'minlangan shartnomagina rimcha shartnoma hisoblanadi.

Bu shartnomalar quyidagi to'rt asosdan biriga ega bo'lgan:

1) **verbis**, ya'ni an'anaviy iboralarni og'zaki takrorlash asosida tuzilgan va ular verbal shartnomalar deyilgan; 2) **litteris** – uy kitoblariga yozilgan literal shartnomalar; 3) **real** – bu shartnomalar buyumni topshirish bilan boshlangani uchun real shartnomalar deyiladi; 4) **konsensus** – kelishuvga asoslangan shartnomalar.

Eng qadimiy Rim shartnomalari shakllaridan biri stipulyatsiya bo'lgan. U din tomonidan ham ma'qullanib, muqaddaslashtirilgan og'zaki kelishuv bo'lib, unda qasam va duo so'zlari ham ishlatilgan (qarg'ish).

Stipulyatsiya ta'siri. Klassik Rim huquqida stipulyatsiya universal yuridik shaklda qo'llanilgan. Unda bir tomonda qarz beruvchi va boshqa tomonda qarzdor turgan. qarz faqat pul bo'lmay, har qanday buyum yoki mulk bo'lishi mumkin bo'lgan. Undan tashqari, novatsiya (o'tkazish) ham, hatto shartnomaning bajarilganligi haqida soxta hujjat tuzilishi ham mumkin bo'lgan. Chunki "sponde", "spodeo" so'zlarini aytishning o'zi kifoya qilgan. Har qanday dolyus (aldov) ham majburiyatga kiritilgan va sud uchun hujjat vazifasini bajargan.

Keyinroq majburiyatlarni yozma ravishda hujjatlashtirish odat tusiga kirgan.

2-§. Litteral shartnomalar

Uy daftarlari. Biz uy daftarlari tutilib, unga qarzlarning yozib borilganligi haqida gapirgan edik. Bu yozuvlar vaqti-vaqti bilan ko'zdan kechirilib, tekshirilib va aniqlanib turgan hamda shartnoma shaklini ham ola boshlagan. Chunki oldi-sotdi ishlari talabi bilan yoki qarzning qo'shilishi yoki kamayishi natijasida yangi kelishuvlar paydo bo'lgan. Ular yozuvda o'z aksini topgan va literal (yozilgan) majburiyatga aylangan. Ba'zan birovning qarzi boshqa birovga (kelishilgan holda) yozilgan. Bularning hammasi novatsiya, ya'ni yangi kelishuv deb tushuntirilgan.

Uy daftari juda oddiy bo'lishiga qaramay, bankirlar, savdogarlar va boshqalar uchun ishonchli hujjat bo'lib, bitim va shartnomalar o'shandan boshlangan, desak bo'ladi.

Orada tilxat degan yozma hujjat ham paydo bo'lgan. U Yunonistondan kirib kelgan.

Singraf va xirograflar. Rimda tilxatni **singraf** (grekcha "yozma hujjat") deb ataganlar. U ikki nusxada tuzilgan va o'ziga xos veksel vazifasini o'tagan. Bu hujjatni qo'llash uchun faqat rimliklargagina emas, balki peregrinlarga ham ruxsat etilgan. Singraflar uchinchi shaxs nomidan yozilgan (masalan, "Falonchi buncha qarz" shaklda) va uni avval qarzdor so'ngra guvohlar imzolaganlar.

Xirograf yunoncha "o'zi qo'ygan qo'l" degani bo'lib, bunday tilxatga guvohlar aralashmagan. Xirograf birinchi shaxs nomidan "Men, falonchi pismadonchiga buncha qarzman" degan tartibda tuzilgan.

Imperiya davrida xirograflar o'zining soddaligi va osonligi bilan singraflarni siqib chiqargan.

3-§. Real shartnomalar

Qarz. Real shartnomalar birovga berish mo'ljallangan ashyo unga berilgan vaqtdan boshlab tuzilgan hisoblangan. Birovga berilgan pul yoki ashyo uning o'z mulkiga aylangan va u mazkur ashyolar bilan nima xohlasa, shuni qilish huquqiga ega bo'lgan. Qarz bergan kishi qarzdordan o'z puli yoki narsalarining xuddi o'zini emas, balki xuddi shunday turdagi (o'sha xil va o'sha sifatidagi) narsalarni qaytarib olgan. Shartnoma muddati haqida "birinchi talabdayoq qaytarilishi lozim" deyilgan yoki boshqa muddat ko'rsatilgan. Qarzlarni unga qo'yiladigan foizlar bilan bog'liq, ammo Rim shartnomalarida bu ko'rsatilmagan (bu hol qadimiy odat – bi-

rovga yordam berish bilan bog‘liq bo‘lsa kerak), foizlar haqida og‘zaki gaplashib olingan yoki alohida hujjat tuzilgan. qarz haqidagi shartnoma bir yoqlama hisoblangan, chunki kreditor narsani, masalan, don saqlanayotgan ombor kalitini qarz oluvchiga bergach, qolgan hamma majburiyat (donni saqlash, ishlatish, qaytarish va h. k.) qarzdorning zimmasiga tushgan.

Ssuda shartnomalari. Ssuda (lotincha *commodatum*) qarzdan farq qilgan. Qarz berilgan narsani ishlatib yuborish va o‘rniga boshqasini qaytarish mumkin bo‘lsa, ssudaga berilgan narsaning o‘zini ishlatib, so‘ng o‘zini qaytarib berish lozim bo‘lgan. Bunday vaqtincha berilgan ashyo bilan bog‘liq munosabatlar ham turli murakkablikdagi yuridik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan: berilgan ashyo buzuq, idish teshik va boshqalar bo‘lib, qarzdorga zarar yetkazsa, kreditor aybdor hisoblangan va, aksincha, olingan narsani qarzdor sindirib, buzib qo‘ysa, qarz olgan shaxs aybdor hisoblangan.

Oddiy qarz va ssudaning farqlari quyidagilarda namoyon bo‘lgan:

Qarzda:

- 1) ashyo – umumiy sifatga ega hajm, og‘irlik, sanoq yoki miqdor bilan o‘lchanadigan ashyo;
- 2) ashyolar qarzdorga o‘z mulki sifatida berilgan;
- 3) ashyoning taqdiri, ya‘ni nobud bo‘lishi, shikastlanishi va boshqalar qarzdorning zimmasida bo‘lgan;
- 4) majburiyat faqat bir tomonlama bo‘lmagan.

Ssudada:

- 1) xususiy alomatlar bilan belgilanadigan ashyolar berilgan;
- 2) ashyo vaqtincha foydalanib, qaytarib berilgan;
- 3) ashyoning tasodifan nobud bo‘lishi kreditorning zimmasida bo‘lgan;
- 4) qarzdorning zimmasiga yuklangan asosiy majburiyatlardan tashqari, boshqa turli majburiyatlar ham vujudga kelishi mumkin bo‘lgan.

Omonat saqlash shartnomasi. Omonat saqlash shartnomasi (depositum) ham o‘z xususiyatlariga ega bo‘lgan. Bunday shartnoma bo‘yicha saqlashga berilgan ashyo birinchi talab qilinishi bilan yoki belgilangan muddatda qaytarib berilishi lozim bo‘lgan. Bu shartnomaga haq to‘lanmagan, shuning uchun ashyo saqlovchi (depozitar) ushbu narsalarni o‘z mulkidek saqlashi kerak bo‘lgan. Omonatni saqlashga beruvchi (deponent) omonat saqlovchi sifatida insofli adolatli shaxslarni tanlagan. Omonat saqlovchi ashyoning nobud bo‘lishida uning aybi (qasd yoki qo‘pol ehtiyotsizligi) bo‘lganida javob bergan, yengil ehtiyotsizlikda esa javobgar bo‘lmagan.

Ikki holda bu qoidadan chekinish mumkin bo'lgan:

1) agar omonat saqlovchi o'z ixtiyori bilan saqlashga olgan bo'lsa, ashyoning shikastlanishi yoki yo'qolishiga kustodiya yo'li bilan javob bergan, chunki ashyoga o'z mulkidek qarashi lozim bo'lgan; 2) saqlashga berilgan narsa (o't tushish, yer qimirlash kabi) favqulodda sharoitda omonatga topshirilgan bo'lsa, omonat saqlovchining ashyo uchun mas'uliyati ikki baravar oshgan.

Omonat saqlashga berilgan ashyolar bilan bog'liq ikki xil da'vo, ya'ni: 1) ashyolardan foydalanish va 2) ashyolarni qaytarib berish haqidagi da'volar bo'lgan.

4-§. Konsensual shartnomalar

Ikki tomonning o'zaro oddiygina kelishuvidan vujudga kelgan shartnomalar konsensus shartnomalari deyilgan. Ular oldi-sotdi, birgalikdagi faoliyat, pudrat, ishchi yollash, ijara kabilarda qo'llanilgan.

Oldi-sotdi munosabati. Qadimgi Rimda oldi-sotdi shartnomalari birinchi o'rinda turgan, xizmat ko'rsatish sohalari endigina paydo bo'la boshlagan. Qulchilik tuzumi xizmat ko'rsatishni unchalik taqiqlamagan, ammo uning huquqiy asoslari bo'lmagan. Oldi-sotdi shartnomasining asosiy ko'rsatkichi tovar-pul yoki pul-tovar munosabatidir (**emptio-venditio**). Bu shartnoma taraflar kelishgan vaqtdan boshlab kuchga kirgan. Bunda sotuvchi oluvchiga pul evaziga ma'lum bir buyumga mulk huquqini batamom o'tkazib bergan. Oldi-sotdi munosabatlari ashyo almashtirishning qiyinlashishi sababli yuzaga kelgan. Shu bois barcha narsalarga almashtirish mumkin bo'lgan tovar-pul vujudga kelgan. XII jadval amal qilgan davrda bu mis quymasi bo'lgan.

Mil. av. V asrda bronzadan zarb qilingan **32,5 grammlı ass** (chaqa pul)lar paydo bo'lgan.

Oldi-sotdi shartnomasining asosiy predmeti – tovar (merx). Muayyan jismiy alomatlarga ega bo'lgan va fuqarolik muomalasidan chiqarilmagan ashyolar **tovar** hisoblanadi. Busiz oldi-sotdining yuzaga kelishi mumkin emas. Oldi-sotdida xaridor, sotuvchi va ashyo qatnashadi. Sotilayotgan ashyo ikki talabga javob berishi kerak: u jismoniy va yuridik jihatdan yaroqli bo'lishi kerak. Jismoniy jihatdan u o'z vazifasini bajara olishi, yuridik jihatdan esa o'z sotuvchisining bo'lishi, ya'ni o'g'irlab olinmagan bo'lishi shart.

Oldi-sotdi shartnomasi tovar bahosi, kelishilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Baho haqidagi kelishuvda, birinchidan, baho pulda

ifodalanishi, ikkinchidan, pulning aniq miqdori belgilangan bo'lishi, uchinchidan esa baho tovarning haqiqiy narxi darajasida bo'lishi shart.

Sotuvchining majburiyatlari. Sotuvchi xaridorga ashyoni mulk qilib topshirishi, undan foydalanish yo'llarini o'rgatishi va, nihoyat, boshqalarning unga da'vo qilolmasligini ta'minlashi shart. Sotilgan ashyoda boshqa shaxslarning huquqi – eviksiya bo'lmasligi kerak. Bu o'rinda gap qandaydir sababga ko'ra ashyoning sotuvchiga tegishli emasligi haqida bormoqda. Hatto buni sotuvchining o'zi ham bilmagan hollar bo'lishi mumkin.

Mansipatsiya davrida bunday hollar ma'lum bo'lib qolganda sotuvchi xaridorga to'langan narxni ikki baravar qilib qaytarib berishi qonunda belgilab qo'yilgan va bu qoida uzoq vaqtgacha amalda bo'lgan. Sotilgan ashyoning kamchiliklarini yashirganlik yoki bu haqda ogohlantirmaganlik uchun ham sotuvchi javobgar bo'lgan. Bunday holda sotuvchi to'langan pulni ikki baravar qilib qaytargan.

Bundan tashqari, yana ikki yuridik vosita qo'llanishi mumkin bo'lgan: shartnomani bekor qilish yoki ashyoning narxini pasaytirish. Sotuvchi xaridor oldida stipulyatsiya majburiyatlarini zimmasiga olgan, ammo mayda nuqsonlar va o'zi ham bilmaydigan kamchiliklar uchun javobgar bo'lmagan. Masalan, bir guruh qullarni ko'tara xarid qilib, bittalab sotgan sotuvchi ularning fe'lini bilmagani tabiiy hisoblangan. Qul g'ilay yoki cho'loq bo'lsa, xaridor ko'rib olishi kerak bo'lgan.

Ashyoning tasodifan nobud bo'lishi. Agar kelishuv, bitim tuzilgan bo'lsa-yu, xaridor ashyoni o'z vaqtida olib ketmay, u tasodifan yo'qolib qolsa hamda sotuvchi ham bundan bexabar bo'lsa (masalan, olingan qul o'lib qolsa yoki uy yonib ketsa), ayb xaridorga tushgan.

Har ikki tomonga ham huquq va majburiyatlar yuklaydigan mazkur bitimlar "sinallagmatik" shartnomalar deyilgan. Bu so'z yunonchada "o'zaro barobar bajarish" degan ma'noni anglatadi.

5-§. Shartnomalarning ayrim turlari

Yollash shartnomalari. Ular uch xil, ya'ni ashyolarni ijaraga olish, xizmatchilarni yollash va pudrat shartnomalaridan iborat bo'lgan. Ularning uchalasi ham oldi-sotdi shartnomasi kabi konsensual va sinallagmatik shartnomalar bo'lgan. qadimgi Rimda dastlab shartnomalar iqtisodiyotning rivojlanishi bilan ana shunday turlari kelib chiqqan. Keyinchalik shunday turlarga bo'lingan.

Narsalarni ijaraga olish. Bunda quyidagi belgilar mavjud bo'lgan:

A. Ijaraga beruvchi (lokator)ning majburiyatlari:

- 1) xaridorga buyumni to'liq, bus-butun holatda berish;
- 2) alohda belgili narsani berish;
- 3) vaqtinchalik foydalanish uchun berish;
- 4) lozim bo'lib qolsa, ijarachining huquqlarini himoya qilish;
- 5) agar ijaraga beruvchining aybi bilan ashyoda kamchilik borligi ma'lum bo'lsa, uni tuzatish uchun ketgan xarajatlarni to'lash.

B. Ijaraga oluvchining majburiyatlari:

- 1) shartnomada belgilangan vaqt tugashi bilan ashyoni qaytarish;
- 2) ashyoni bus-butun holatda qaytarish;
- 3) shartda ko'rsatilgan haq bilan birga qaytarish;
- 4) olingan ashyodan uning tayinlanish maqsadi bo'yicha foydalanish;
- 5) ashyodan shartnoma shartlariga muvofiq foydalanish.

Ijara haqining pul yoki ashyo bilan to'lash mumkin bo'lgan. Masalan, yerni ijaraga olib ishlagan kishi hosilning bir qismini berishi mumkin bo'lgan. Prekor usulida, masalan, shartnoma bir yilga tuzilgan bo'lsa, agar ijaraga beruvchi indamasa, o'z-o'zidan yana bir yilga cho'zilavergan. Ijara haqini qismlarga bo'lib, ya'ni har uch oyda, har yili, har oyda to'lash ham mumkin bo'lgan. Ijaraga olgan kishi ashyoni yana boshqa odamga ijaraga berishi ham mumkin bo'lgan. Ijarachining shu mulkka (masalan, yerning holatini yaxshilash, imoratlarni ta'mirlashga va h. k.) sarflagan xarajatlarini qoplash ancha murakkab masala bo'lgan va sud orqali da'vo tartibida hal etilgan.

Ijara shartnomasi quyidagi hollarda bekor qilingan:

- 1) shartnoma muddatining tugashi;
- 2) ijarachining ikki yil ichida ijara haqini to'lamasligi;
- 3) ashyodan noto'g'ri foydalanish;
- 4) berilgan ashyo ijaraga beruvchining o'ziga kerak bo'lib qolgan taqdirda.

Turli xizmatlar ko'rsatish uchun xizmatchini yollash. Xizmatchi sifatida yollash qullardan boshlangan va keyinchalik mardikor va batraklar, ustalar (hunarmandlar) ham xizmatga yollangan. Bunday yollanish rimliklarining obro'ini tushirgan bo'lsa, peregrinlar uchun oddiy hol bo'lgan. Albatta, jamiyat yurist, tabib, yer o'lchovchi kabi mutaxassislarning xizmatiga muhtoj bo'lgan, ammo ular yollanib haq olmaganlar, balki shunday odamgarchilik yuzasidan yordam bergandek bo'lganlar, ammo ularga ham hadya berish orqali haq to'langan.

Xizmatchi yollashning umumiy qoidalari:

- yollanma xizmatchining mehnatidan foydalanuvchi shaxs yollan-ganga doimiy ish haqi to‘lab turishi kerak;
- yollangan shaxsning bemorligi yoki nogiron bo‘lib qolishi uni haq talab qilish huquqidan ham mahrum qiladi;
- agar xizmatga yollangan shaxs vafot etsa va ko‘rsatiladigan xizmat uning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lmasa adolat yuzasidan shartnoma bajarilishi lozim.

Pudrat. Pudratda ko‘rsatiladigan xizmat emas, ishning, faoliyatning oxirgi natijasi hisobga olingan. Masalan, bir imoratni qurish pudratga berilgan bo‘lsa, hisob-kitob qilish uchun imorat shartnomada ko‘rsatilganidek bitishi shart bo‘lgan.

Pudratchi (ishchi) quyidagilar uchun javobgar bo‘lgan:

- uning aybi bilan ish natijasining sifatiga zarar yetganligi;
- malakaning yetishmasligi oqibatida ishni bajara olmaganlik yoxud sifatsiz bajarganlik;
- pudratchining o‘zi yollagan shaxslar (yordamchilar, mardikorlar) ishining natijasi uchun ham javobgarligi.

Bitmagan ish natijasi yoki narsaning yo‘qolishi, kuyishi, buzilishiga ham pudratchi (masalan, tikuvchi) javobgar bo‘lgan. Faqat tabiiy ofatlar oqibatida ish natijasiga yetgan zararlar uchun u javobgar bo‘lmagan.

Shirkat (birgalikda faoliyat ko‘rsatish) shartnomasi. Rim oilasini ba‘zan “konsorsium” deb ham ataganlar. U tom ma‘nodagi shirkat bo‘lgan desa ham bo‘ladi. U oila boshlig‘i qo‘l ostidagi kishilarning va mol-mulkning birlashmasi bo‘lgan.

Respublikaning ilk davrida turli ishlab chiqarishlarning birlashishi natijasida shirkatlar paydo bo‘la boshlagan. Ular, avvalo, oilaviy munosabatlar zahirida amalga oshirilgan, ammo asta-sekin o‘z xususiyatlariga ega mustaqil shartnoma sifatida shakllana boshlagan. Shirkat a‘zolari sheriklar hisoblangan. Sheriklarning barchasi qonunga to‘g‘ri keladigan, o‘zlariga ham, jamiyatga ham foydali bir maqsadga intilishlari lozim bo‘lgan. Sheriklarning har biri o‘z shirkat faoliyatini amalga oshirish uchun bir qism mablag‘larini pul yoki ashyo bilan qo‘shishlari kerak bo‘lgan. Ular o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv boshqa shartnomalardan ajralib turgan va doimiy bo‘lgan. Sheriklardan birining o‘limi yoki shirkatdan chiqishi bilan shirkat tarqalgan yoki qayta tashkil qilingan. Har bir shirkat a‘zosining qo‘shgan mablag‘i turli miqdorda bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan. Foyda shunga qarab taqsimlangan.

Qatnashchilar o‘z mablag‘larini birlashtirib, shirkat kapitaliga aylantirganlar, ammo istaganlar o‘z mablag‘ini alohida hisobda saqlashlari va

agar chiqsalar olib ketishlari ham mumkin bo'lgan. Foyda va zarar barcha sheriklar o'rtasida baravar taqsimlangan. Vaqt o'tishi bilan ma'lum ishlarni bajaruvchi ixtisoslashgan shirkatlar ham vujudga kelgan. Ular o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishgach, tarqalib ketgan.

Bu shirkatlar Rim xususiy huquqida yuridik shaxs sifatida qabul qilinmagan. Buning ko'pgina sabablari bo'lgan. Xususan, ularda maxsus ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan rahbar shaxslar belgilanmagan. **Ulpianning yozishicha, quyidagi hollarda shirkat tugatilgan:** 1) qatnashchilar qolmaganda (vafot etishi, shirkatdan chiqishi va h. k.); 2) mablag' tugab qolganda (bankrotlikda); 3) sheriklar kelishuvi bilan tarqatilganda; 4) sheriklar o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilmaganda. Bundan tashqari, birgina maqsad uchun tuzilgan vaqtinchalik shirkatlar oldiga qo'ygan vazifasi bitgach yoki muddati tugagach, tarqab ketgan.

Topshiriq shartnomasi. Savdo-sotiq ishlarining ba'zilarini savdogarning shaxsan o'zi bajara olmasligi singari holatlar natijasida birovga iltimos qilish, va'dasini olish hollari yuz bergan va topshiriq shartnomalari (**mandatum**) yuzaga kelgan. Bu shartnoma boshidanoq Yus Gensium, ya'ni xalqlar huquqi tizimida xalqaro miqyosdagi shartnoma bo'lib yuzaga kelgan. Bu shartnoma tekin hisoblanagan, ammo berilgan topshiriqqa anchagina mehnat talab qilgan taqdirda bajaruvchiga haq (gonorar) berish mumkin bo'lgan.

Topshiriq shartnomasi kuchga kirishi uchun, birinchidan, uning g'ayriqonuniy bo'lmasligi, ikkinchidan, topshiriq beruvchi, oluvchi (bajaruvchi) va boshqa shaxsning undan manfaatdorligi zarur bo'lgan. Bajaruvchi **mandatariy** deyilgan. Mandatariyga topshiriq beruvchi nomidan bitimlar tuzish, ularning bajarilishini talab qilish, hatto sudda qatnashish huquqlari berilgan. Shartnoma topshiriq beruvchining xohishi bilan yoki bajaruvchining raddiyasi (protesti) bilan tugatilgan. Topshiriqni bajarish xarajatlarini topshiriq beruvchi qoplagan. Mandatariy topshiriq beruvchini ogohlantirmay turib ishini to'xtatsa, javobgar bo'lgan.

6-§. Paktlar va kvazikontraktlar

Paktlar. Adolat va insoflilikni himoya qilishda, pretorlarning tashabbuskorligini ta'minlashda paktlarning ahamiyati katta bo'lgan.

“**Paktum**” atamasi bilan Rim yuristlari norasmiy bo'lgani uchun dastavval da'vo bildirish orqali himoyaga ega bo'lmagan majburiyatlarni

ataganlar. Ularning kelib chiqishini XII jadval qonunlari bilan bog'laydilar. Keyinchalik pretorlar ham paktlarni himoya qila boshlaganlar, chunki ular adolatga asoslanganlar. Ularning alohida, maxsus predmetlari bo'lmagan, ular shartnomalarni aniqlash, shartnomaga qo'shimcha hujjat, dalil uchun qo'llanilgan.

Pretor: "mazmunida "dalyus-malyus"i bo'lmagan, qonunga xilof bo'lmagan, xalq majlislari, dekretlar, ediktlarni buzmaydigan paktlarni men himoya qilaman", – deb yozgan. Paktga ekssepsiya yo'li bilan murojaat etilgan va uni pretor ham, sudya ham rad etolmaganlar.

Kvazikontraktlar. Deylik, bir kishi do'konining tomini shamol uchirib ketdi. Egasi bir yoqqa ketgan. Ichidagi narsalar yomg'irda qolmasligi uchun boshqalar uni tuzatib qo'ydilar. Bu ishni ular yordam sifatida qildilar. Ammo unga muayyan miqdordagi material, mablag' sarf bo'ldi. **Rimda:** "Xizma-tingizga tashakkur, xarajatlarni esa to'lash kerak" degan gap bor. Mana shunday holat **kvazikontrakt** deb atalgan. **R. Zom** buni "shartnomasifat sharoit" degan. Agar majburiy bo'lmay turib, hatto yanglishib, birovga haq to'lab qo'ygan paytda ham kvazikontrakt holati hech qachon chin istakni ifoda etmaydi. Shu bois, bu holatda ham shartnomaning asosi bo'lmaydi va u kvazikontraktga kiradi.

Bunday holatlar uchun ikki xil da'vo o'ylab topilgan, ulardan birini kondikSION da'vo deb ataganlar. Bu so'z qadimgi Rim atamalaridan bo'lib, ma'lum pul yoki ashyo talab qilingan sivil da'voni bildirgan. Kvazikontraktida ham bu atama pul yoki ashyoni talab qilishda ishlatilgan. Ikkinchisi – biror maqsadni amalga oshirish uchun mablag' talab qilish da'vosi. Ammo ko'zlangan vazifa bajarilmasa yoki uni bajarib bo'lmasa, kondiksiya holati vujudga kelgan, chunki bajarilmagan ish uchun pul yoki boshqa mablag' olingan.

Bunda vindikatsion da'voni qo'llab bo'lmaydi, chunki ushbu da'vo javobgar xususiy alomatlar bilan ajralib turuvchi ashyoni olgandagina qo'llanishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Shartnoma tuzishning qanday noo'rin asoslari bor?
2. Stipulyatsiya tartibda shartnoma qanday tuzilgan?
3. Litteral shartnomalar qanday ta'riflanadi?
4. Qarz va ssuda shartnomalari qanday xususiyatlarga ega?
5. Omonat saqlash shartnomasining mazmuni va uni tuzish tartibi?
6. Konsensual shartnomalar tushunchasi?

7. Konsensual shartnomalarning turlari?
8. Ashyolardan ijaraga olish shartnomasining tushunchasi.
9. Xizmatchini yollash shartnomasining tushunchasi.
10. Pudrat shartnomasining tushunchasi?
11. Shirkat (birgalikda faoliyat ko'rsatish) shartnomasining tushunchasi va qo'llanishi)?
12. Paktlar va kontraktlarni ta'riflab bering.
13. Qarz, ssuda, saqlash shartnomalarini ta'riflab bering.
14. Rim huquqida qanday paktlar ma'lum?
15. Shartnomalar haqiqiyligining shartlari nimalardan iborat?
16. Shartnoma va delikt majburiyatlari nima bilan farqlanadi?
17. Shartnomalarning qanday turlari bo'lgan?
18. Paktlar va kvazikontraktlar nimasi bilan farqlangan?
19. Sessiya nima?
20. Shartnomani ta'minlashning qanday vositalari bo'lgan?
21. Ipoteka va pignusning farqi nimada?

IX BOB. VORISLIK HUQUQI

1-§. Sivil vorisligi

XII jadvaldayoq **vorislik munosabatining**: a) qonun bo'yicha va b) vasiyatnoma bo'yicha vorislik kabi ikki xil turi ko'rsatilgan.

“Jadvallarda agar kimdir vasiyatnoma qoldirmay vafot etsa, uning xo'jaligini eng yaqin vorisi (**sunus heres**) olsun”, deyilgan. Demak, agar vasiyatnoma qoldirilmagan bo'lsa, mulkka **qonuniy voris** ega bo'lgan. Agar marhum qoldirgan vasiyatnoma qonunga zid bo'lmasa, u so'zsiz bajarilishi kerak bo'lgan muqaddas hujjat sanalgan. Agar vasiyatnoma ham, marhumning yaqin vorislari ham qolmagan bo'lsa, u vaqtda mulk yaqin qarindoshlar o'rtasida taqsimlangan. **Jadvalda yana ikki holat ko'rsatilgan**: 1) vorislar marhumning barcha qarzlarini ham zimmalariga oladilar; 2) marhumga nisbatan paydo bo'lgan barcha talablarni ham vorislar (merosxo'rlar) barobar o'zaro taqsim qiladilar.

Qadim zamonlardan to respublika davrigacha meros qoldiruvchi xalq yig'ini (**komitsiy**) oldida o'z istagini izhor etish odati davom etgan. Urush vaqtida esa bu ish harbiy saf oldida ijro etilgan.

Imperator huquqiga binoan, vasiyatnoma yetti kishining guvohligida tuzilishi lozim bo'lgan, meros qoldiruvchidan keyin guvohlarning hammasi yoki ular nomidan bittasi imzo chekkan. Ayol kishi guvohlikka o'ta olmagan. So'ngra bu hujjatga muhr bosilgan. Hujjatga merosxo'ring nomini meros qoldiruvchining o'zi yozishi talab qilingan. O'z-o'zidan ma'lumki, ruhiy bemorlar, balog'atga yetmaganlar, ko'r, kar va soqovlar guvohlikka o'tolmaganlar. **Imperator Adrianning** buyrug'iga binoan, agar imzo chekkan guvohlarning birortasi keyinchalik qullika tushib qolsa ham, uning imzosi o'z kuchini yo'qotmagan.

XII jadvaldan ma'lum bo'lishicha, meros janjallari tez-tez uchrab turadigan xol bo'lgan. Merosning ko'p yoki kamligi, kimgadir noo'rin belgilanganligi, vasiyatnomaning noto'g'ri joylari borligi va boshqalar haqida nizolar bo'lib turgan.

2-§. Universal va singulyar meros (vorislik)

Meros olish ikki xil bo'lgan: 1) **universal vorislik** – bunda merosxo'r (merosxo'rlar) vasiyatnomaga binoan hamma narsani – mavjud mol-mulkni ham, qarzni ham zimmasiga olgan; 2) **singulyar vorislik** – yolg'iz (yakka) vorislik bo'lib, unda faqat vasiyatnomada ko'rsatilgan

narsalargina qabul qilib olingan. Boshqalari bilan vorisning ishi bo‘lmagan (masalan, qarzini to‘lash va h. k.). qog‘oz (papiirus) kabi yozish materialari paydo bo‘lishi bilan vasiyatnoma yoziladigan hamda imzo va muhr bilan tasdiqlanadigan bo‘lgan. Unda guvohlarning qatnashishi shart bo‘lmagan.

Universal va singulyar vorislik turli sabablarga ko‘ra qonuniy vasiyatnoma bilan yuzaga kelgan vorislikda ham qo‘llanishi mumkin bo‘lgan.

3-§. Pretor huquqiga binoan merosxo‘rlik

Bunda merosxo‘rlik vazifalariga bo‘lgan e‘tibor merosxo‘rdan ko‘ra ko‘proq merosning o‘ziga qaratilgan. Bunday merosxo‘rlik **“bonorum possessio”** (bonorum passessio) deyilgan. Agar qandaydir sabablarga ko‘ra merosxo‘r merosini qabul qilib ololmasa, pretor unga yordamga kelgan va interdikt chiqarib, mulkni egallab turgan shaxsdan haqiqiy merosxo‘rga olib bergan.

Bunday ediktlar bilan quyidagilar meros huquqini olishlari mumkin bo‘lgan:

1) marhumning bolalari, shu jumladan emansipatsiya qilinganlari (asrab olinganlari) ham. Ammo ular o‘z mulklarini umumiy mulkka qo‘shish sharti bilan olganlar;

2) marhumning eng yaqin merosxo‘ri (qandaydir sabab bilan uzoqlashib yurgan bo‘lsa ham);

3) marhumning boshqa barcha qarindoshlari (olti avlodgacha);

4) marhumning bevasi.

Agar vasiyatnomada ko‘rsatilmagan bo‘lsa, meros barchaga barobar taqsimlangan. Merosxo‘rlarning bir toifasi meros olsa, boshqa toifalari rad etilgan. Imperator ko‘rsatmalari keyinchalik qon-qardoshlikni aniqlashga ko‘proq diqqatni jalb etgan va bolalarning onalari orqali meros olishlarini ta‘minlagan.

Pretorlik merosi ham asta-sekin sivil merosxo‘rligiga tenglashtirilgan va bu merosxo‘rlikning soddalashtirilishi, mustahkamlanishi va tekislanishiga olib kelgan.

4-§. Vasiyatnoma

Har bir shaxsning o'zining vafoti munosabati bilan mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha bergan bir tomonlama, fuqaroviy huquqqa asoslangan rasmiy farmoyishi "**vasiyatnoma**" deyilgan. Unda marhum o'ziga merosxo'r (voris) yoki merosxo'rlar tayinlash, ba'zi vorislarni merosdan mahrum etish, qullarni ozod qilish, xotini va yosh bolalariga vasiy tayinlash, ko'mish marosimlari, maqbara yasash, tosh qo'yish kabilar haqida o'z xohish-irodasini izhor qilishi mumkin bo'lgan.

Vasiyatnoma yozish huquqi aktiv yoki passiv bo'lgan mumkin. To'liq fuqarolik huquqiga ega kishilarga aktiv huquq berilgan. **Pekuliy** olgan farzandlar shu pekuliy doirasida vasiyat qilishlari mumkin bo'lgan.

Qadimdan vasiyat huquqidan mahrum ayollar vasiyning roziligi bilan bu huquqqa ega bo'lganlar. **Adrian davrida** (76–138) ayollar ham fuqarolik va vasiyatnoma qoldirish huquqini olganlar. **Napoleon** kodeksida ham vasiyatnoma qoldirish ayollarning birdan-bir imtiyozlari sifatida belgilangan. Vasiyatnoma, tuzilgan vaqtidan qat'i nazar, faqat vasiyatchi vafot etganidan keyingina kuchga kirgan.

Peregrinlarga vasiyat qilish huquqi berilmagan. Shuningdek **intestabel** (axloqiy jinoyatlari uchun huquqdan mahrum etilgan)lar, ruhiy bemorlar va keyingi imperiya davrida xristianlikdan chekinganlar ham bu huquqdan mahrum etilganlar.

Merosxo'r tayinlashda ham turli to'siqlar bo'lishi mumkin bo'lgan. Masalan, qullar meros olmaganlar, agar meros katta bo'lsa (100 ming assdan ortiq) unga ayol kishini merosxo'r qilib tayinlash mumkin bo'lmagan, chunki ayollarda isrofgarchilik erkaklarga nisbatan ko'proq hisoblangan. Vasiyatnomada merosxo'rlarning nomlari aniq ko'rsatilishi kerak bo'lgan. Hali tug'ilmay, ona qornida bo'lgan farzandlar bundan mustasno bo'lgan. Ishlab chiqarish bilan shug'ullanmaydigan xayriya jamiyatlari ham voris bo'lishlari mumkin bo'lgan.

5-§. Zaruriy merosxo'rlik

Meros qoldiruvchiga quyidagicha ko'rsatma berilgan: u, avvalo, o'z o'g'illari masalasini – ulardan qay birini merosxo'r qilib tayinlash va qay birini merosdan mahrum etish masalasini – hal qilishi lozim bo'lgan. qizlar va nabiralar umumiy bir so'z bilan mahrum qilinishlari mumkin bo'lgan, ammo o'g'illar nomma-nom ko'rsatilishi lozim bo'lgan. Agar bu shartlar bajarilmasa, kviritlar huquqiga binoan, vasiyatnoma bekor

qilingan. Vasiyatnoma bo'yicha merosdan mahrum etilganlar ko'pincha sudga murojaat etganlar va bu masala muhim hisoblanib, yuzlik (sentrumviral) sudlarda ko'rilgan. Tug'ishgan aka-ukalar va opa-singillar birinchi galdagi merosxo'rlar hisoblanganlar. Ular $\frac{1}{4}$ qismdan kam bo'lmagan merosni olishlari kerak bo'lgan.

Shu tariqa, majburiy ulush belgilab qo'yilgan. Merosdan mahrum qilish sabablari ko'rsatilmagan. **Yustinian** bu masalaga aniqlik kiritgan. Ota roziligrisiz turmush qurish, otasining hayotiga suiqasd qilish kabi harakatlar merosdan mahrum qilishga asos bo'la olgan. Ona tomon qarindoshlar uchun esa bu haqda vasiyatnomada indamay qo'yishning o'zi merosdan mahrum qilish uchun kifoya qilgan.

6-§. Merosni qabul qilish

Merosni qabul qilib olishning rasmiy marosimi hamda **ikki muhim qoidasi bo'lgan**: birinchidan, meros beruvchining qaramog'idagi agnatlar meros ochilishi bilan oq uni birinchi bo'lib qabul qiluvchilar hisoblanganlar; ikkinchidan, ular hech qanday bahona bilan merosni rad eta olmaganlar.

Savdo-sotiq va ishlab chiqarishning taraqqiyoti, hayotning murakkablashuvi natijasida patriarxal oilalarning kamayishi, ota hokimiyatining zaiflashuvi yuz bergan. Merosxo'rlar ham foydasidan ko'ra qarzi ko'p bo'lgan meroslardan voz kecha boshlaganlar. Ana shunday holda pretor keyingi saf (navbat)dagi merosxo'rlarga murojaat etgan. Ular ham merosni rad etsalar, mulkni sotib yuborish tashkil etilgan. Merosni qabul qilish muddati 100 kun qilib belgilangan. Merosni talab qilish muddati esa meros qoldiruvchi vafotidan boshlab bir yil bo'lgan.

Imperator Fedosiy-II 450 yilda meros ochilguncha vafot etib qolgan merosxo'ring ulushini keyingi merosxo'rlar (uning o'g'li, nabirasi)ga qoldirish (vasiyat qilish) huquqini bergan.

Legat. Meros qoldirilgan mulkning bir qismini boshqa shaxslarga berish nazarda tutilgan vasiyatga "legat" deyilgan. Ushbu holda singulyar merosxo'rlik vujudga kelgan. Uni faqat tiriklar orasidagina bo'ladigan hadyadan farqlash kerak. Legatda umumiy meros mulkning bir qismi ajratiladi. Legat haqida XII jadvalda ham so'z yuritilgan.

Meros beruvchi xotini va merosga haqi bo'lmagan boshqa farzandlari och qolmasligi uchun ularga legat yo'li bilan mulkning bir qismini bergan.

Legatlar qadimgi Rim rivojlanib borgan sari kengroq qo'llanilgan. Legatlarda yo aniq ashyo ko'rsatilgan, yo tanlab olish huquqi berilgan. Keyinchalik domnatsion legatlar alohida o'rin egallagan. Bunda vorisdan uchinchi shaxsga ashyo topshirish yoki uning foydasiga biror harakat sodir etish talab qilingan. Legatlar meros mulkning ko'p qismini egallab olgan va natijada merosxo'rlar merosdan ayrilib qolgan hollar ham yuz berib turgan. Bunga qarshi chiqarilgan Falsidiyev choragi degan qonun merosxo'rlar manfaatini himoya qilib, legatlarning huquqini cheklagan, ya'ni ularning ulushi mulkning 3/4 qismidan oshmasligi belgilab qo'yilgan.

Fideikomisslar. Bu so'z boshqalar insofiga havola ma'nosini bildiradi. Bu rasmiy bo'lmagan, ya'ni vasiyatnomada ko'rsatilmagan legat bo'lib, u meros qoldiruvchining merosxo'rlar doirasiga kirmaydigan shaxsga mulkdan biror ulushni ajratib berish yoki ularga biror xizmat ko'rsatish haqidagi iltimosidan iborat bo'lgan.

Uzoq vaqtgacha bunday holat axloqiy majburiyat hisoblanib kelgan. **Imperator Avgust** vaqtidagina unga rasmiy yuridik tus berilgan. Ammo uni himoya qilib sudga da'vo bilan emas, ma'muriy shaxslar, konsul yoki fideikomiss pretoriga talab bilan murojaat etish mumkin bo'lgan. Fideikomiss orqali meros qoldiruvchi shaxs xohlagan kishisiga meros mulkidan ulush bera olgan. Bu unga ko'p foydali masalalarni hal qilishda qo'l kelgan. Shunday qilib, oilaviy fideikomiss vujudga kelgan va bu Farbiy Yevropa huquqlar majmuasiga ham kiritilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Vorislik turlarini sanab, tushuntirib bering.
2. Ediktlar bilan belgilanuvchi meros huquqi nimani bildiradi?
3. Vasiyatnoma nima?
4. Meros mulkidan majburiy ulush olish shartlari qanday bo'lgan?
5. Legat nima?

Xotima

Bashariyat tarixida o'ziga xos huquq tizimini, ayniqsa, xususiy mulkning huquqiy asoslarini yaratgan, uni har tomonlama tahlil qilib, ishlab chiqib, kamolga yetkazgan qadimgi Rim xususiy huquqi negizlari bilan muayyan darajada tanishib chiqish shuurimizni yoritib, huquqiy bilimimizni oshiribgina qolmay, balki umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lishimizga va ma'naviyatimizning boyishiga xizmat qiladi.

Kelajagi o'tmishidek buyuk mustaqil o'zbek diyorida tom ma'nodagi huquqiy demokratik davlat qurish sari borayotgan yosh avlod uchun mazkur huquqiy qadriyatlar bebahodir. Bunda o'z davlatchiligimiz tarixiy tajribasining hamda umumbashariy tarix saboqlarining qiymati bir-biridan aslo kam emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston milliy markazi tuzish to'g'risida"gi farmonida markazning asosiy vazifalari sirasida Konstitutsiya, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umum e'tirof etgan xalqaro huquq normalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi birinchi o'rindagi vazifa qilib qo'yildi.

Bunday insoniy, olijanob va bashariyat uchun nihoyatda dolzarb, shu bilan birga, nihoyat ko'p bilim va mehnat, aql va idrok talab etadigan vazifalarni maromiga yetkazib bajarish uchun umuminsoniy majburiyatlarni shuuriga singdirgan, bilimdon, insoniy qalb egasi bo'lgan fidoyi kishilar zarur.

Mazkur xislatlarga ega bo'lgan yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda Rim huquqi asoslarini atroflicha va teran o'rganishning ahamiyati beqiyos.

Ushbu darslik bu sohadagi birinchi tajriba sifatida qabul qilinadi va keyinchalik to'ldirib, takomillashtiriladi degan umiddamiz.

Shu sababli ham muallif mazkur darslik bo'yicha bildiriladigan har qanday fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul etadi.

LOTINCHA ATAMALARNING QISQACHA LUFATI

- Absent – yo‘q odam, hozir bo‘lmagan kishi
Actio – da’vo
Actiones in personam – shaxsiy da’volar
Addictio – majbur qilish
Adoptio – farzandlikka olish
Adversarius – raqib tomon
Advocatus – oqlovchi, advokat
Aeguitas – adolat
Aestimatio – baholash
Adressores – qasamyod etganlar (sud hay’atida)
Ager – yer maydoni
Arbitrium – qaror, yechim, hal qiluv qarori
Ars – o‘quv, mahorat, ustalik
Articulus – yozma buyruq, ko‘rsatma
Asylum – boshpana
Auctoritas – kafillik
Auxilium – yordam, ko‘mak
Bona Fides-halollik, insofililik
Bonus pater Familias – halol ota
Carcer – zindon, avaxta, qamoqxona
Castigatio-tan jazosi, jismoniy jazo
Causa – sabab
Centuria – yuzlik
Civitas – jamoa
Clientes – tobe, qaram kishilar
Commodatum – yordam qarzi shartnomasi
Compensatio – hisobga o‘tkazish
Conditio – shart, sharoit
Conditio sine gua non – zaruriy shart
Constitutiones – prinsipat davridagi Rim imperatorlarining farmonlari
Crimen – jinoyat
Culpa – ehtiyotsizlik
Curator – vakil
Damnnum – buzish, yaroqsiz holga keltirish
De fakto – darhaqiqat
De iure – huquq qoidalariga muvofiq
Deminutio – huquq layoqatini kamsitish
Depositum – omonat saqlash shartnomasi
Divortium – taloq, nikohdan ajralish

Dolus (dolo malo) – ataylab, qasddan
dominicilium – turar joy, maskan
dominium – mulk
falsus – soxta
familia – oila
fasces – xivichlar dastasi
fides – chinlik, ishonchlilik
forum – bozor maydoni
gratis – tekin
in corpore – to‘liq tartibda, to‘liq hay’atda
in flagranti – jinoyat ustida
interdictio. interdictum – taqiq
Interpretatio – talqin, sharh
intrregnum – podsholiklar oralig‘i
in iure. in iudicio – pretor, sudya oldida
inspectio – ko‘zdan kechirish
jus – huquq
jussu – buyruq bilan
ipso iure – huquqqa binoan
justitia – adolat
laesio enormis – baholarning qo‘shilishi
legatum – vasiyatnoma majburiyati
legetimus – qonuniy
lex – qonun
liberalitas – saxovat
locatio – conductio – yollash shartnomasi
magistratus – magistrat, amaldor shaxs
mandatum – topshiriq
manifestum – ochiq – oydin
memoria – xotira, yod
metalla – konlar
merces – to‘lov
ministerium – xizmat
modus – o‘lchov, chora, tadbir
mora – muddatning o‘tib ketishi
morus maiorum – odat huquqi
mutuum – qarz
Optimo iure – to‘liq huquq bilan
Ordo iudiciorum – sud muhokamasi
Ordo equester – chavandozlar, suvoriylar tabaqasi
Ordo senatorium – senatorlar tabaqasi

paganus – butparast
pater familias – oila boshlig‘i
patria potestas – ota hukmronligi
patrocinium – homiylik
per aes et libram – mis va tarozu vositasi ila bitishuv
periculum – tavakkalchilik
periculum in mora – kechiktirilish xavfi
permutatio – almashtirish
persona – shaxs
pretum – baho
primus inter pares – tenglar aro birinchi
regnum – podshohlik
regula – qoida, tartib
restitutio in integrum – pretor buyrug‘i ila qayta tiklash
Rex – podsho
Rigor iurus – qonun qat‘iyligi
sanctus – muqaddas
satis – yetarli
satisfactio – qoniqish
senatus – senat
senatus consulta – senat qarori
servitus – qullik
servus – qul
sessio – majlis
signum – muhr
socius – o‘rtoq, gumashta
specificatio – ishlash (birar narsani)
Tes lamentum – vasiyatnoma
testis – guvoh
traditio – narsalarni rasmiyatchiliksiz berib yuborish
Tresviri – davlatni uch kishilab idora qilish
Turba – qaroqchilar, bosqinchilar to‘dasi
Venditio – sotish
verberatio – urish, kaltaklash

RIMLIK MUALLIFLARNING BA'ZI IBORALARI

Cives origo facit – odamlarga nasl-nasabi huquqini beradi

Cui prodest? Cui bono? – kimga foyda, kimga zarar

Ei incumbit probatio qui dicit, non qui negat – biror voqeani tasdiqlovchi kishi keltirishi lozim, inkor etuvchi emas

Jurus praesepta haes sunt: honeste vivere, alterum non ledere suum cuique tribuere – huquq talabi shunday: halol yashamoq, boshqaga zarar yetkazmaslik, har kimni o'ziga yarasha taqdirlash

Lex posterior de rogat priori – keyingi qonun ilgarihini bekor qiladi

Negotia vicini nosse praesumitur – qo'shni ishi qo'shniga ma'lum

Nec de suspicionibus debere aliquem damnari – faqat shubhaga asoslanib hech kimni ayblab bo'lmaydi

Nemo plus iurus ad alium transferre potest quam ipse habet – hech kimga hech kim o'zida boridan ortiq

Nollus idoneus testis in re sua intellegitur – hech kim o'z ishiga o'zi loyiq guvoh bo'lolmaydi

Pasta sunt servanda – shartnomalar bajarilishi shart (va'da berdingmi – bajar)

Res nullius cedit primo occupanti – xo'jayinsiz buyum uni topgan kishi ortidan ergashadi

Servitus morti adsimilatur – qullik o'lim bilan barobar

Ultra posse nemo tenetur – hech kim o'z imkoniyatidan ortiq majburiyat egasi bo'lolmaydi

Ubi rem meam invenio ibi vindico – o'z narsamni qayda topsam, shunda qaytarib olaman (qaytarish haqida talab qilaman)

Utilitas publica praeferenda contractibus – umumiy manfaat xususiy, shartnomalardan ustun turadi

Vim vi repellere licet – zulmni kuch bilan qaytarmoq joiz

Nullus videtur dolo fasere, qui ire suo utitur – o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanuvchi kishi hech kimga zarar yetkazmaydi.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
I bob. RIM XUSUSIY HUQUQI – O‘QUV FANI.....	7
1-§. Rim xususiy huquqi va uning predmeti.....	7
2-§. Rim huquqining tarkib topishida davlat organlari.....	13
3-§. Rim huquqining tarixiy davrlarga bo‘linishi.....	16
II bob. RIM XUSUSIY HUQUQINING MANBALARI VA SUB‘YEKTLARI.....	22
1-§. Rim huquqi manbalari.....	22
2-§. Rim huquqi sub‘yektlari.....	27
III bob. SUD TIZIMI VA DA‘VOLAR HAQIDA TA‘LIMOT.....	38
1-§. Formulyar sud.....	39
2-§. Sud va sudyalari.....	40
3-§. Dalillarni taqdim etish.....	41
4-§. Kongnitsion ish yuritish.....	42
5-§. Interdikt turlari va da‘vo muddati.....	44
IV bob. RIM XUSUSIY HUQUQIDA SHAXSLAR TUSHUNCHASI.....	46
1-§. Jismoniy shaxslar.....	47
2-§. Yuridik shaxslar.....	50
V bob. RIM XUSUSIY HUQUQIDA OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR.....	52
1-§. Oila huquqi.....	52
2-§. Kognatlar va agnatlar.....	52
3-§. Nikoh.....	53
4-§. Er-xotinning mulkiy munosabatlari.....	55
5-§. Ota-onalar va farzandlarning huquqiy munosabatlari.....	56
6-§. Emansipatsiya.....	58
7-§. Vasiylik va homiylik.....	58
VI bob. RIM XUSUSIY HUQUQIDA MULK HUQUQI VA BOSHQA ASHYOVIY HUQUQLAR.....	61
1-§. Ashyoviy huquq.....	61
2-§. Egalik.....	63
3-§. Mulk huquqi.....	66
4-§. Mulk huquqini himoya qilish.....	73
5-§. Mulk huquqini cheklash.....	75
VII bob. MAJBURIYATLAR VA SHARTNOMALAR TO‘G‘RISIDAGI UMUMIY TA‘LIMOTLAR.....	81
1-§. Majburiyatlar haqida umumiy qoidalar.....	81

2-§. Rim shartnomasi tizimi.....	83
3-§. Shartnomalarning haqiqiyliги shartlari	84
4-§. Shartnomaning ijrosini ta'minlash va uning buzilganligi uchun javobgarlik	88
5-§. Delikt (huquqbuzarlik)dan kelib chiqadigan majburiyatlar.....	92
VIII bob. SHARTNOMALARNING ALOHIDA TURLARI. PAKTLAR VA KVAZIKONTRAKTLAR	95
1-§. Verbal shartnomalar	95
2-§. Litteral shartnomalar.....	96
3-§. Real shartnomalar	96
4-§. Konsensual shartnomalar.....	98
5-§. Shartnomalarning ayrim turlari	99
6-§. Paktlar va kvazikontraktlar	103
IX bob. VORISLIK HUQUQI	105
1-§. Sivil vorisligi	105
2-§. Universal va singulyar meros (vorislik)	105
3-§. Pretor huquqiga binoan merosxo'rlik	106
4-§. Vasiyatnoma	107
5-§. Zaruriy merosxo'rlik.....	107
6-§. Merosni qabul qilish	108
XOTIMA	110
LOTINCHA ATAMALARNING QISQACHA LUG'ATI.....	111
RIMLIK MUALLIFLARNING BA'ZI IBORALARI	114

Zamira Shoislomovna SHOMUHAMEDOVA

RIM

XUSUSIY HUQUQI

Muharrir: B. Sobirov.
Texnik muharrir: A.Boymamatov.
Musahhih: N.Mirzajonova.
Komp'yuterda sahifalovchi: F. Nurlibaev.

Terishga berildi:12.04.2005 . Bosishga ruxsat etildi:12.12.2005.
Bosma tabog'i: 7,3.. Adadi: 500. Buyurtma № 478
Bahosi shartnoma asosida

TDYUI kichik bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahri. Sayilgoh 35.

